

Muqaddima  
Bismillohir Rohmanir Rohiyim.

"Qachonki (bu) ish tugagach (ya'ni jannat ahli jannatga sazovor bo'lib, do'zaxiyalar do'zaxga hukm qilingach), shayton dedi: "Albatta, Oллоh sizlarga haq va'da qilgan edi. Men esa (yolg'on) va'dalar berib, sizlarni aldagan edim. (Lekin) men uchun sizlarning ustingizda hech qanday hukmronlik yo'q edi, illo men sizlarni (kufr yo'lga chaqirishim bilanoq) o'zingiz menga itoat etdingiz. Endi meni emas, o'zlarinigizni malomat qilingiz. Men sizlarga yordam bera olmayman, sizlar ham menga yordam berguvchi emassiz. Albatta, men sizlar ilgari (Oллоhga) meni sherik qilganingizni inkor qilurman. Albatta, zolimlar (ya'ni kofirlar) uchun alamlı azob bordir...". "Ibrohim" surasining 22-oyati. Alouddin Mansur tarjiması.

"Shayton g'olib, jon berarda shoshdim mano". Ahmad Yassaviydan satr.

Yaratganga ming-ming shukrlar bo'lsinkim, Siz - azizlarga aytmoq uchun dilimga yana bir gap soldi. Oллоhning o'zidan madad so'rab, qo'limga qalam oldim. Umid shulki, aytar so'zlarim sizlarni befarq qoldirmas

Oллоh subhanahu va taolo bandalariga "shayton yo'lidan yurmanglar", degan. Nadomatkim, haq yo'l turganida shayton yo'li bizga durustroq ko'rinib, shu tomon og'amiz. Oyoqlarimiz yaxshilik emas, zulm sari yurishni ma'qul ko'radi. Peshonamiz devorga urilganda esa, "shayton yo'ldan ozdirdi", deb ko'ksimizni dog'laymiz.

Shayton ham kishi bilmas ulug' qudrat egasi. U hasad, riyo, jaholat, razolat, xiyonat, g'azab, shahvat, safohat, xasosat, anoniyyat, namimat, kizb, zulm, tama saltanatlarining sultoni. Uning saltanati qurg'oqchilikni bilmaydi - u ekan urug'larga Siz bilan biz suv berib, o'zimiz anglamagan holda xolis xizmat qilib yuramiz. Shu bois uning saltanatida qadalgan har bir urug' nish berib, unib chiqadi, o'sib, meva tugadi... Yon-atrofimizda shayton saltanatining fuqarosi ko'pmi, yo imyon va vijdon so'ziga itoat qilguchi tobunlarmi? Albatta, shaytonni yenga olganlar ko'p. Ammo shayton yo'lidagilar ko'zimizga ko'pday ko'rınaveradi. Chunki ular ekan yomonlik daraxti tez shoxlaydi, mo'l meva beradi. Men shu yomonlik daraxtining ildizini izlab toparman, deb yana sizlarga murojaat etyapman, vaqtinigizni o'lyapman. Uni topmoqqa bir odamning aqli qosirlik qilmog'i aniq. Ko'plashib fikrlashaylik-chi, inshoolloh, to'g'ri xulosa chiqarib olsak. Hayot turfa rang. Ko'zni yashnatib, dilga quvvat berguchi chiroyli ranglar ham, ko'ngilni vayron qilguchi qora rang ham bor. Avvallari qora rangni ishlatishga bir tomondan ijodat, ikkinchi tomondan jur'at yo'q edi.

Qoraning yonida albatta oq, pushti, zangori... ranglar bo'lishi shart edi. Zamon bergan erkinlikdan foydalanib, turmushimizning qora ko'chalariga kirishga jazm etdim. Yozganlarimni o'qib, chor-atrof zimiston-ku, deb vahimaga berilmang. Yorug' kunda barcha yaxshi narsalarni ko'rib turamiz. Qorong'ida esa ko'rmaymiz. Urilib, surilib, qoqilib yuramiz. Alqissa, yorug' kunning qadriga yetmoq uchun qorong'ulikni ham ko'rish lozim emasmi?

Asarni oxirigacha o'qiy olsangiz, bunga sabringiz va vaqtinigiz yetsa, bir qancha odamlar bilan tanishasiz. Ular balki qo'shningizga, balki do'stingizga, balki qarindoshingizga o'xshab ketar. Shu hol yuz bersa, "Falonchini yozibdilar" deb yurmang. Bu shunchaki tasodifiy o'xshashlikdan boshqa narsa emas.

Hech bir inson yomonlik uchun yaratilmaydi. Inson dunyodan lazzatlanish, bu dunyo sinovlaridan o'tish uchun keladi. Odam yerda yuradi. Shoir Asqar Qosim aytmoqchi:

Samodagi tuzoq nima bilmagay,

U hech kimga itoat ham qilmagay.

Afsus, oyoqlar ostida tuzoqlar ko'p. Bu tuzoq odam bolasining hayot yo'lida hal qiluvchi vosita ham bo'lishi mumkin. Men asarda sizga hamroh bo'lguchi fuqarolarning ayrimlarini avvaldan tanishtiray. Shu maqsadda bir oz ortga qaytishimizga to'g'ri keladi.

Elchin

1978 yil, 8 sentyabr.

U momiq bulutlar ustida sarxush suzardi. Birdan bulut choki so'kilib, pastga qarab sho'ng'idi. Yuragi shuv etdiyu ko'zini ochdi. Chindan ham bulut ustida sayr qilardimi, chindan ham pastga sho'ng'idimi - daf'atan idrok etolmadi. Xayolini jamlashga urindi. Ko'rib turgani - naqsh bilan bezatilgan shift - demak, o'z uyida. Ajab, uyga qachon, kim bilan qaytdi ekan? "B B" Men hazil o'yin deb o'ylabman...

Qimorda hazil bo'lmaydi, erkak.

...To'layman... faqat bugun emas. Bir-ikki yil ichida.

Pulni-ku, to'larsan-a, xotining-chi? Xotiningni ham tikvorgansan-ku". Bu xirildoq ovoz boshiga gurzi bo'lib urilib, sapchib tushdi. Beixtiyor:

Noila! - deb baqirdi. Javob bo'lmadi. "Olib ketishdimi?!" degan fikr vujudini parchalab tashladi. Bu safar jonholatda baqirdi: "Noila!!!" Ayvondagi qafasda mudrayotgan to'tiqush patirlab, bir chug'urlab qo'ydi-yu, tinchidi. Tashqarida it ulidi. U seskanib, atrofga olazarak boqdi: o'ng tomondagi yotoq eshigi qiya ochiq. Ichkarida chiroq yoniq. Noila yolg'iz qolgan tunlari chiroqni yoqib yotardi. "Uyda ekan..." - shu fikr uning parchalangan vujudiga jon qaytardi. Eshik tomon yurdi. Ostona hatladi-yu, toshday qotdi: ikki kishilik karavotda, umrining eng shirin damlari o'tgan o'rinda Noila sochlari parishon holda yotardi. Agar choyshab qonga belanmagan, chap ko'kragiga pichoq qadalmagan bo'lganida uni shirin uyquda deb o'ylash mumkin edi. Achomlashgan uzun kipriklar pastki qovog'iga soya tashlagan, bejirim lablari qimtilgan, qaldirg'och qanotidan nusxa olgan qoshlari esa taranglashgan. U hozir xotining na kiprigiga, na qoshiga qaraydi. U hozir Noilaning bo'yni, baqbaqalari tishlanganini ham ko'rmaydi. Uning ko'zi hozir ko'krakka qadalgan pichoqda. Dastasi kiyik shoxidan ishlangan pichoq javonda saqlanar edi. Uni kim oldi? Kim Noilaning ko'kragiga sanchdi? U bir necha daqiqa telbalarcha turdi. So'ng, esi o'ziga kelgach, shoshilib borib ko'krakdagi pichoqni sug'urib oldi...

Asadbek

1949 yil, 31 dekabr.

Tongga yaqin onasining ingrayotganini eshitdi. Keyin otasi nimadir dedi. Tancha sovub qolgan, badani sovuqdan junjika boshlagan edi. Otashkurakni olib kulni titib qo'ysa-ku, olam guliston, ammo erinchoqlik sovuqdan ustunlik qildi. Bu yumushni ertalab onasi bajarar edi. Uchovlon tanchaning uch tomonida yotishardi. Hozir onasi narigi uyda ingrayapti, otasi nimadir deyapti. Sovuq uyda nima qilishyapti ekan?

- Uyg'ondingmi, toychoq? - dedi dadasi ostonada turib. - Turaqol, ayangni kasalxonaga tashlab kelaman. Bugun qorbobo senga ham chana, ham uka olib keladiganga o'xshaydi. Sen yaxshi bola bo'lib o'tirib tur. Ayasi dadasining qalin yoqali katta og'ir

paltosini kiyib olibdi. Uning nazarida ayasi paltoning og'irligidan qiynalib inqillayotganga o'xshardi. Ayasi tancha oldida to'xtadi. U turdi. Ayasi uni o'pib, yig'ladi.

- Dadasi, tanchaning cho'g'ini ochib qo'ying. Toychog'ingiz sovqotibdi, - dedi. Dadasi engashib, ko'rpaning bir tomonini ko'tarida, kulini titib, cho'g'ni ochdi. Keyin chiqib ketishdi.

U joyiga yotdi. Avvaliga yolg'izlikdan bir oz qo'rqdi. So'ng uxlab qoldi. Bu safar oshqozoni tatalab uyg'ondi. Sandal ustini qoplab turgan to'rt burchakli katta patnida bir burda non, bir siqim turshak bor edi. Turib, yuvinishga erindi. Qo'lini cho'zib nonni oldi. Ko'cha tomondan bolalarning quvnoq qiyqiriqlari keldi. Non bilan turshakni yeb bo'lguncha "ko'chaga chiqsam dadam urishadilar", deb o'ziga o'zi so'z berib o'tirdi. Qorin g'ami bir oz arigach, dik etib o'rnidan turdi-yu, ayasi tikib bergan paxtalikni egniga ildi.

Ana shu paytda ko'cha eshigi ochilib, ikki kishi kirib keldi. Ayvonga chiqib oyoqlarini tap-tap urib, qorni qoqishdi. So'ng eshikni ochib tanchali uyga kirishdi.

- Uyda kim bor? - deb so'radi past bo'yli kishi.

- Otang qaerda? - deb so'radi novcharog'i.

- Dadam ayam bilan ketdilar.

- Qayoqqa?

- Uka olib kelgani.

Ular bir-birlariga g'alati qarab oldilar.

- Joyingda qimirlamay o'tir, - deb buyurdi past bo'yli kishi.

Qo'rqib ketganidan qimirlashga ham holi qolmadi. "Bular o'g'ri, yaxshi ham nonni yeb qo'yganim", deb o'yladi.

Ular etiklarini yechmay, eski kigiz ustida iz qoldirib, tokcha tomonga o'tishdi. Kitoblarni titkilashdi. Keyin sandiqni ochishdi.

U titray boshladi.

- Tanchaga o'tir, - deb buyurdi past bo'yli kishi. U sovuqdan emas, qo'rquvdan titrayotgan edi. Tanchaga o'tirganda ham qaltirog'i bosilmadi. "Hech narsa topisholmasa, meni o'ldirishadi", degan xayolga kelib, yig'lab yubordi.

- Nimaga yig'layapsan, qo'rqayapsanmi? - dedi novcha odam.

Tili gapga kelmay, boshini irg'adi.

- Qo'rqma, biz o'g'ri emasmiz. Biz xalqni o'g'ri, muttaham, dushmanlardan himoya qiladigan odamlarmiz. Sening otang ham dushman. Oddiy emas, xalq dushmani!

- Bolaga bu gaplarni gapirmang, foydasi yo'q.

- Foydasi bor. Bilib qo'ysa chakki bo'lmaydi.

Tintuv tugagach, bittasi patnisni surib qo'yib, kursi ustiga, ikkinchisi deraza tokchasiga o'tirib, papiros tutatdi.

Ular uzoq kutishdi. Nihoyat, ko'cha eshigi og'zida dadasi ko'rindi. Qo'lida chana! U suyunganidan irg'ib turib, tashqariga yugurib chiqishi kerak edi. Ammo o'rnidan jilolmadi. O'g'lining peshvoz chiqmaganidan dadasi ham ajablanib, "Toychoq, uydamsan?" deb qo'ydi. Eshikni ochib, tanchali uy ichkarisiga bir odim tashladi-yu, hayratlanib to'xtadi.

- Siz qamoqqa olindingiz, - dedi past bo'yli odam, uning orqasiga o'tib.

- Xalq dushmani sifatida, - dedi novcha odam, uning ro'parasiga turib olib.

Dadasi indamadi. U: "Dadam ikkalasini urib-urib ko'chaga otvorsalar edi", deb juda-juda istagan edi. "Nimaga urmayaptilar, kuchlari yetmaydimi? Men borman-ku!"

- Dadamga tegmang! Tegmang dadamga! - daf'atan kelgan hayqiriqni to'xtata olmadi. Irg'ib turib uzun bo'ylining yelkasiga tirmashdi.

- Jim bo'l, ilonvachcha! - u shunday deb itarib yubordi.

- Bolaga tegmang! - deb baqirdi dadasi.

- Bo'ldi, tomosha tamom, yur, - dedi past bo'yli odam.

- Birodarlar, - bu safar dadasining ovozi titrab chiqdi, - axir bugun yangi yil, o'g'lim yolg'iz. Ertaga tong sahar aytgan yeringizga o'zim yetib boraman.

- Mumkin emas, yur.

Dadasi ularga boshqa yalinmadi. Faqat: "O'g'lim bilan xayrlashib olay", deb izn so'radi. Ruxsat tekkach, uni bag'riga olib, yuzini yuziga bosdi. Shunda yuziga dadasining ko'z yoshi tegib, u ham yig'lab yubordi.

- Yig'lama, o'g'lim, Jalil o'rtog'ingnikiga chiqib o'tir. Men ertalab qaytaman. Ayang senga uka olib keladi. Otini Samandar deb qo'yamiz. Esingdan chiqmasin - Samandar! Dadasi shu ketganicha qaytmadi.

Zohid

1980 yil, 10 iyun.

Ular to'rt kishi edilar. Aka-uka ularga bas kelolmasdi. Qochdilar. Ko'cha uzun, go'yo adoqsiz edi. Hammasi xuddi tushdagiday kechdi: jonholatda tez yuguramiz deyдилару yugurolmaydilar - qochoqlar bilan quvloqlar orasidagi masofa tobora qisqaradi. Ana, uch qadam qoldi... ikki qadam... Orqadagilarning hansirashlari yaqqol eshitiladi. So'ng o'ng chakkasiga orqa tomondan musht tushdi. Oyoqlari chalishib, muvozanatni ushlo olmay qoldi - munkib borib deraza tokchasining qirrasiga kallasi bilan urildi. Ko'zlari tinib, a'zoyi badani bo'shshadi. Shu ahvolda ekanida akasining ihraganini eshitdi. Keyin akasi joni boricha baqirdi:

- Zohid, qoch!!!

U ham "aka, qoching!" deb baqirmoqchi edi, ovozi chiqmadi. Faqat lablarini arang qimirlata oldi. Kasalxonada o'ziga kelib, bo'lgan voqealarni esladi: shanba oqshomida aka-uka darsdan chiqib, qishloqqa qaytdilar. Onasi tandirga g'o'zapoya qalab, non yopishga hozirlanardi. Sovchilar ishni pishirishgan, ertaga qizning uyida non sindiriladi. Qarabsizki, yozgi imtihonlar oyoqlashi bilan to'y boshlanib turibdi-da. Aka-uka ertaga bo'ladi- gan shodlikni bilishsa ham bilmaganga olishadi. Faqat uka ayyorlik bilan ko'z qisib, akasiga qarab qo'yadi. - O'rtoqlaring kelib ketishdi. Afzaling harbiydan qaytibdi. O'sha yerda o'tirisharkan, - dedi ona bo'lajak kuyovga mehr bilan boqib. Aka o'sha yoqqa otlandi.

- Hay, o'rtoqlaringga qo'shilib ichmagin-a! - onasi shunday deb uni ham akasiga qo'shib mehmondorchilikka yubordi. Jo'ralar quchoqlashib ko'rishdilar. Bir ko'chani changitib ulg'aygan yigitlar fотиha to'yidan darak topishgan, ular uchun Afzalning harbiydan qaytgani bir shodlik bo'lsa, ulfatlaridan birining bo'ydoqlik qo'rg'onini buzib uylanayotgani o'n shodlik edi. Chin shodlik shishalar bo'shatilguncha ekan. Bir-birovlariga bitta gap kam, ikkitasi ortiqcha darajaga yetishgach, barchasi unutildi. Akasining qaysi gapi

jo'raboshiga yoqmadi - u eslolmadi. Ziyofat tugab, ko'chaga chiqishdi. Ana shunda jo'raboshi:

- Hali nima devding, quruq! - deb yoqasiga yopishdi.

Akasi ham hayron. Nima degani esida yo'q. Ularni ajratib qo'yishdi. Aka-uka tinchgina ketishayotgan edi. Yo'l yarimlaganda orqadan to'rttalasi quvib keldi...

...Fotiha to'yiga atab yopilgan non janozaga kelganlar uchun yozilgan dasturxonga qo'yildi. Murda yuviladigan uyga gullar sochildi. Chimildiq tutildi...

Bu paytda u kasalxonada xushsiz yotardi.

To'rtta edi ular. Qora kursida esa yolg'iz jo'raboshi o'tiribdi. U aka-uka bilan mushtlashib, "bexos urib o'ldirib qo'yibdi". Jinoyat qasddan qilinmagan. Davlat qoralovchisi ham, oqlovchisi ham shu fikrda.

Sudxonaga akasining suratini olib kirishdi. Jo'raboshi yig'lab turib, suratni olib qo'yishni iltimos qildi. Guvohlar ham o'tinib so'rashdi. "Ha, bularda insof bor ekan-ku", deb o'yladi. Lekin jo'ralarning barchasi yolg'on gapirishdi. Marhum xotirasi ham bulg'anib tashlandi. To'rtovlon akasini urayotganda mard edi. Endi, javob berishga kelganda nomard kimsaga aylanishdi. Jon shirin ekan. Shu shirin jon uchun xoinlik qilish oson ekan, juda oson ekan.

\* \* \*

Bayon qilganim - uch voqea ularning hayotidagi alg'ov-dalg'ovning boshlanishi xolos. Shu voqealardan so'ng ularning ahvollari ne kechdi, boshlariga yana ne savdolar tushdi?.. Ana endi muqaddimani yakunlab, asosiy muddaoga o'tsak bo'lar. Asarni so'nggi nuqtasigacha o'qib chiqishingizda Yaratgandan Sizga sabr tilayman. Assalomu alaykum va rahmatulillohu va barakotuh.

I bob

1

Qishloqda tongni xo'rozlarning qichqirig'i, qushlarning chug'uri, nihoyat, eshakning hangrashi uyg'otadi. Ruhii xastalar shifoxonasida esa derazalariga temir panjaralar mahkamlangan xonalardagi jinnilarning hayqirgan ovozlari tongni bir titratib so'ng uyg'otadi. Yanada aniqroq aytsek, bu ovozlari shomdan tongga qadar tinmaydi. Bu baqiriqlardan bezor bo'lgan tun bu yerlardan tezroq qochmoq istaydi. Uchinchi qavatdagilar tunning ojizligiyo o'zlarining qudratlaridan masrur - go'yo ular tongni uyg'otish uchun betinim xizmat qilib chiqadiganday. Anvar buni birinchi kelgan kuniyoq fahmlagan. Gaplari almoiy-aljoyi odamlar bilan hamxona bo'lgach, "chindan ham mening esim og'ganmi?" deb o'yladi. Unga mehribonlik ko'rsatganlarning chin maqsadini anglamoq niyatida xayolning turli ko'chalariga kirib chiqdi. "Mehribon"lar safining boshida "xalq otasi" turgani aniq. Umrini maqtov eshitishu chiroyli qiz-juvonlar bilan aysh qilishga tikkan idora boshlig'ini Xolidiy emas, balki kinoya bilan "xalq otasi" deb atash rasm bo'lgan edi. Xolidiy "xalq otasi" degan so'zni eshitganida zarracha ranjimasdi, balki unvon sifatida qabul qilishga ko'nikkandi. Aniqrog'i, bu "unvon" unga juda xush yoqar, vaqt o'tgan sayin chindan ham xalq otasi ekaniga ishonib borardi. Xolidiy xorijsa ko'p safar qilguchi edi. Agar tug'mas xotinlar delegatsiyasi chet elga boradigan bo'lsa ham bu odam ro'yxatning boshida turardi. Mabodo ro'yxatga kirmay qolsa, "axir men ham tug'maganman-ku", deb da'vo qilishdan toymas edi. Safardan qaytgach esa, albatta idora xodimlarini to'plab, bir necha soat davomida xotiralarini so'zlab berardi. Xalq tarixini o'rganishi lozim bo'lgan ilmgoh asosan Xolidiyning xizmatini o'tash bilan mashg'ul edi. Navbatdagi safardan qaytgan Xolidiy xotirago'yliklarning birida "majlisdagi ajnabiylar nutqimni eshitib, "siz oddiy olim emas, xalqning otasi ekansiz!" deb olqishlashdi" deb bir yayradi. Bu gapni eshitib Anvar "shu odam ota bo'lgan xalqning padariga la'nat!" dedi. Yonidagi hamkasblar avvaliga bu burama gapning mag'zini chaqishmadi. Keyin tushunib qolib, kulib yuborishdi. Shubha yo'qki, Anvar-ning gapi Xolidiyga yetib borgan. Biroq, uni jinnixonaga yuborish uchun bu gap kifoya emas. Xolidiyning shogirdi dissertatsiya yoqlayotganida Anvar bu ilmiy ish emas, lo'ttivozlik deb fikrini isbot qilishga uringan edi. Uning gaplarini barcha ma'qullagan, lekin uni himoya qilmagan edi. Dissertatsiya yaxshi baho oldi. Xolidiy istasa Anvarni o'sha kuniyoq ishdan bo'shatar edi. Bunaqa idoralarda "shtat qisqarishi" degan gaplar bo'lib turadi. Anvarday cho'rtkesar olimning bahridan o'tish Xolidiyga cho't ekanmi? Lekin u Anvarni ishdan haydamadi. Yaxshi muomalada bo'lib yuraverdi. Yaxshi muomalasini darig' tutmagan holda jinnixonaga jo'natdi. Ammo nima uchun bunday qildib?" Anvar uchun ham, uning atrofidagilar uchun ham sir edi. Anvar birinchi kechada shu jumboqqa javob topishga harakat qildi. O'sha kecha uchinchi qavatdan taralayotgan ovozlarni eshitib, yuragi siqildi. "Meni bu havaskor jinnilar xonasiga keltirishga kuch topgan odamlar uchinchi qavatga ham ko'tarishga qudrat toparlar?" Anvar tunlari ijod qilib uxlamas edi. Bu yerda esa dam vahimali, dam ayanchli ovozlardan uxlay olmadi. Avvaliga dahlizda yurib chiqdi. Hamshiralar norozi bo'lavergach, karavotida shiftga tikilib yotishni odat qildi.

Bu tun ham shu zaylda kechdi. Tongga yaqin o'rnidan turdi. Dahlizga chiqdi. Hamshira stol ustiga qo'llarini qovushtirib, bilagini bolish qilib uyquga ketibdi. U bemorlarning telba-teskari gaplariga, uchinchi qavatdan kelayotgan baqiriqlarga ko'nikib qolgan. Eshikning tashqari oynavand tabaqasini mahkam yopgan, ichkarigi tabaqa - temir panjaraga qulf urgan - bu yog'i xotirjamlik. Anvar temir panjaraga yaqinlashib, tashqariga tikildi. Uchinchi qavat ham jimib qolib, hammayoqni o'lik sukunat qoplasa, bu yer yanada vahimali bo'lsa kerak. Har holda "jinnixonona" degan nomi bor. Har kim ham yurak betlab yaqinlasha olmaydi. "Men esam ular bilan birga yashayman. Biz ularni "jinni" deymiz. Ular-chi? Ular bizni nima deyishar ekan?.. Ularning ko'ziga biz jinni bo'lib ko'rinsak kerak. Bu dunyoga qip-yalang'och holda kelamiz. U dunyoga ketishimizda ham hech narsa olmaymiz. Bir odamga ikki quloq surp kifoya. Ana shu kelish-ketish orasidagi bir chimdim, umrimizda nimalarni talashamiz? Bir-birimizga xoinlik qilamiz, hasaddan kuyib-yonamiz. Hatto... O'ldiramiz! Obro' topmoqchi, pul yig'moqchi, shuhrat orttirmoqchi bo'lamiz. Barchasiga ega ham chiqamiz. Shohsupada taltayib o'tirganimizda hazrat Azroil keladi-yu, pattamizni qo'limizga tutqazadi. Biz esi sog' odamlar buni tushunib yetmaymiz. Ular - jinnilar balki shu haqiqatga yetib borganlari uchun bizning ko'zimizga ruhiy xasta bo'lib ko'rinishar? Axir ular orasida mansab talashishlar, maishat, hasad, xoinlik... yo'q-ku?... " Anvar shularni xayolidan kechirib, yuragi toshib ketdi. Temir panjarani buzib uchinchi qavatga chiqqisi keldi. Panjarani siltab tortdi. Temir sharaqlab ketib, hamshirani cho'chitib yubordi. U uyqusiragan holda shoshib boshini ko'tardi-da, atrofga alangladi. Anvarni ko'rib, o'rnidan turdi.

- Sizmidingiz? Qo'rqib ketibman, - dedi. "Demak, mendan qo'rqmaydi. Demak, mening esim sog'. Bu yaxshi", deb o'yladi Anvar.

- Xavotir olmang. Kelajagi porloq havaskor yosh jinnilaringiz orom qo'ynida javlon urmoqdalar, - dedi u hamshiraga, hazil ohangida.

- Nimaga unaqa deysiz! Qo'ying, hamma tuzalib ketadi, - dedi hamshira, soddadillik bilan.

- Hamma tuzalib ketsa siz ishsiz qolasiz. Odamlarga ham qiyin bo'ladi. Kim sog', kim jinni - ajratolmay ezilib ketadi.

- Gaplaringiz qiziq.

- Jinnichami?  
- Yo'-o'q. Hecham unaqamas. Sizni nimaga chiqarib yuborishmayapti, hayronman. Sizga yana yangi dorilar buyurishibdi.  
- Kuchliroqmi? Yashirmay aytavering. Kuchliroq dori buyurgan. Kecha boshlig'ingizga qarab turib: "Sizni so'ysa yetmish kilo go'sht chiqsa kerak", devdim. Qo'rqqanidan ko'zi olayib ketdi.  
- Nimaga shu gaplarni aytasiz-a?  
- Kingadir qitmirlilik qilishim kerak-ku? Keling, qo'ying, bu gaplarni. Daftaringizga "shu kuchli dori bilan emlab qo'ydim" deb belgilayvering. Buning evaziga bitta latifa aytib beraman.  
- Yana jinnilar haqidami, kerakmas.  
- Siz eshiting, bu yangisi. Xullas, bir jinnixonada jinnilar tuzaladimi yo yo'qmi, bilmoqchi bo'lishibdi. Jinnilarni samolyotga joylab osmonga uchirishibdi-da, qo'llariga bo'sh shishalar tutqazishibdi. Bir mahal qarashsa, salonda bir kishi o'tirganmish. Boshqalar qani, deb so'rashsa, shisha topshirgani ketishdi, debdi. Sen-chi, deb so'rashsa: "Nima, men jinnimanmi, bugun dushanba, magazin ishlamaydi", dermish. Hamshira kulib, yuzini chetga burdi.  
- Agar meni olib chiqishsa, shartta tashlab yuborar edim, - dedi Anvar.  
- Qo'ying-e, - dedi hamshira. Nazarida Anvar chindan ham osmondan o'zini tashlab yuboradiganday tuyulib cho'chib tushdi. - Kirib bir oz damingizni oling. Anvar unga ma'yus tikildi. U belgilangan dorilarni ichmaslik, emlatmaslik uchun hamshiralarning ko'nglini ko'tarishga, kuldurishga harakat qilar edi. Keyin esa o'zining masxarabozligidan g'ijini, ranjirdi. Hozir ham shunday bo'ldi. Hamshirani kuldirdi-yu, o'zi ezildi. Endi ortiqcha gapga hojat yo'qligini anglab, xastalar yotog'iga qarab yurdi. "Agar osmonga olib chiqishsa, o'zimni tashlardim, xudo haqqi, tashlardim. Bu yerdan qutulishning boshqa chorasi yo'q", deb o'yladi.

2

"Sizni yo'qlashyapti" degan gapni eshitib ajabladi. "Kim yo'qlashi mumkin? Yakshanbadan boshqa kunlarda bu yerga hatto Azroil ham kiritilmasdi-ku?" Tabibboshining xonasi tomon yurishgach, Anvarning xayoliga "xalq otasimi?" degan fikr urilib, to'xtadi. "Nima hunar ko'rsatarkin? Meni bu yerdan bo'shatadimi yo uchinchi qavatga yo'llaydimi?"  
- Yuravering, - dedi hamshira, uning to'xtab qolganidan ajablanib. Ostona xatlab ichkari kirdi-yu, ko'zlariga ishonmadi. Elchin! O'n yillik ayriliq jinnixonada barham topar, sog'ingan ko'ngillar shunday joyda qoniqar, deb kim o'ylabdi?! Anvarning Elchinga yozgan xatlari javobsiz qolaverdi. U do'stini ko'rish ilinjida hatto Uchquduqqa ham bordi. Biroq, Elchin u bilan uchrashishni xohlamadi. Keyin uni Sibir tomonlarga jo'natishdi. Anvar: "Oshnam mendan qattiq xafa ekan-da", degan xulosaga kelishdan o'zga chora topmadi. Ana shu do'sti, xatlariga javob qaytarmagan, ko'rishishni istamagan qadrdoni jinnixonada tabibboshisining xonasida unga jilmayib qarab tursa! Harholda uzoq ayriluvdan keyingi bu diydor ko'rishuv aytarli shirin kechmadi. Elchin unga sog'inch to'la ko'zi bilan tikilar, Anvar esa bu qarashga o'zgacha ma'no berib, "sog'manmi yo rostdan jinnimanmi, shuni aniqlamoqchimi?" deb o'ylar edi. Shu xayoli o'zi uchun haqiqat tuyulib, o'zini jinnilikka soldi:  
- Mana, oshna, - dedi u kulib, - shu oromgohda davlatning tekin ovqatini yeb yotibman. Besh kun ishlamaymiz, ikki kun dam olamiz. Kelajagi porloq havaskor jinnilar yuksak ongillik namunalarini ko'rsatmoqdalar. Haligacha birorta do'xtirni yeb qo'yishgani yo'q, - u shunday deb tabibboshiga qarab qo'ydi. - Men bu yerda dunyoning tuzilish formulasini ishlab chiqdim. Birgina masala qoldi: shu opamni so'ysam, necha kilo go'sht berarkin? Chamamda yetmish kilo. Nima deysan? Kalla-pochalari bunga kirmaydi. U shundoq deb do'mboqqina, oppoqqina tabibboshiga ko'zlarini lo'q qilib oldi. Elchin uning bu ahvoliga ishonib-ishonmay bir oz o'zini yo'qotdi. So'ng tabibboshiga qarab, iltimos qildi:  
- Men oshnam bilan gaplashib olay, malol kelmasa siz chiqib turing. Tabibboshi malol kelganini yashirmay chimirilib qo'ydi. Elchin buni sezib endi qat'iyroq, buyruq ohangida dedi:  
- Siz hujjatlarni to'g'rilang, hozir ketamiz.  
- Men darrov chiqara olmayman, yaxshi yigit. Maslahatlashib olishim kerak.  
- Maslahat pishgan! - dedi Elchin ovozi bir parda ko'tarib. - Asadbek ikkita gapni yoqtirmaydi. Tabibboshining rangi bo'zardi. Lablari titradi. Binoyi kiyingan, xushsurat bu yigit kirib kelganida tabibboshining tosh yuragi yumshagan edi. Bu qoraqosh yigit ko'zlarini sal suzib qarasa, uncha-muncha ayol zoti dosh berolmay qolardi. Olti yildan beri bevalikning taxir oshidan bezgan tabibboshi uchun birgina shunday qarash yetarli edi. Ammo "Asadbekning istagi bilan keldim", degan gapdan badaniga muz yugurdi. Asadbekning kimligini, qo'lidan nimalar kelishini hech kim bilmasa ham shu ayol biladi. Bevalik unvoni ham unga shu Asadbek istagi bilan berilgan. Asadbek turgan joyda "xalq otasi"ning sariq chaqachalik qadri yo'qligi ham tabibboshiga ma'lum. Bu xushsurat yigit, xotinini o'ldirib qamalib ketganidan keyin ham shuhrati so'nmagan bu mashhur qo'shiqchisi Asadbek bilan bog'liq ekan, kichkina jinnixonaning boshlig'iga taysallashni kim qo'yibdi?! Tabibboshi noshud, befahm ayollardan emas edi. Buni darhol tushunib yetdi. Rangining bo'zargani, lablarining titrashi g'azabdan emas, qo'rquvdan edi. U ortiqcha gap aytib yuborganini sezdi. O'zini oqlash, Asadbek istagiga zid ish ko'rish niyati yo'q ekanini ma'lum qilish uchun gapni boshqa tomonga burdi:  
- O'rtog'ingizni bilmagan odam hozirgi hazillarini eshitsa, rostdanam... - "jinni" deyishga uning tili aylanmadi, - halidaqa deb o'ylaydi. Elchin ayolning maqsadini angladi. "Bu bechora bir ijrochi, dilini vayron qilib ketmay", degan fikrda jilmaydi, oradan sovuq gap o'tmaganday hazil ohangida dedi:  
- U bu oshnam shunaqa hazilkash. Asli artist bo'lishi kerak edi-ku, Xudo urib olim bo'lib qolgan. Yana shoirligi ham bor. Esingdami, Anvar, maktabda "Tumov bo'lgan oshiq" degan she'ring bor edi. O'qiganda kulaverib ichaklar uzilardi.  
- Sen ham yaxshi bola eding, Xudo urib ashulachi bo'lib qolgansan. Anvar bu gapni juda sovuq ohangda aytdi. Elchin uning ko'zidagi sovuq nurni ko'rib, nafasi qaytdi. O'zini majburlab kulib, tabibboshiga tushuntirgan bo'ldi:  
- Bunga gapiring-u, qoching. Gapi shunaqa, jonni sug'urib oladi. Zo'r-da, zo'r. Ha, siz hujjatlarini to'g'rilayvering. Tabibboshi ham zo'raki jilmayib, chiqib ketdi. Holi qolishgach, Elchin gapni nimadan boshlashni bilmadi. Oradagi sukutni Anvar buzdi.  
- Meni Xudo urgani rost. Lekin sen aytgancha emas. Olim, balki bir oz shoir bo'lganim uchun urgan. Men bu dunyodan haqiqat toparman deb yurgan edim.  
Shoir bo'lib tug'ilmasaydim,  
Ko'rmas edim bunchalar xo'rlik...  
- Anvar, qo'ysang-chi, hazillashdim-ku? Shuncha yillik ayriliqdan keyin bir hazillashsam...  
- Men seni sog'indim... Xatlarimga nima uchun javob bermading? Meni ko'rishni ham istamagan edingmi?.. Endi nimaga kelding? Men seni qutqarishga ojiz edim. Endi sen meni ozod etmoqchimisan? Unamasam-chi?  
- Anvar, xatlarimga javob bermay, Uchquduqda ko'rishishga chiqmaganimning sababini boshqa safar aytib beray. Mana bu

yerimda, - Elchin ko'kragini mushtladi, - jon qolmagan, zardobga to'la. Dardim to'lib-toshgan, senga aytmasam kimga aytaman?  
- Noilani sen o'ldirmagan eding. Bunga hammaning aqli yetib turuvdi. Sen uning ruhiga xoinlik qilding.  
- Men qamoq muddatini o'tab qaytdim. O'zim chiqargan hukm esa hali ijro etilgani yo'q. Jazoimni tortib yuribman. Agar o'shanda otishga hukm qilishganida birato'la qutular edim... - Elchin shunday deb xo'rsindi.  
Anvar unga tikildi: sochlariga oq tushgan, mijjalari atrofini ajin bosgan. Ruhini tetik ko'rsatishga intilayotgan bo'lsa ham, ko'zlaridan nur qochgan. Qarashlarida ilgari jon yo'q...  
- Otishganida xoin sifatida o'lib ketarding.  
- Jon oshnam, meni qiynama. Hozir menga yordaming kerak.  
- O'z kuching bilan meni bu yerdan chiqarib ketganingda rahmat aytardim. Sen bir boshi buzuqning marhamati bilan menga ozodlik bermoqchi bo'libsang. Miyang aynib qolibdi. Men hali senga dunyoning formulasini topdim, dedim. Bu sen o'ylagandek jinnicha hazil emas. Chindan ham topganman. Eshit: haqiqat degan narsa bu no'! Dunyoni ko'zga chiroyli ko'rsatib beruvchi niqob, choyshab. O'likning ustiga gulli choyshab yopib qo'yganing bilan murda chiroyli bo'lib qolmaydi-ku, to'g'rimi? Hayotda hech qanday o'zgarish yo'q. Faqat choyshabning nomi o'zgarib turadi. Choyshabning hozirgi nomi nima, bilasanmi? Qayta qurish!  
- Anvar, qo'y, bu gapni keyin gaplashamiz.  
- Yo'q, eshit, mening nimadan jinni bo'lganimni bilishing kerak. Demak, dunyoning formulasi: haqiqatni iks deb turaylik, - Anvar stol ustidagi qog'ozni, chiroyli qalamni olib tez-tez yozdi-da, Elchinga uzatdi. - Mana, qara:  
 $H(\text{haqiqat}) = \text{xiyonat} + \text{riyo} + (\text{hasad} + \text{ochko'zlik}) + \text{adovat} + \text{g'iybat} + \text{nifoq} + \text{shuhratparastlik} + \text{mansabparastlik} - \text{vijdon} + \text{iymon} + \text{hayo} = 0$   
Elchin qog'ozdagi satrlarga uzoq tikilib qoldi. So'ng uni ikki buklab stol ustiga tashladi.  
- O'rislarda bir maqol bor: Amerikani ikkinchi marta kashf etmaydilar. Oddiy haqiqatni kimga isbot etmoqchisan? Dunyoda hamma narsa nisbiy. Men falonchiga nisbatan insofliman, sen esa menga nisbatan, yana bir odam senga nisbatan insofliroq. Har birimiz haqiqatni o'zimizcha tushuna-miz.  
- Bizning nodonligimiz ham shu tushunchalardan suv ichib ko'karadi.  
- Bo'пти, sen haqsan. Bahslashgan bilan qorin to'ymaydi. Narsalaringni yig'ishtir.  
- Men... ketmayman. Menga shu yer yoqib qoldi.  
- Jinnilik qilma.  
- Yo'q, shu imkoniyatdan foydalanmasam, chindan ham jinni bo'laman.  
- Bu ishga Asadbek aralashganini bilmasang indamay chiqarding. Men atay aytdim. Bilib qo'yishing kerak buni... Seni bu yerga jo'natgan odamga faqat Asadbek bas kela oladi, - Elchin shunday deb boshini egdi. Xuddi o'zi bilan o'zi gaplashayotgandek davom etdi: - Qaytgan kunimoq senikiga bordim. O'larday sog'inuvdim. So'ng... aytadigan gaplarim ko'p edi senga. Men endi pulga muhtoj bo'lmayman. Bolaligimizda sen kuchli eding. Meni himoya qilarding. Hozir bu himoyaga muhtoj emasman. U tomonda orttirgan oshnalarim bor. Sen yonimda bo'lsang bas. Nafasingni his qilib tursam bo'lgani. Men adolatga sig'inay desam, qayga boraman, haqiqatga sig'inay desam, qayga boraman? Ezgulikka-chi? Bilib qo'y, men uchun hammasi - sensan! Keyin, men seni bu holda tashlab qo'ymayman. Men xunxo'r odamman. Ha, Noilani men o'ldirmaganman. Lekin u mening ablahligim tufayli halok bo'ldi. Shuning uchun jazo olishim kerak edi. Bu - bir. Ikkinchidan, begunohligimni isbot qila olmas edim. Ular bunga yo'l qo'ymas edilar.  
Bilaman, o'lim jazosini o'shalar bekor qilishgan. Menga yaxshi bir saboq berishmoqchi edi. Saboq oldim. Lekin ular mo'ljallagan xulosaga kelmadim. Endi mening suratim odam. Aslida esa, men ilonman! Ularni bo'g'ib qiynayman, so'ng qonini so'raman. Men ularning ko'zlarini o'yaman, tillarini sug'uraman, qo'llarini sindiraman, quloqlariga qo'rg'oshin quyaman. Umrimning mazmuni ham, totadigan lazzatim ham shu! - Elchin xo'rsinib, Anvarga qaradi. Uning ko'zida yovuzlik o'ti chaqnadi. Endi u yosh dillarni vayron qiluvchi "lirik xonanda"ga sira-sira o'xshamas edi. Anvar uning so'zlarini eshitib, ko'zlariga tikildi-yu, bir so'z aytmadi.  
Elchin undan javob kutmay gapini davom ettirdi:  
- Sen menga keraksan. Rad etishga haqqing yo'q. Bu dunyodagi umrim o'lchovli, meni ranjitsang gunohga botasan, bilib qo'y. Anvar javob qaytarmadi. Og'ir kulfat toshi yelkasidan bosib turganday bukchayganicha o'tiraverdi. U do'stining maqsadini tushundi. Asadbek huzuriga bosh egib borishining ma'nosini ham angladi. Elchin jonini tikib, xavfli o'yinga kirgan edi. U uch boshli ajdahoni yengish qasdida chiqqan ulovsiz, yarog'siz pahlavon hoida edi. Bir paytlar bu ajdaho ko'ziga farishta bo'lib ko'ringan edi. Anvar "Adashyapsan!" deb uni yo'ldan qaytarishga ko'p urindi. Ammo harakati zoe ketdi. Endi-chi? Endi nima qilsin? Yana yo'ldan qaytarishga urinsinmi? Ilgari Elchinning ko'zlari ojiz edi. Endi ko'ra-bila turib, o'limga rozi bo'lib ketyapti. Anvar bir qarorga kela olmay dog'da edi. Shu bois boshini ko'tarib o'ychan ko'zlarini do'stiga qadadi.  
- Sening orqangda tog' bo'lishi kerak. Men... afsus, tog' emasman. Bir toshchaman. Hayot meni ermak qilib o'ynab, istagan paytda ulotirib tashlashi mumkin. Menga ishonma.  
- Yaxshi, buni keyin gaplashamiz. Bu yer masala so'qishadigan joy emas. Tur, lash-lushlaringni yig'ishtir.  
Anvar hazin jilmaydi.  
- Men ketmayman.  
- Istasang, seni bu yerga jo'nattirgan it emganlarning hammasini haydab kelib, qarshingda tiz cho'ktiraman.  
- Bundan nima foyda? Shu bilan insofga kelishadi, deb o'ylaysanmi? O'zingni ham, meni ham qiynama, og'ayni.  
Elchin tizzasiga urib, o'rnidan turib ketdi.  
- Qaysarlik ham evi bilan-da... - u bir oz jim qoldi. So'ng Anvarga yaqinlashib, uni yelkasidan tutdi. - Hech bo'lmasa bir kunga chiqarsan. To'yimga borarsan, kuyovjo'ra bo'larsan?  
Bu gapdan keyin Anvarning ko'zlariga insof nuri qaytib, yuziga qizillik yugurdi.  
- Uylanyapsanmi? Qutlug' bo'lsin. Shuni oldinroq aytmaymanmi? Xo'p, bir kunga chiqaman. Kimga uylanyapsan, sir emasmi? Elchin yangilikni eshitib qochib ketmasin, degandek Anvarning yelkasini yanada mahkamroq ushladi:  
- Asadbekning qizini o'lyapman, - dedi do'stiga tikilib.  
Elchin "jodugar kampirga uylanyapman" deganida Anvar bunchalik hayratlanmas edi. Lekin Asadbekning qiziga uylanish!!! To'g'ri, Elchin xushsurat yigit, avvalgi shuhrati ham unchalik so'nmagan. Eng lo'bar qiz ham unga jon-jon deb tegishi mumkin. Lekin Asadbekning qizi?.. Qiz xohlagan taqdirda ham, Asadbekning rozi bo'lishi?.. Anvar uchun bu yechimi og'ir jumboq edi.

Aslida esa bu jumboqning yechimi unchalik og'ir emas. Yechimga Noila o'ldirilgan tunda kirishilgan bo'lsa-da, hal qiluvchi palla deb 1988 yil 31 dekabrni belgilash mumkin.

Otasini olib ketishganidan beri, o'ttiz birinchi dekabr, nasariy hisobidagi yangi yil kechasi Asadbek uchun motam tusini olgan edi. Ulg'ayib, uylanib, bola-chaqali bo'lganidan keyin ham, atrofida odamlar to'planib, qudratli kuchga aylanganidan keyin ham yilning so'nggi kunida yolg'iz qolar edi. Bu kuni uni hech kim bezovta qilmasdi. Aniqroq aytsak, bu kuni unga birov yurak yutib betlay olmasdi. Bu kuni u eng muhim ishlarini ham chetga yig'ishtirardi.

Oldi peshayvon, ikki xonali o'sha eski uyiga borib, chiroqlarni yoqmay, tanchaga cho'g' tashlamay tong otirardi. Yangi yil kechasi uning eng sara, eng sodiq to'rt yigiti uchun ham harom edi. Ularning ikkisi ko'chaning u boshida, ikkisi bu boshida sergak turardi. Shu tun qor tugul tosh yog'sa ham, sovuq ming darajaga chiqib ketsa ham bu hol o'zgarmas edi.

...Asad o'sha kech otasining aytganini bajarmadi - qo'shnisi Jalillarnikiga chiqmadi. Nazarida haligi odamlar hazillashganday, dam o'tmay otasi qaytib keladiganday tuyuldi... Ana, ko'cha eshik "g'iyt" etib ochildi. Ana, dadasi haligi ikki kishi bilan birga kulib kirib keldi. "Qalaysan, toychoq! Mening o'g'lim azamat, hech narsadan qo'rqmaydi, desam, bular ishonishmay, men bilan garov o'ynashgan edi. Sinab ko'rib yutqizishganini tan olishdi. Qoyilman senga, ularni boplading!" Shunday deb dadasi uni o'pdi...

Ko'cha eshigiga ilhaq tikilib o'tirganida ko'ziga ko'rindimi yo bir zumgina mudroq yenggan chog'ida shirin tush ko'rdimi - farqlay olmadi. Har holda dadasining qaytishiga qattiq ishonadi. Tancha sovudi. Chiroqni yoqmadi. Qo'rqmadi. Ishonch qo'rquvdan ustun keldi. Nigohi qorong'ilik bag'rini titib, timirskilaniib kezdi. Oy ko'tarilgach, hovlini qoplagan qor oppoq oqarib atrofni yoritdi. Oy nuri singan ko'zi o'rniga qog'oz qoplangan deraza orqali uyga ham kirdi.

Ko'cha eshik ertalabgacha qilt etmadi. Dadasining ketishi hazil emas, chinga aylanayotgan damda ko'cha eshik ochildi. "Dadam!" U irg'ib o'rnidan turdi-yu, eshik og'zida oshnisi Jalilni ko'rib, o'sha zahoti joyida qotdi. Jalil hovliga kirib, bir-ikki qadam bosgach, to'xtab atrofga alangladi. Uning bunaqa odati yo'q edi. To'g'ri uyga kirib kelaverardi. Hozir esa bir narsadan qo'rqib to'xtadi.

- Asad!  
Jalil hovliga kirishi bilan shunday deb baqirib qo'yib, uyga qarab yurardi. Bu safar past ovozda, birovni cho'chitib yuborishdan qo'rqanday asta chaqirdi. Javobni kutdi. So'ng yana o'sha ovozda "Asad", deb qo'ydi.

Asadbek o'rtog'ini ko'rib yig'lab yuboray dedi. Badanidan o'tgan sovuqni ham endi sezdi. Qo'rquv ham endi iskanjaga oldi. Jalil yana chaqirdi. Javob bo'lmagach, iziga qaytmoq uchun o'girildi. Shunda Asadbek jonholatda "Jalil!" deb baqirdi-da, hovliga otildi. Jalil ranglari oqargan, ko'zlari kirtaygan, ko'kargan lablari titrayotgan o'rtog'ini ko'rib baqrayib qoldi. Keyin yugurib keldi-da, qo'llarini ushladi.

- Sovqotdingmi? - dedi soddalik bilan.

Asadbekning ko'zlaridan tirqirab yosh chiqdi. Ho'ngrab yubormaslik uchun pastki labini qattiq tishladi. O'zidan kattaroq yoki zo'rroq boladan kaltak yesa yoxud o'yin chog'i yiqilib u yer-bu yeri og'risa yig'lab yuborardi. Kuzda birdaniga o'n yettita yong'oqni yutqizganida ham alamidan yig'lab yuboruvdi. Hozir o'zini yig'idan tutdi. Vujudida o'zi ham anglamagan kuch uyg'onib undagi yig'ini bo'g'di. Hozir dadasini olib ketganlarini, yangi yil kechasi qorong'i, sovuq uyda bir o'zi o'tirganini aytib yig'lasa ham o'rtog'i ayblamasdi, kalaka ham qilmasdi. Bu holatni u keyin, ulg'aygan chog'larida ko'p esladi. Yig'ini bo'g'a olgan qanday kuch ekan, deb o'yladi. Ammo o'ylab o'yiga yeta olmadi. Bu g'oyib kuchi uni faqat yig'idan to'xtatmay, o'zligini ham yenggan, sirli qudrat ham bergan edi. O'sha onda u mutelik kishanini o'zi bilmagan holda parchalagan edi. Shu bilan birga inson bolasiga xos eng pokiza tuyg'ularni quvgan ham edi. Qorong'i kechada unga qo'rquv yaqinlashmadi, lekin mitti yuragiga yovuzlik tuxum qo'ydi.

Yovuzlikning birinchi ovozi o'rtog'i Jalil eshitdi:

- Ular o'ldiraman!..

Titroq, yig'i aralash ovozda aytilgan bu so'zni eshitib, Jalil qo'rqib ketdi. Ko'chada janjallashib qolishganida "qarab tur, o'ldiraman seni" deb ko'p marta aytishgan. O'ldirish qanaqa bo'lishini bilishmas, shu bois ham bu po'pisadan cho'chishmas edi. Ammo Asadbekning labidan uchgan hozirgi so'zlar... Bular po'pisa emas, amalga oshishi haq bo'lgan hukm edi...

O'shandan beri yangi yilning birinchi kuni Jalil bu xonadonga kiradi. Asadbekning onasi vafot etgan yili o'ttiz birinchi dekabr oqshomida chiqqan edi, "meni xoli qo'y", deb iziga qaytardi.

1949 yilning 31 dekabri Asadbekka "hayot beshafqat, hayot naq urushning o'zi, og'zingni ochib lalayganing - o'lganing", degan haqiqatni oydin qilib bergan edi. O'sha kuni u urushga kirgan edi. Oradan yillar o'tib, urushda mutlaq g'olib bo'ldim, degan to'xtamga kelib edi. G'alabasiga ishongan edi. Kutilmaganda mutlaq g'olib emasligi ma'lum bo'lib qoldi.

Ikki kun burun qizi o'qishga ketdi-yu, qaytmadi. Yigitlari shaharning titi-pitini chiqarib ham topisholmadi. Qiz o'qishda bo'lgan, tanaffusdan so'ng esa darsga qaytmagan. Ota-onadan xafa bo'lib yoki biron ko'ngil qo'ygan yigiti bilan qochdi, degan faraz Asadbek uchun behuda edi. Asadbek g'anamlari uchun toshbag'ir, farzandlari uchun g'oyat mehribon edi. Ammo mehrning chegarasini bilar, bolalarini erkalatmasdi. Shu bois qizning yengiltaklik bilan qadam bosishiga ishonmasdi.

G'anamlari bilan har kun, har soat olishuvchi, har daqiqa biror falokat ro'y berishi mumkinligini hisobda tutib yashovchi odam noxush damlarda tez fikrlash, tez xulosa chiqarishga odatlanadi. Asadbek ham tezda bir to'xtamga keldi: uning hokimligi tuzdan yasalgan qasr ekan. Yomg'ir yoqqan mahali qasrning erib bitishini hisobda tutmagan ekan. Qizining o'g'irlanishi (aynan o'g'irlanganiga Asadbek shubha qilmaydi) ana shu yomg'irdan nishon edi. Qizining o'g'irlanishi yana bir narsadan - shaharda yangi to'da paydo bo'lganidan ham darak edi. Asadbek faqat shahardagi emas, butun o'lkadagi yirik to'dalarni biladi. Barcha to'daboshilar "Asadbek!" deganda uning hurmatini joyiga qo'yishadi. Ayrimlar esa qo'rquvdan zir titrashadi ham. Asadbekka qarshi biror ish qilish u yoqda tursin, sha'niga mos kelmaydigan xunukroq so'z aytishdan ham cho'chishadi. Ularga "xudo bor", desangiz, ishonishmas, lekin "devorning qulog'i bor", desangiz, ishonishadi. Ularning nazarida daraxtlarning, hatto o't-o'lanlarning ham qulog'i bor. Tildan uchgan har bir nojo'ya so'z Asadbekka yetib borishini bilishadi. Ular Sadirqimorbozga o'xshab o'lim topishdan qo'rqishadi...

...Sadirqimorboz vodiya beli baquvvat yigitlardan edi. Bir kechada bir yarim million yutib olib, katta ziyofat berdi. Shunda manmanligi tutdimi yo ajal tilini qichitdimi: "Asadbeklaring menga qulluq qilib kelsin. Istasam, oldiga bir burda non qo'yaman, istasam, suyak tashlayman", deb yubordi. Sadirqimorboz bu so'zlarni kayfning kuchi bilan aytdi-yu, unutdi. Ikki kundan keyin ko'chalarida asfalt bosadigan mashinalar, egniga pushti kamzul kiygan ishchilar paydo bo'lishdi. O'tgan hafta u ijroqo'm rahbaridan biriga "bizning ko'chaga ham son bitadimi yo yo'qmi", degan edi. Ko'chadagi harakatni ko'rib, "bizning gapimiz ham yerda qolmaydigan bo'libdi", deb g'ururlanib qo'ydi. Qo'ni-qo'shnilar "pulning kuchi shu-da, qimorboz bo'lmaganida ko'chamizga it ham, bit ham qaramas edi", deyishdi. Uzun ko'cha ikki kunda asfaltlandi. O'sha kundan e'tiboran qimorboz ham ko'rinmay qoldi. Qimorboz "safir"ga ketsa, bir-ikki oysiz qaytmas edi. Buni qo'ni-qo'shnilar ham bilishardi. Lekin bu gal besh-olti kundan keyinroq

"qimorboz hech yerda yo'qmish", degan mishmishlar tarqab qoldi. O'n kundan keyin esa Sadirqimorbozning uyi sotiladigan bo'ldi. Uning xotini uyga xaridor chiqishini ham kutmay: "Sadir akamlar katta shahardan joy olibdilar", deb ko'ch-ko'ronini yuklab jo'nab ketdi. Hamshiralikka o'qib, turmushga chiqqunicha bir yilgina ishlagan ayolning katta shahardagi jinnixonaga boshliq bo'lib qolganini eshitgan qo'ni-qo'shnilar hayratdan yoqa ushlashdi. Ayrimlar "pulning kuchi shu-da", deb qo'yishdi. Shu ko'chadan ko'p qatnaydigan aravakashlar qimorbozning uyiga yaqinlashganda otlarining hurkishidan bir nimani sezishdi-yu, ammo "astag'firulloh!" deb qo'yishdan nariga o'tishmadi. Hammaga ham jon shirin-da!

Asadbekni bilganlarga shu voqeaning o'ziyoq kifoya edi. Uning qudratiga ishonqiramay turganlar ham ta'zim qiladigan bo'lishdi. Chunki Asadbek manmansiragan g'animdan bu atroflar uchun butunlay yangicha bo'lgan, g'oyatda vahshiy tarzda o'ch olgan edi. Shunday ekan, Asadbekka kim qo'l ko'tara olishi mumkin? Qo'l ko'targanda ham pichoqni duch kelgan joyga emas, yurakni mo'l uribdi. Asadbek har bir to'daning imkoniyati, ish usulini fikr oynasidan o'tkazib, "yo'q, ular jur'at etisholmaydi", degan qarorga keldi.

Bu ish tasodifan ro'y bergan emas. Puxta o'ylangan. Uzoq vaqt payt poylangan. Balki g'animga Asadbekning yaqinlaridan biri yordam bergandir? Qiz kuppa-kunduz kuni, ko'pchilik orasidan o'g'irlangan. Demak, qizi ko'chaga chiqib, mashinaga qadar ham o'zi yurib borgan. Qizi tanimagan odamning orqasidan yurib bormaydi. Qizining dugonasi ham nom-nishonsiz yo'qolgani ma'lum bo'lgach, Asadbekka kalavaning bir uchi ko'ringanday edi. Ana shunda Asadbek keyingi bir yil ichida qamoqdan qaytganlar bilan qiziqdi. Elchinning ham qaytganini bilib o'ylanib qoldi: "Oradan o'n yil o'tibdimi? Ikki oydan beri nima qilib yuribdi ekan, nima uchun menga ro'para kelmadi? Otuvdan olib qolganimni aniq biladi. Bila turib kelmagani qiziq..." Asadbek yigitlariga Elchinni, qamoqdan qaytgan yana besh odamni qattiq nazorat ostiga olishni tayinladi.

Ko'ngli notinch bo'lganiga qaramay, o'ttiz birinchi dekabr kuni eski uyiga qarab ketdi.

Asrdan o'tib, shomga yaqinlashgan paytda ko'cha eshigi ochilib, xotini ko'rindi.

Dadasi ham xuddi shu paytda kirib kelgan edi. U eshikni shart ochib, ichkari kirib, "toychoq!" deb suyunchilagan edi... Xotini esa eshikni ohista, xuddi sindirib qo'yishdan avaylaganday ochdi. Hovliga horg'in-horg'in qadam tashlab kirib keldi.

Dadasi ko'ringanida bolaligiga borib, yot kishilarni bir nafasgina unutib, irg'ib o'rmidan turgan edi.

Xotini ko'ringanda esa... tosh qotdi. Issiq jon oyoq-qo'llarini tark etib, badaniga sovuqlik yugurdi. Dastlab xayoliga "qizim topilibdi!" degan xushxabar keldi. Ammo bu fikr umri yashin umridan ham qisqa bo'ldi. "Shum xabar keltirgan!" - shu fikr uning tanasidan jonni quvib chiqara boshladi.

Manzura - erining ko'ziga biron marta bo'lsin tik qaramagan, biron marta bo'lsin ishiga aralashmagan, "nima qilyapsiz, pulni qaerdan topyapsiz" demagan, "vazifam erimni suyib-erkalash, bola tug'ib berish, uyni sarishta tutishdangina iborat" deb bilgan ayol yostiqdoshi uchun muqaddas bo'lgan bu kunda uni bejiz bezovta qilmas edi.

Ko'cha eshikdan ayvongacha o'n besh qadam, ayvon ikki qadam. Asadbekning nazarida Manzura bu yo'lni bir necha soatda bosib o'tganday bo'ldi. Avvaliga "tezroq yur!" deb baqirib bermoqchi edi. Ammo sovuq xabarni bir soniya bo'lsa-da, kechroq eshitganim ma'qul, degan yashirin o'y bunga yo'l qo'ymadi.

Manzura ostona xatlab qadam qo'yishga jur'at etmay, eriga baqrayib qarab qoldi. Uning qarashida iztirobdan ko'ra qo'rquv zohir edi. Asadbek u bilan salkam o'ttiz yil birga umr ko'rib, biron marta urmagan, so'kmagan edi. Shunga qaramay xotini undan qo'rqardi. Odamlardan Asadbekning yovuzligi haqidagi gaplarni eshitib yurak oldirgan desak, bu ovozarlar keyinroq chiqdi. Asadbek chimildiqqa kirib kelganida uning ko'zidagi o'tni ko'rganu yuragi shuv etib ketgandi. Holbuk, u damda Asadbek ko'zida yovuzlik emas, kuyovlardagina bo'ladigan hirs o'ti mavjud edi.

Manzuraning otasi badjahlroq edi. Onasi esa huda-behudaga kaltak tushib qolishiga ko'nikib ketgandi. Er zoti xotinini mana shunday uraveradi, degan tushuncha Manzura ongiga singib ketgan, shu bois erining bir kunmas-bir kun qattiq do'pposlab qolishidan qo'rqib yashardi. U ba'zida o'zicha: "Bunaqa qo'rqib kutgandan urib yuborganlari ming marta yaxshi edi. Kaltak yeb o'ladigan bo'lsa, onam allaqachon o'lib ketardilar", deb qo'yardi.

Asadbek xotinini behad hurmat qiladi, boshiga ko'tarib yuradi, desam, sizni aldagan bo'laman. Asadbekka muhabbat begona, desam, siz ishonib. Hayotdan alamzada yurak ko'zlari yovuzlik pardasida to'silgan, muhabbat otlig' pokiza fazilat bunday biqiq va qorong'i bo'shliqda yashay olmas edi. Lekin shunga qaramay, xotiniga bir buyum yoki o'yinchoq sifatida ham qaramas, Manzuraning ayrim qiliqlari, ishlari yoqmaganda ham qattiq gapirmas edi. Manzuraning hatto "ovqat tayyor" deyishga qo'rqib turishidan achchiqlanib, "bolalarni o'zingga o'xshatib mute qilib qo'yma" derdi.

Sezib turibman. Siz bu gaplarimga unchalik ishonmadingiz. Odamni o'limga hukm etganida yuragi jiz etib qo'ymaydigan Asadbekning uyda musulmonsheva bo'lishi siz uchun g'alati tuyulishi mumkin. Lekin men sizga Asadbekning onasi haqida hali so'zlaganim yo'q. To'ng'ich farzandi emaklay boshlaganida erini urushga kuzatgan, ikki oydan so'ng qora xat olganiga qaramay, besh yil yo'lga ko'z tikkan, og'zim oshga yetdi deganda esa boshi toshga tekkan, ikkinchi o'g'lini tug'ib chiqqanida erining qamalanganini eshitgan, so'ng "dada" deb tili chiqqan Samandarning o'pkasini sovuqqa oldirib, Egamga topshirgan, har sahar turib, samovar qo'yib erini kutgan mushfiq ayol haqida keyinroq so'z ochaman. Qani, ayting-chi, onasining dardli hayotini ko'rib ulg'aygan odam ayolga qo'l ko'tarishi yoki haqorat qilishi mumkinmi? Shuning uchun ham Sadirqimorbozning xotinini yolg'iz tashlab qo'ymadi, shuning uchun ham Noilaga pichoq sanchgan yigitni surgun qilib yubordi, desam ishonarsiz? Hozir bu gaplarning o'zni emas. Hozir Asadbekning eski hovlisidamiz. Asadbekning o'zi nimqorong'i uyda, xotini esa ostonada turibdi. Asadbek ostonada turib qolgan xotiniga "ishqilib xushxabar aytsin" degan ilinjda tikildi. "Tezroq gapir!" "B" dedi ichki bir hayqiriq, "Yo'q, indamay tursin!" "B" dedi boshqa bir ovoz.

Er-xotinning bir-biriga unsiz tikilib turishi uch-to'rt nafas davom etdi. Ammo Asadbekning nazarida soniyalar soatlar kabi kechdi. Beixtiyor: "Gapir!" "B" dedi. Biroq, ovozini o'zi ham eshitmadi. Hatto tili ham muzlab qolganday g'o'dirandi. Manzuraga bu ovoz g'oyibdan eshitilganday bo'ldi. Gapirishga mador topolmay yutindi.

Asadbek o'zini qo'lga olishga harakat qildi:

- Topildimi?

Manzura "ha" deganday bosh irg'ab, yig'lab yubordi.

- Tirikmi?

Asadbek nima uchun bunday deb so'rganini o'zi ham bilmadi.

- Xudoga shukr, tirik... - Manzura shunday deb labini tishladi.

Shu so'z Asadbekka jonini qaytarib berdi. Shart o'rmidan turib xotiniga yaqinlashdi-da, uni ikki yelkasidan tutib, silkidi:

- Unda nimaga yig'laysan, nimaga vahima qilasan?

Manzura boshini egib, yig'lab yubordi. Asadbek, shu paytgacha xotinini chertmagan odam, tarsaki qo'lyaganini o'zi ham sezmay qoldi.

- Gapir, deyaqman!

O'zini qo'lga olish uchun Manzura shu tarsaki kifoya edi.

- Mengina o'lay... qizingiz... aytolmayman, dadasi...

- Gapir, xuddi bo'g'ib tashlayman, - Asadbekning ovozi tahdidli, bu shunchaki bir po'pisaga o'xshamas edi.

- Qizingizni bir ahvolda tashlab ketishdi...

Asadbek nima gapligiga tushundi. "Bundan ko'ra o'ldirishgani yaxshi edi,- dedi o'ziga o'zi, - bu shunchaki tasodif emas. Kim bo'lsa ham meni o'tmas pichoq bilan so'ydi. O'la-o'lgunimcha it azobini totishimni istagan odam qilgan bu ishni. O'ch olishni bilarkan. Meni o'ldirib keta qolganda lazzat ololmasdi. Endi azobda to'lg'onishimni ko'rib, lazzatlanmoqchi... Yo'-o'q... chuchvarani xom sanabdi. Lazzatlana olmaydi. Men o'zim yuragimni sug'urib olib chaynab tashlashim mumkin, lekin u ko'zlarimda azob uchqunini ko'rmaydi. Bu meni jangga chaqirdimi, demak, kurashaman!!"

4

- Uningni o'chir! - dedi Asadbek dag'al ovozd. - Uyga bor, ovozingni chiqarma. Bitta-yarimta so'rasa... ammasinikida edi, de.

- Voy...- Manzura eriga ajablaniq qaradi. - Ammasi yo'q-ku?

- He noshud, - Asadbek shunday deb g'ijindi. "Bu lalaygan xotin eplab bir bahona topolmasa..." - ammasi bo'lmasa... ko'chada mashina sal turtib ketibdi, de, kasalxonada ekan, de.. Bor... To'xta, kim bilan kelding?

- Jamshid bilan.

- Seni tashlab, Jalilni olib kelsin.

Jalil hozir shaharning kunchiqar tomonidagi ko'pqavat uyda turadi. Ukalari ulg'ayib, siqilib qolishgach, Asadbek shahar ijroqo'miga birgina imo bilan to'g'rilab berganini o'zi bilmaydi. Ishxonadagilarim lutf ko'rsatishdi deb quvonib yuribdi. Asadbek shahar markazidan, g'ishtli uylardan olib berishi mumkin edi. Bu holda Jalil darrov sergaklanib, homiysi kim ekanligini anglab qolar va bu marhamatdan, shubhasiz, voz kechardi. Qaysi bir o'zbek ishchisiga shahar markazidagi g'ishtli uydan nasib etibdi - Jalilning bunaqa ikir-chikirlarga fahmi yetadi.

Jalil shom chog'i kirib keldi. Asadbek qorong'i uyda, pisillagan tanchada qunishib o'tirardi. Do'stining salomiga javoban bir qarab qo'yib, lom-mim demay o'tirgan yerida qo'l uzatdi. Jalil Asadbek yo'qlayotganini eshitib noxush voqea yuz berganini sezgan, "Nimaga? Nima bo'ldi?" deb o'tirmay, norin to'g'rashni ham yig'ishtirib, chaqqon o'tlangan edi. Oshnasining qunishib o'tirganini ko'rib, xunuk voqea yuz berganiga ishonch hosil qildi. Shu sababli ham Asadbekdan ranjimadi. Boshqa payt bo'lganida "Azroilning qavmidan bo'lsang o'zingga, men bilan odamga o'xshab so'rash!" deb bobillab berardi. Asadbekka bu yorug' olamda shu Jalil bas kelib tik gapira oladi. Jalil kezi kelsa otasini ham ayamaydigan, gapirganda ham hamisha baland pardada oladigan toifadan. Burni bir oz puchuq, yuzi dumaloqdan kelgan, qalin qora qoshli bu odam xunuk ko'rinsa-da, bejirim burun, bejirim lab, bejirim yuzli odamlarga nisbatan istaraliroq edi. Lekin u Asadbekka yaqin bo'lgani uchun a'yonlar ham astoydil uni hurmat qilishadi, desak adashamiz. Hurmatning sababi boshqa: hayotning qaltis o'yinlarida ishtirok etayotgan, hamisha tig' ustida yurib, ertaga kimning qahriga uchrashi-yu, kimning fatvosi, kimning qo'li bilan umrlariga nuqta qo'yilishini bilmay hamisha xatarda yashaydigan a'yonlar bu beg'ubor odamning rost gaplarini eshitganlarida o'zlarini dunyo tashvishlaridan bir oz forig' bo'lganday his etardilar. Ammo Xudoning bu adashgan bandalari inson umri faqat yaxshi gaplar uchun, yaxshi ishlar uchun berilganini anglab yetmas edilar. Asadbekning yurak ko'zini alam, qasos o'ti ko'r qilgan, ularning aksari esa mol-dunyo, shuhrat, maishat ilinjida ojiz edilar. Jalil buni bilgani uchun ham ularni ayamasi edi. To'g'ri, ba'zan u quyushqondan chiqadi. Ularning, hatto Asadbekning ham hamiyatiga tegadi. Shunday bo'lsa-da, uni kechirishadi. Boshqa odam Jalilning tilidan uchgan gaplarni aytib yuborsami - hukm tayin. Ammo Jalil bu davrada, o'z iborasi bilan aytganda "shaytonsaroy"da, moziy yodgorxonasining qirilib ketayotgan pokizalik ramzi sifatida saqlanuvchi anjomi kabi asraladi.

Asadbek ko'pincha, dam xursandchiligida, dam ko'ngliga qil sig'may qolganida Jalilni yo'qlatardi. Yo'qlov borganda u

"xo'jayiningning kayfiyati qandoq?" deb so'raydi. "A'lo" degan javobni eshitsa, "meni ko'rmoqchi bo'lsa, o'zi kelsin" deydi.

"Chatoq" deyilsa, "Sen ketaver, meni onam mashinada tug'magan, avtobusda boraman", deb yo'lga o'tlanadi. Asadbekning bugun - 31 dekabrda chaqirtirgani uni ham ajablantirdi, ham bir oz tashvishga soldi. Shu sababli yuborilgan mashinaga o'tirib kelaverdi.

- Ha, ukam, tinchlikmi? - dedi Jalil, fotiha o'qilgach.

Asadbek asta "ha" deb bosh iring'ab qo'ydi. U Jalilni chaqirtirishga chaqirtirib, gapni nimadan boshlashni bilmay garang o'tirardi. U dardini faqat shu oshnasiga ayta olardi. Uni shuning uchun ham chaqirtirgan edi. G'animlar qizining emas, o'zining nomusini bulg'aganini anglagani uchun ham dardini aytish og'ir edi.

Tashqarida qor bo'lmagani, oy ko'tarilmagani uchun atrof tezda zimistonga aylandi.

- Samandar o'lmaganida qirqqa qadam ko'yardi, - dedi Asadbek, horg'in ovozd. Jalil bu horg'inlik zamirida titroq ham sezdi. Juda ko'p yillardan beri oshnasini bu holda ko'rmagan edi. Shu sababli darrov javob qaytarishga so'z topolmadi.

- Ha, endi... umri kalta ekan... Hur ketdi, - dedi.

- Bu olamda na akam bor, na ukam... yolg'izman...

- Gaping uyingdan ham sovuq, a? Odam ham yolg'iz bo'larkanmi? Faqat Xudo yakka! Sening bola-chaqang bor, akam yo'q deysan, men kimman, katta xolangning erimanmi?

Yarim po'pisa, yarim hazil ohangidagi bu gap oradagi sovuqlikni picha ko'targanday bo'ldi.

- Akamsan, sen akamsan...- dedi Asadbek o'zini jilmayishga majbur qilib. Lekin bu hazin jilmayishini qorong'ilik yutib yubordi - Jalil ham ko'rmadi. - Samandar tirik bo'lganida...

- To'xta! Gapni chaynama. - Jalil uning tizzasiga shap etib urdi. - Diplomim bo'lmasa ham miyam ishlab turadi. O'zingni qiynama, bo'ladigan gapdan gapir. Samandarni Xudo rahmat qilsin. Sen bilan men bir qop-bir qop gunohni orqalab boramiz u yoqqa.

Samandar esa begunoh ketdi. Bu dunyoning g'alvalarini ko'rmay ketdi. Xudoning suygan bandasi ekan. Endi u dunyoda huru g'ilmonlar bilan ayshini surib yurgandir.

Jalilning baland ovozd aytgan bu gaplari Asadbekka quvvat berganday sergaklantirdi. O'zidan o'zi nafratlandi. "Bu qanaqasi,

mishiqli boladay ping'illab qoldimmi? Endi unga ko'z yoshi qilaymi? U meni yupatsinmi? "Qo'yaver, bunaqalar ko'p hozir"

deydimi yo "Sen birga bo'lgan qizlarning ham ota-onasi shunday kuygandir" deydimi? Men... charchabman... kuchdan qolibman...

Bu yaxshilikka olib bormaydi. Menga qarshi urush ochdilar... Men esa ping'illab o'tiribman..."



- Jalil, - bu safar Asadbekning ovozi dadilroq yangradi, - sen ketaver.
- Jalil "nimaga chaqirdingni nimaga haydayapsan?" demadi. Tushundi shekilli. Indamay o'rnidan turdi.
- Mashina kutib turibdi, - dedi Asadbek.
- Oyim meni mashinada tug'maganlar. Besh tiyin to'lasam, g'irr etib olib borib qo'yadi.
- Ertalab kelib, ovora bo'lib o'tirma.
- O'zing bilasan.

Asadbek o'rnidan turib, uni kuzatib chiqdi. Muyulishga qadar birga bordi. Jalil xayrlashib, qo'nalga tomon yurgach, Asadbek olcha daraxti panasida to'xtab turgan ko'k "Jiguli"ga yaqinlashdi. Eshik ochilib, jingalak sochli yigit tushdi.

- Elchin degan otarchini yerning tagidan bo'lsa ham topib kelling.

Asadbek shunday deb yo'lida ketaverdi. Bu holat tashqaridan kuzatgan kishiga go'yo jingalak sochli salom berganu u alik olib o'tganday tuyulishi mumkin. Asadbek uch qadam qo'ymay ko'k "Jiguli"ning motori o't olib, joyidan xuddi poygachi mashinaday uchib qo'zg'oldi.

5

Elchin yonboshlagan holda televizor tomosha qilardi. Ko'zi televizorda, xayoli esa o'zga tomonda edi. Qamoqdan qaytganiga ikki oy bo'lyapti. Qamoqning dastlabki kunlari, oylari zax hujralarga, sassiq baraklarga ko'nikishi qanchalik og'ir kechgan bo'lsa, uyga qaytgach, shinam xonalarga, yumshoq o'rindiqlarga o'rganish shunchalik og'ir bo'ldi. To'g'ri, yumshoq o'rindiqlarda tan rohatlanadi, ammo ruhi tikanaklar uzra yotganday azobda.

Bu uyda o'n yil bo'lmadi. Noilasi o'n yildan beri bu uyda nafas olmaydi, yurmaydi, shirin kulgisi, pichirlab aytuvchi ehtirosli so'zlari eshitilmaydi. Qamoqning birinchi yillari u Noilasi bilan birga edi. "Marhumni so'nggi marta qay holda ko'rsang, uni shu holda xayolingga muhrlaysan. Marhum senga kulib qaragan bo'lsa, umring bo'yi uni shu holda tasavvur etasan..." deydilar. Chindan ham avvaliga ko'zlari yumuq Noila bilan suhbatlashardi. Keyinroqqa borib xayolidagi Noilasi ko'zlarini ochdi. Lekin bu Elchin suygan kulib turuvchi ko'zlar emasdi. Bu nigohda "Gunohim nima edi?" degan ajablanish zohir edi. Elchin bu savol nazariga javob berishga majbur edi. O'zini, faqat o'zini ayblab javoblar qaytarar, biroq, Noilaning ajablangan nigohi bundan taskin topmasdi. Mana shu holat, shu nigoh ta'qibi Elchin uchun oliy jazodan battar edi.

Uchquduq quyoshida jizg'anagi chiqib ketay deganda ham, Sibir o'rmonlaridagi qahraton qishning sovuq nafaslarida muzlab qolay deganida ham bunchalar azoblanmas edi. Ruh azobini dushmaningga ham ravo ko'rmasin ekan.

Oqlovchi so'nggi suhbatda "yaxshi odamlar oraga tushib sizni otuvdan olib qolishdi. Giyohvandlik, qotillik oliy jazoga loyiq edi. Siz menga emas, o'sha odamlarga qulluq qiling", degandi. Elchin, ruhi qiymalangan kezlari, "yaxshi odamlar"ning "marhamati"ni esladi. Bu "marhamat" uni azoblardan halos qilmay, balki bir umrlik jabru jafolarga hukm qilganini anglab yetdi. Shunda "Pichoqni sug'urib o'z yuragimga sanchmaymanmi!" degan o'yda afsus chekdi.

Qamoq muddati yarimlaganda Noilaning nigohidagi "Gunohim nima edi?" degan savol "O'ch oling!" degan undov bilan almashdi. O'ch olish fikri unda o'sha mudhish kunning ertasiyoyoq tug'ilgan bo'lsa-da, "men bir kuchsiz ashulachi bo'lsam, ular baquvvat bir to'da, qo'limdan nima kelardi?" deb bechoraligidan kuyardi. Qamoqda turli taqdirli, turli fe'l-atvorli odamlarni ko'rgach, "Men ham erkakman. Ularga bas kela olaman!" degan ishonch tug'ila bordi.

Elchin qamoqdan shu ishonch bilan qaytdi.

Qamoq azobi tugab, ruhiy azob xuruj qilganini uyga keliboq his qildi. Ozodlikning bunchalik beayov kechishini u tasavvur etmagan edi. Birinchi tunni xuddi jinniday alahsirab o'tkazdi. Keyingi tun yarimlamay, ko'chaga chiqib ketdi. Ko'chalarda tentiradi. Ertalab uyiga qaytib, o'zini la'natladi: "Noilaning ruhi meni bu uyda o'n yil kutgan edi. Men uni yolg'iz tashlab, ko'chaga qochdim. Noilamning ruhidan qo'rqib qochdim-a?! O'zimni erkak deb yuribmanmi, hali?!"

Agar ko'kragida qasos o'ti bo'lmaganida bu ruhiy azoblar uni ezib tashlardi. Vujudi uch-to'rt kun mobaynida janggohga aylandi. Bir tomondan xotira izidan ergashuvchi ruhiy kechinmalar uni ezishga chog'lanadi, ikkinchi tomondan esa qasos o'ti alanga olib bu kechinmalarni quvishga harakat qiladi. Alqissa, qasos o'ti g'olib chiqib, u qaddini rostlashga muvaffaq bo'ldi.

Qasos olishning turlari ko'p. Qamoqdan chiqqan kuniyoq "yaxshi odam"larning birini yoki bir qanchasini so'yib tashlashi yoki uylariga o't qo'yishi mumkin edi. Lekin bu oson yo'l Elchinga ma'qul tushmadi. U nihoyatda uzun, nihoyatda xatarli yo'lni tanladi. Elchin "yaxshi odamlar" to'dasiga kirishi shart edi. Shu niyatda qamoqdan chiqqan kuniyoq ularning oyoqlariga bosh ursa olam guliston bo'lardi. Lekin u bunday ham qilmadi. Yanada boshqa yo'l tutdi. Xatar ko'chasining eshigini ochib birinchi qadamini qo'ydi. Endi "yaxshi odamlar"ning o'zi chorlaydi. Elchin bu chorlov ikki-uch kun orasida bo'lar deb o'ylagan edi. Biroq, yangi yil kirishiga yarim soat qolganida Asadbekdan elchi kelishi uning uchun kutilmagan hol bo'ldi.

Jingalak sochli yigit - Jamshid gapdan ko'ra ishni ma'qul ko'radigan yigit edi. U bilan o'n kun turib, birga yurib to'rttagina gap so'rasangiz, hushiga kelsa ikkitasiga javob qaytarar, xohlamasa shu ikkita gap ham yo'q edi. Indamas bu yigitni kuzata turib, yorilib ketmayotganiga ajablanasiz. Buning yoshidagi yigitlar o'ynab-kuladilar, askiya qiladilar. Jamshidning kulganini ko'rganman degan odam dunyoda yo'qdir-ov. Lekin uning jilmayganini ko'rish sharafiga muyassar bo'lgan baxtiyorlar bor. Bunga ishoning. Kamgapiq hech zamonda, hech yerda fojia sanalmagan, balki fazilat hisoblangan. Shunday ekan, siz ham asardagi yangi tanishingiz Jamshidning kamgapiqligini asosiy fazilat deb bilavering. Bir voqea sabab bo'lib mehr, lutf, hayo kabi tushunchalarning yaqiniga ham yo'lamay qo'rgan bu yigitdan o'zga fazilat qidirib ovora bo'lmaylik. Ha, darvoqe, sadoqatni unutibmiz. U Asadbekka sadoqatli edi. U o'sha voqeadan keyin kuchli, shafqatsiz odamlarni yaxshi ko'rib qolgan. Asadbek uning nazarida eng kuchli odam. Garchi undagi sadoqat bizning nazarimizda yaxshilikka emas, zulmga xizmat qilsa-da, o'ziga xos fazilat deb qabul qilishimiz mumkin

Elchin bu yigitni zimdan bilardi. Qamalmasidan ilgari Asadbek xonadonida bo'lganida uni bir necha bor ko'rgan. Shu sababli Jamshidni darrov tanidi. Jamshid o'zbeklarga xos lutf bilan salom berib, "Siz falonchi akamisiz?" "Sizni falonchi akam yo'qlayptilar" deb latta chaynashni yoqtirmas edi. Eshik qiya ochilib, Elchin ko'rinishi bilan "Sizni Bek akam chaqiryaptilar" dedi-yu, mashinasi tomon yurdi. Elchin uning fe'l-atvorini bilmagani sababli to'ng muomalasidan taajjublandi. Ko'ngli yomonlik yuz berganini sezdi. "Asadbekka ma'lum bo'ldimi? Kim sotishi mumkin?" Kiyinayotganida ham, mashinaga chiqib o'tirganida ham xayoli shu savol bilan band edi.

Jingalak sochli yigit gapiravermagach, Elchinning yuragi toshdi. Uni gapga solish uchun:

- Chaksam maylimi? - deb so'radi.

Jamshid yo'ldan ko'z uzmaganda, "ha", deb qo'ydi.

- Bek akangiz salomatmilar, ko'rmaganimga ham o'n yil bo'ldi, - dedi Elchin. Jamshid unga bir qarab oldi-yu, indamadi. "Demak, ahvol chatoq, - deb o'yladi Elchin. - Agar Asadbekka ma'lum bo'lsa... Nimaga huzuriga chaqirtirdi? Bu yigitga "olib kel", demay, "o'ldirib kel" desa ish osonroq pishardi-ku? O'n yil avval o'limdan olib qolgan edi. Endi nima qilmoqchi?"

Elchin Asadbek saltanatiga qarshi urush ochganida dadil edi. Hozir nima uchundir cho'chiyapti. Uchquduqda ekanida qamoq ahlini yotqizib-turg'izadigan mahbuslar unga ozor berishmasdi. Keyinroq o'ziga ma'lum bo'lishicha, u "Asadbekning odami ekan". Bu ta'rif Sibirda ham uni qiynoqlardan xalos etgan edi. To'g'ri, u yoqlarda Asadbek, desangiz birov bilmas edi. Lekin "O'qilon" ko'pchilikka taniqli edi. Elchin umrida o'qilonni ko'rmagan, biroq, o'zi kichkina bo'lgan bu ilon o'qday uchib yuradi, odamga duch kelsa tovonidan teshib, miyasidan chiqadi, deb eshitgandi. Asadbekka "O'qilon" deb laqab qo'ygan odam shuni nazarda tutganmi? Elchin ovozi uzoqlarga ketgan ana shu dahshatli O'qilonga qarshi chiqdi. Birinchi qadamini qo'ydi. Bu ham birinchi, ayni choqda so'nggi qadam bo'lib qolmasmikin?

- Og'ayni, tanishib olaylik, ismingiz nima edi?- Elchin bu yigitni avval yaxshi taniganu shu damda ismini unutib qo'yganday so'radi.

Jamshid javob bermadi. Qarab ham qo'ymadi. Elchin: "Tirik bo'lsang bilib olarsan, deganimi bu?" deb o'yladi.

Mashina eski shahar tomon burilganida Elchinning tashvishi ortdi. U Asadbekning bolaligi o'tgan hovlini, uning odatini bilar edi. Qorong'i hovliga, so'ng qorong'i xonaga kirganida "kuragim ostiga hozir pichoq sanchiladi" deb kutdi. Yo'q, u o'limdan qo'rqmadi. Elchin o'limni bo'yniga olib, shu yo'lga kirgan edi. U yo'l boshidayoq pand yeganidan, muddaosiga yeta olmaganidan alamda. U necha yil qasos yog'ida qovrildi. Endi esa... U o'zini qafasga tushib qolgan quyondek his etdi. Lekin bir necha daqiqadan so'ng esa bu o'zligi uchun o'zini o'zi la'natladi.

Elchin kuragi ostiga pichoq sanchilishini kutdi. Buning o'rniga qorong'ilikdan Asadbekning ovozi keldi.

- Ha, hofiz, eson-omon chiqib keldingizmi?

Asadbekning ovozi piching yoki tahdid ohangi yo'q edi. Elchin bundan yengil tortdi. Xavotiri bekor ekanini anglab, ovoz kelgan tomonga qarab salom berdi.

- "Keldim" deb ham qo'ymaysiz-a, hofiz, - dedi Asadbek salomga alik olib. - Har holda men sizga begona emas edim. Aka-ukaligimiz bor edi, a?

Asadbekning "sizni otuvdan olib qolgan men bo'laman" demoqchi ekanini Elchin fahmladi. Ko'zi qorong'ilikka o'rganib, uying chap tomonida do'ppayib turgan tanchani, devorga suyanib o'tirgan odam qorasini ilg'adi. Uchrashuv nima uchun qorong'ida bo'layotganiga tushunmadi.

- Qamoqdan qaytgan ukadan xabar olish akadan lozim, deb o'ylabman, - dedi Elchin gina ohangida.

- Kelganingizni bilganimda uchib borar edim, - gap ohangida endi kinoya sezildi. So'ng ohang keskin o'zgardi: - Hofiz, chaynalmasdan erkakcha gaplashaylik. Xotiningizning o'limida mening zarracha aybim yo'q. Siz mening ziyofatlarimni gullatar edingiz. Sizni yo'qotishdan men nima naf ko'rarkanman? Aksincha, zarar ko'rdim. Siz kimgadir yoqmay qolgansiz. Jallodni bizning ichimizdan emas, o'zingizga o'xshagan otarchilar orasidan qidiring. Bir-biriga surma ichirib ovozlarni bo'g'adigan otarchilarning qo'lidan bundan battar ishlar ham keladi. Aybni bo'yingizga olib, ahmoqlik qildingiz.

Chindan ham qotillik Asadbekning ixtiyorisiz sodir bo'lgan va u aybdorni beayov jazoga tortgan edi. Hozir buni aytmay, gunohkorni otarchilar ichidan qidirish kerak, deb qo'ya qoldi.

Elchin uchun Asadbekning gaplari yangilik emas edi. Qamoqda o'tirganida gumonlar ko'chasi uni hamkasblari tomon ham boshlagandi. To'g'ri, "falonchi hofiz falonchi ashulachining choyiga surma qo'shib ichiribdi", degan gaplarni ko'p eshitgan. Biroq, o'z ko'zi bilan ko'rmagan, bunday voqeaga shohid bo'lmagan. Mana-man degan ashulachi ikkita-uchta bo'lsa shunday qilishi mumkindir. Hozir kunda bir arava qo'shiqchi yog'ilayapti. Mikrofonni tumshug'iga tirab kuchanadi. Ovozi bor-yo'qligini ham bilib bo'lmaydi. Ammo har biri o'zini zo'r hofiz deb fahmlaydi. Latifa qilishlaricha, bir tasodif bilan yuzta hofiz harbiyga chaqirilibdi. Zobit ularni safga tizib "bir chekkadan sananglar" deb buyuribdi. Saf boshida turgani "bir" debdi, ikkinchisi "ikki" deyish o'rniga u ham "bir" dermish. Uchinchi... qirinchisi ham "bir" dermish. Zobit achchiqlanib turganda saf boshidagi unga asta tushuntribdi: "O'rtoq boshliq, biz ashulachilarmiz. Bizda ikkinchi degan gap yo'q, hammamiz birinchimiz". Hofizlar mayda qabihliklarni qilar-u, lekin begunoh ayolni zo'rlab, so'ng yuragiga pichoq sanchishga jur'at etisholmas. Elchin bunga qattiq ishonadi. Shu sababli ham Asadbekning gaplarini bee'tibor eshitdi. "O'sha voqeadan oldin odamlaringiz mendan boj talab qilishdi. Har oyda falon ming so'mdan to'lab turishim lozim edi. Rad etdim. Shunda hazillashdik, deb meni ziyofatga olib borishdi. U yerda hazillashib qimor o'ynadik..." demoqchi ham edi, lekin "To'g'ri, ular hazillashishgandi" degan javobni eshitishini bilib, indamadi.

- Mendan bir xatolik o'tgan: hasadgo'yularingiz ko'pligini hisobga olmaganman. Sizni himoya qilishim kerak edi. Bir ashulangiz bor edi:

"O'ynamasa kim o'zganing nayiga,  
Shum niyat-la tushadilar payiga!"

Siz endi o'sha naychini qidirapsiz, bilaman. Qidirmaganingizda sizni o'g'il bola demas edim. Naychi bilan... allaqachon hisob-kitob to'g'ri bo'lgan. Siz uni o'ylamang. Siz... uylandingizmi?

- Yo'q.

- Tirikchilik nima bo'lyapti?

- O'zbekning to'yi bor ekan, xor bo'lmaymiz.

- To'ying ham to'yi bor. Kim aytsa boraversangiz obro'yingiz qolmaydi. Siz eng zo'r ashulachi bo'lishingiz kerak. Odamlar "xo'p" deyishingizga mahtal bo'lib haftalab ostonangizda yotadi. Bu yog'ini menga qo'yib bering. Televizor, radio faqat sizning ashulalaringizni beradi. Sherali-yu, G'ulomlaringiz sariq chaqa bo'lib qoladi. Siz ashula aytganingizda Ortiqlar "amma-xolasi havodor" deb etak ochib o'tiradi.

- Rahmat, Bek aka, bularning evaziga men nima qilishim kerak? Har holda "hisobli do'st ayrilmas", deganlar. Siz ko'p so'ramaysiz, bilaman. Nari borsa, sizga qul bo'lishim kerak-da, a?

Asadbek Elchindan bunaqa ignali gapni emas, balki samimiy minnatdorchilik kutgan edi. Asadbek lof urmayotgan edi, aytganlarini albatta ro'yo qilardi. "Bu otarchi nimasiga ishonib katta ketyapti?" Asadbek bir g'ijini oldi. Kimda-kim zid so'z aytsa, u gapini kalta qilardi. Uning nima hukm chiqargani bir qarashidayoq a'yonlariga ma'lum bo'lardi. Asadbekka botinib gap qaytargan odamning sho'riga sho'rva to'kilishi aniq edi. Elchin buni bilardi. Bila turib beixtiyor nojo'ya gap aytdi, degan gapimga ishonib chalg'imang. Elchin bila turib aytdi, bu gapni. Uning maqsadi Asadbekning qanotiga kirish edi. Lekin mute bo'lib emas, qaddini g'oz tutib kirmoqchi edi. Hozirgi marhamatga javoban minnatdorchilik bildirish yana mutelik jandasini kiyish bilan

barobar bo'lardi. U holda Asadbekning atrofidagi parvona fohishalardan farqi qolmas edi. Elchin shu uchun azob chekibdimi, shu uchun payt poylabdimi, reja tuzibdimi?!

Asadbek Elchinni avval ham durustroq bilmas edi. Elchin Asadbek uchun bir qo'shiqchi, pul qistirganda irshayib qulluq qiluvchi otarchi edi. Asadbek man-man degan ashulachini ham odam qatoriga qo'shmas edi. Unvoni, shuhrati ulug' ashulachilarni esa ko'pchilik oldida mazax qilishni, kamsitishni yoqtirardi. To'yda viqor bilan yurib o'rtaga chiqardi, ashulachiga yaqinlashib cho'ntagiga qo'l solardi. Agar marhamat qilsa ikkita yuztalikni chiqarib ashulachining ikki yelkasiga "pogon" qilib qo'yardi. Kayfiyati chatoqroq bo'lsa - yoqasiga qistirardi. Asadbekning izidan chiqqan boshqalar ham faqat yuztalik qistirardi. Shuning uchun ham yoqasiga pul qistirilgan ashulachi o'zini kamsitilgan deb hisoblamas, balki "akaxon"ning hazillari deb bilib, irshaygan holda ta'zim qilardi. Elchin birinchi marta Asadbekning qahriga o'shanday holatda duch kelgan. Asadbek yoqasiga pul qistirmoqchi bo'lganida bo'y bermagan edi. O'sha kuni yengil jazo oldi - ikki yigit yaxshigina do'pposlab, torini majaqlab tashladi. Asadbek hozir o'sha voqeani esladi. Eslab turib "qamoqda ham aqli kirmabdi bu bachchag'arning", deb qo'ydi.

Qorong'ilikni titratib chiqqan Asadbekning qahrli ovozi oraga tushgan bir damlik sukutni buzdi.

- Mening qullarim ajib-bijib yotibdi. Sendan durustroq qul ham chiqmaydi. Sen... ashulangni bilsang bas. Boshqa ishlarga tumshug'ingni suqma.

Elchin Asadbekning sensirashiga o'tganidan bildiki, u g'azab otiga mindi.

- Sen mol emassan. U yoqdan burningni oqizib kelmagansan. Tishingni qayrab yuribsan.

- Bek aka...- Elchin "mening hech qanday yomon niyatim yo'q", deb gapni chalg'itmoqchi edi, Asadbek yo'l bermadi.

- Ovozingni o'chir! Men gapiryapman, haddingdan oshma, bola! Sen xotining o'ldirilganini, u yoqlarda yurib kelganingni unut.

Ammo Asadbek akangni unutma! Asadbek akang, Xudoga shukr, tirik. Mabodo u o'lib qolsa, o'ligidan ham qo'rq. Men go'rimda ham tinch yotmayman. Atrofingda kimlar bor?

Bunday ochiq savdoni Elchin kutmagan edi. "Bilib turib so'rayaptimi yo taxminan mo'ljalga olyaptimi? Qizi yo'qolganidan keyin yigitlari izg'ib hid olishgan bo'lsa-chi? Unda nima uchun qizidan gap ochmayapti?" Elchin arqonni uzunroq tashlash maqsadida o'zini go'llikka soldi:

- Ota-onam o'tib ketishibdi, Xudo rahmat qilsin ularni...

- Chaynalma! Kimlarni so'rayotganimni bilib turibsan. Sen men bilan mushuk-sichqon o'ynama. Mayda baliqlar hammavaqt kattalariga yem bo'ladi. Senlar chivinsanlar, men - burgutman. Farqi bormi?

"Farqi bor, - deb o'yladi Elchin.- Afsuski, burgut chivinni yeyolmaydi-da".

- Atrofingdagilar o'zbeklarmi yo o'sha yoqdan topgan qalang'i-qasang'ilaringmi? O'zbek bo'lmasa yo'qot ularni. O'zimiznikilar ham yetib ortadi. Zerikmasliging uchun besh-o'nta bolani senga topshiraman.

"Demak, yonimdagilarni bilmaydi. Qizini kim zo'rlaganini ham bilmaydi. Taxmin qilyapti. Ishonchi komil bo'lganda men bilan pachakilashib o'tirmas edi. Bir otarchi nomusini bulg'aydi-yu, u safсата sotib o'tiradimi?"

- Bek aka, men yolg'izman. Qasos olish niyatim borligi rost. Ammo birovning yordami bilan olinadigan qasos menga tatimaydi. Yonimga odam to'plamaganman.

- Qasam ich!

- Xudo ursin!

Elchin taqvo degan narsani, qasamning qadri degan narsani bilmas edi. Bolalar bir-birlarini ishontirish maqsadida kunda yuz marta "xudo ursin" deyishadi. Elchin hozir xuddi bola kabi o'ylamay-netmay "xudo ursin" deb yubordi. Asadbek osonlik bilan ichilgan bu qasamga ishonmasa-da, bir oz taskin topganday bo'ldi.

- Sen tezroq uylan. To'yingga o'zim bosh bo'laman.

Asadbek shunday deb jim bo'ldi. Elchin gap tugaganini anglagan bo'lsa-da, bir oz turdi. So'ng "ketaveraymi?" deb so'radi.

Asadbek sovuqqina qilib "ha", deb qo'ydi. Elchin uning g'azabga to'lgan nigohini qorong'ida ko'rmadi.

Elchin Asadbek "uylan" deganida, "qizini menga beradi endi" deb o'ylagandi. Elchinning nazarida Asadbek uchun eng to'g'ri yo'l shu edi. Bu yo'l Elchinni maqsad sari tezroq olib borardi. Ammo u yanglishdi. Qo'shiqchi eplab raqsga tusholmagani, raqqosa esa eplab ashula aytolmagani kabi u jinoyatning hadisini olmagan edi. U xayolan ish pishitishga usta edi. Asadbeklar xayolda emas, amalda bajarardilar. Asadbek qizini qamoqdan chiqqan otarchiga berganidan ko'ra o'ldirib yuborishi mumkinligini Elchin hisobga olmagan edi.

Elchin Anvarga "Asadbekning qizini olyapman" deb yanglish gap aytdi. Xayolidagi ishini haqiqatga aylantirib yubordi.

## II bob

1

Qayta qurish sharofati bilan depara qidiruv bo'limining inspektori, leytenant Zohid Sharipovning yelkasiga oftob tegdi. "Halolligi, o'z ishiga vijdonan munosabatda bo'lganligi" tufayli uni shahar prokuraturasiga ishga olishdi. Jumlaboshini qo'shtirnoq orasiga olganimga, kinoya qilyapti, demang. Bu jumla depara ichki ishlar bo'limi boshlig'ining tavsiyanomasidan ko'chirmadir. Zohid chindan ham halol, vijdonli yigit. Uning aynan shu fazilati boshliqqa yoqmas edi. Boshliq "qayta qurish, oshkoralik degan balo qayoqdan chiqdi!" deb norozi bo'lib yurganida, aynan shu qayta qurish joniga ora kirdi: yoshlarni ko'tarish masalasi kun tartibiga qo'yilganda shartta Zohidning nomzodini ko'rsatdi.

Mahmadona leytenantning har majlisda bir igna sanchib olishi, haqiqat talab etishi boshliqning esini teskari qilib yuborgan, majlis desa ko'ngli ag'dariladigan, ko'z oldiga Zohid keladigan bo'lib qolgan edi. Zohid ketgach, atrofidagi ikki-uch haqiqatparvarlarning o'z-o'zidan tinchishiga ishonardi. Boshliq Zohidni "mening ko'richagim", deb piching qilardi. Osongina tashrih tufayli bu ozorli darddan qutulganiga shukr qildi. Lekin Zohid ko'richak emas, buyrakdagi tosh ekan. O'qtin-o'qtin qo'zg'ab, bezovta qilib turishi mumkin ekan.

Zohid prokuraturada vazifasini o'tashga kirishgan kuniyoq uning qo'liga shu deparaga oid ish berildi. Kecha tantana bilan kuzatilgan leytenant bugun yana boshliq huzurida paydo bo'ldi. Ilgari boshliq unga baqirib, hatto chiqarib yuborishi mumkin edi. Endi esa jilmayib ko'rishishga majbur. Boshliq Zohidni butunlay yo'q bo'lib ketadi, deb hisoblamagan. Biroq bunchalar tez kelar, deb o'ylamovdi.

Usti choynak izlaridan dog' bo'lib ketgan bitta stol, oshiq-ma'shug'i arang ilinib turgan kitob javoni turgan tor xona Zohidga meros bo'lib qoldi. Stol tortmasidan "VT" sigaretasining bo'sh qutisi, besh-olti dona cho'pi qolgan gugurt bor edi. Zohid ularni olib simto'rxaltaga tashladi-da, stol ustini changdan tozalash uchun uch-to'rt bora qattiq pufladi. Shu puflash oqibatida qo'qqis uyg'onib

ketgandek telefon jiringladi.

- Sharipov, - dedi u, telefon go'shagini qulog'iga tutib.

- Lola ko'chasidagi o'n yettinchi uydin qoradori topilgan. Qidiruv guruhi jo'nadi. Bu ish sizga topshiriladi.

Buyruq qisqa va qat'iy edi. Zohid shoshilmay o'rnidan turdi-da, go'shakni joyiga qo'yib, tashqariga yo'l oldi. U Lola ko'chasini bilardi. O'zi xizmat qilgan militsiya bo'limiga yaqin, mahalla guzaridan chapga burilishdan shu ko'cha boshlanardi. Bu mahalla tinch, yilda bir-ikki mushtlashish bo'lib turishi hisobga olinmasa jinoyatdan ancha yiroq edi.

Mahallaning osoyishtaligi militsiya bo'limi yaqin joylashgani uchun emas. Milisaxona ko'chib kelmasidan oldin ham mahalla tinch edi. Bu yerdagilarning aytishicha, biz tilga olgan "bir-ikki mushtlashuv" ham milisaxona ko'chib kelganidan so'ng boshlangan. Bu qanchalik to'g'ri yo noto'g'ri - Yaratganga ma'lum. Mahallaning osoyishtaligiga sabab, bu yerdagi odatlarga na "turg'unlik" deb nom olgan yillar ta'sir o'tkaza olgan, na qayta qurish degan gaplar. Mahalla azaldan qariyalar hukmiga bo'ysunib kelgan. Umri adosiga yetgan qariyalar eng yaxshi odatlarni o'zlari bilan olib ketmay, ortlarida qolayotganlarga meros qoldirishgan. Kimga yolg'on, kimga chin, shaharda bo'kib ichib, oyoqda turolmaydigan darajaga yetgan odam ham mahalla hududiga qadam bosishi bilan sergak tortib qolarkan. Salomni kanda qilmay guzardan o'tib, uyiga yetib olarkan.

Zohid mahallaning odamlarini yaxshi bilgani uchun ham boshi qotdi: qoradori bilan kim shug'ullanishi mumkin?

Biron joyda jinoyat sodir bo'lsa qidiruvchilarning ko'z oldiga dastlab yaqin orada qamoqdan qaytganlar keladi. Bir uyni o'g'ri urib ketgan bo'lsa, avval o'g'irlik usuli bilan qiziqishadi. Yozuvchining o'ziga xos uslubi bo'lganidek, jinoyatchilarning ham o'z uslublari mavjud. Ali o'g'rining ishi hech mahal Vali o'g'rining ishiga o'xshamaydi. Ba'zan jinoyatchilarning o'zlari militsiyaga yordam berishadi: uslub kimniki ekanini aytishadi. Qora dorining topilishi ham shunday "xolis xizmat" oqibati bo'lishi mumkin. Lola ko'chasidagi o'n yettinchi uy oldida ikkita yengil va bir tez yordam mashinasi turardi. Hangomatalablar ham to'planishib qolishgan edi. Uy tashqi tomondan qaraganda xarobgina ko'rinadi. Yondagi imoratlar ko'krak kerib turgani uchunmi, chiroyli peshtoqsiz bu uy oddiy bostirmaga o'xshardi.

Zohid ichkari kirdi. Uzunasiga ellik qadamcha keladigan hovli ishkomdan iborat edi. Tashqarisidan g'aribgina ko'ringan uy ichkarisi ham shu ahvolda ekan. O'rtada dahliz, dahliz to'rida obrez. Chap tomonda kichikroq uy kimyogarlikka oid turli-tuman idishlarga to'la. O'ng tomonda kattaroq xona - yotoq ham, yemakxona ham shunda mujassam.

Jinoyat qidiruv bo'limining xodimlari - Zohid-ning kechagi hamkasblari shu yerda. O'rtada dumaloq stol. Stol ustida oq kukunli shaffof xaltachalar - tanish manzara. Deraza yonidagi kursida yosh juvon boshini ushlab o'tiribdi. Yig'layverib shishib ketgan.

Xona to'rida - divan. Divanda bir yigit behush yotibdi. Qidiruvchilar boshlig'i - Hamdam Tolipov axborot berdi.

- Uy egasi Sharif Namozov - anavi yotgan yigit, vino zavodida bosh muhandis ekan. Bir xalta portfelidan chiqdi. Qolganlari narigi xonada. Tajribaxonasi emish.

- O'zi mastmi?

- G'irt mast. Bilagida igna izi bor. Hozir qon olishdi, natijasini aytib qolishadi. Anavi ayol xotini ekan. Hech nimani bilmayman, deydi.

- Iziga qanday tushdinglar?

- Ikkita giyohvand yigitni tutuvdik. Qaerdan oldilaring, desak, shu yerni aytishdi.

- Osongina aytishdimi yo qiynadinglarmi?

Hamdam "meni bilasan-ku", deganday kulimsirab qo'ydi. Zohid bo'sh stulni olib, ayolning ro'parasiga o'tirdi-da, o'zini tanishtirdi.

- Ismingiz nima?

- Nasiba, - juvon shunday deb unga najot ko'zi bilan tikildi.

- Eringiz nima ish qiladilar?

- Vino zavodida ishlaydilar. Ikki oygina bo'ldi, ko'tarishuvdi. Portugaliyaliklar bu kishining ishlarini sotib olishgandan keyin odamlarning o'zlari saylab qo'yishdi. Ko'nmasalar ham zo'rlashdi. Boshliq bo'lishga sirayam toqatlari yo'q edi.

- Portugaliyaliklar qanaqa ishni sotib olishdi?

- Musallas qilishning yangi usulini topganlar. Besh yildan beri sarson edilar. O'zimiznikilar hech o'tkazishmadi. Ular qayoqdandir eshitib qolishib, atay kelib tekshirib ko'rishdi.

- Eringiz ko'p icharmidilar?

- Yo'-o'q, bunaqa ichmasdilar. Sinash uchun bir ho'plam-bir ho'plam ichardilar, xolos. Bunaqa ahvolda hech ko'rmaganman. O'zim ham qo'rqib ketdim.

- Soat nechada kelgan edilar?

- O'n ikkilarda. Bunaqa kech yurmasdilar. To'yga borsalar ham vaqtli qaytardilar.

- O'zlari yurib keldilarmi?

- Bilmadim, - Nasiba o'ylandi. - Mashinada keldilar shekilli. Ha, avval mashina to'xtadi. Keyin qo'ng'iroq chalindi. Chiqsam, devorga suyanib o'tiribdilar. Uyga zo'rg'a olib kirdim.

- Bular qaerdan keldi? - dedi Zohid stol ustidagi xaltachalarni ko'rsatib.

- Bilmadim... Bular kelishdi. Uyni tintishdi. Men anqayib turaverdim.

Zohid o'rnidan turib, dahlizda chekayotgan Hamdamga yaqinlashdi.

- Tintuvga ruxsatnomangiz bor edimi? - dedi.

Hamdam kulib qo'ydi.

- Ruxsatnoma olguncha bular kutib o'tirishmaydi. Tintib, topib qo'yibmiz-ku?

Zohid uning ish uslubini bilardi: Hamdam hamisha shoshilib ishlardi. Ba'zan qonun-qoidalarga rioya ham qilmas edi. Javobdan bo'yin tovlayotgan jinoyatchining qorniga bexos musht tushirib qolishni yaxshi ko'rardi. Musht yegan odam bukchayib, ixranayotganida u xotirjam sigaret tutatardi. Zohidga uning bunday usullari yoqmas edi. Lekin halolligi, jinoyatchiga beshafqat bo'lgani uchun uni hurmat qilardi.

- Giyohvandlarning surati bormi?

Hamdam ko'krak cho'ntagidan beshta surat chiqarib, ikkitasini ajratdi:

- Mana bular. Ko'rsatdim, tanimadi.

- Bu yerga qachon kelishgan ekan?

- Uch kun oldin.

Zohid suratni olib, iziga qaytdi.

- Mana bularga diqqat bilan qarang. Shoshilmang. Birontasi uyingizga kelganmi?  
Ayol sinchiklab qarab, bosh chayqadi.  
- Yaxshilab eslang. Balki birontasi uch kun oldin kelib eringizga uchrashgandir?  
- Kelsa bilardim. Adasiga uchrashishlari mumkin emas. Uch kun oldin u kishi Yerevanda edilar.  
- Qachon keldilar?  
- Kecha ertalab kelib, choy-poy ichib keyin ishga ketdilar.  
- Bu yerga notanish odamlar kelib turisharmidi, masalan, bir narsa so'rabmi?  
- Yo'q, odam kam bo'ladi uyimizda. U kishi doim ish bilan bandlar. Bekordan-bekorga gaplashib o'tirishni yoqtirmaydilar.  
- Musallas so'rab kelishmaydimi?  
- Qo'ni-qo'shnilar chiqib turishadi.  
Dahlizga oq xalatli ayol kirib, Hamdamga nimadir dedi. Hamdam ichkari kirib Zohidning qulog'iga shivirladi:  
- Qonidan qoradori topilgan.  
Zohid o'rnidan turib dahliz tomon boshladi.  
- Giyohvand yigitlaringiz qaerda?  
- O'zimizda.  
- Yuring, ular bilan gaplashishim kerak.- Zohid shunday deb tashqariga yo'naldi.  
Giyohvand yigitlardan birining pastki labi osilgan, ko'zlari chaqchaygan, ikkinchisining qarashlari sovuq, o'ng yuzida uzun tirtiq bor edi.  
- Bilagingni ko'rsat, - dedi Zohid tirtiqqa.  
U "shu ham ishmi?" deganday erinibgina kurtkasini yechib, ko'ylagining yengini shimardi. Labi osilgan yigitning bilagida ham igna izlari bor edi. Ularning giyohvandligiga Zohidda shubha qolmadi.  
- Kukunni qaerdan olardilaring? - deb so'radi Zohid.  
- Bratanga etganmiza, qayoqdan oganuvzani,- dedi labi osilgan yigit.  
- Menga ham ayt.  
- Lola ko'chasida... o'n... yettinchi uyda turadigan Sharif aka degan kishi.  
- Ikkoving birga borganmisan?  
- Bir xil paytda man borardim, bir xil paytda u borardi, bir xil paytda ikkalavuz borardik.  
Zohid hali Hamdamdan olgan suratlarini cho'ntagidan chiqarib, uchtasini ajratib oldi-da, stol ustiga yoyib, labi osilganini chaqirdi.  
- Qara, Sharif akang qaysi biri?  
Yigit o'rdakka o'xshab lapanglab kelib suratlariga uzoq tikildi-da, bittasini ko'rsatdi.  
- Joyingga o'tir, - Zohid shunday deb suratlarining joyini almashtirdi-da, tirtiqni chaqirdi. U boshqa suratni ko'rsatdi.  
- Oxirgi marta qachon boruvdilaring? - deb so'radi Zohid.  
- Uch kun bo'ldi.  
- Balki to'rt kundir?  
- Vey bratan, man o'zim borganman. Soqqa yo'g'idi, qarzga bergan. Nishtyak odam u. O'zini laboratoriyasi bor. Ayn moment tayyorlab beradi.  
- Laboratoriyasiga kirganmisan?  
- Kirganman-de. Shundoq chap tomonda.  
- Ayvondan o'tgandami?  
- Ha-de, bilib turib so'ruvrasizmi?  
Zohid "bu yog'iga nima deysiz?" deb Hamdamga qaradi.  
- Ayvonning oldi rommi?  
Labi osilgan yigit o'ylanib qoldi.  
- Rom bo'lsa kerak, - dedi ikkilangan holda.  
- Yolg'on gapirma! - dedi Hamdam baqirib.  
- Bratan, aldavotganim yo'q.  
Hamdam unga yaqinlashib, yoqasini changallab o'rnidan turg'izdi.  
- Yolg'on gapirma, xunasa, uyida bo'lmagansan. Ayvoni yo'q uning.  
Labi tirtiq birdan tutqanog'i tutgan odamdek baqirib yubordi:  
- Qo'yvoring! Men kechasi borganman. Ayvoniga qarabmanmi, o'zi zo'rg'a turuvdim.  
- Borganmisan?!  
- Ha, borganman!  
- Uch kun oldinmi?  
- Ha, uch kun oldin.  
- Juda yaxshi! - Hamdam uni qo'yib yubordi. - Menga shu kerak edi. Yo'zib qo'ying, o'rtoq prokuror. Borganini tan oldi. Endi bilib qo'ylaring: uch kun oldin u uyida o'ldirilgan!  
Ikkala yigit avvaliga "xato eshitmadikmi?" degandek qarab oldi. So'ng xuddi kelishib olishganday Hamdamga baravariga dahshat bilan boqishdi.  
- Yo'q! - dedi tirtiq jon holatda.  
- Nima yo'q? - dedi Hamdam g'olib kishining muloyim ovozida.  
- Bormaganmiz.  
- O'rtoq prokuror, bunisiga nima deysiz?  
- Soqchini chaqiring, olib ketsin.  
Giyohvandlar chiqib ketishgach, Hamdam divanga o'tirib, oyoqlarini stol ustiga chalishtirib qo'yib oldi.  
- Hamdam aka, darrov topganingizdan ajablanmadingizmi? - dedi Zohid uning yoniga o'tirib.  
- Ajablanishga vaqt bo'lmadi. Ana endi o'zing, mazza qilib ajablanaverasan. Men topdim. Sen tergayver. Operativ ishlaganim uchun okaxoning rahmatnoma e'lon qiladi menga.  
- Yuvarkanmiz-da, - Zohid shunday deb yelkasiga asta urib qo'ydi. Keyin jiddiy ohangga ko'chdi: - Bularni kim ishga solgan

bo'lishi mumkin?

Hamdam darrov javob bermadi.

- Vino zavodida nima gap ekan? - dedi u ma'nodor qilib.

- Men ham shuni o'ylab turibman.

- O'ylasang o'ylagin-u, ammo vinzavodga osila ko'rma.

- Nimaga?

- Kimga qaraydi zavod, bilasanmi?

- Oziq-ovqat vazirligigami?

Hamdam kulib, tizzasiga shapati urdi.

- Ey, prokuror, ko'zingni och! Shuncha yil ugroda saqich chaynab yurgan ekansan-da, a? Vinzavod Asadbekning tasarrufida-ku?!

Buni ko'chadagi mishiqi bola ham biladi, sen bilmaysanmi, qishloqi?

Zohid ham eshitgan bu gaplarni. Zavod direktori Asadbekning tavsiyasi bilan qo'yiladi, hatto qorovul ham uning ruxsatisiz ishdan

bo'sholmaydi, degan gaplar yuradi. Xalq og'zidagi mish-mishning qandaydir asoslari mavjud. Biroq, Asadbek haqidagi gaplar

ko'pincha g'irt yolg'on bo'lib chiqadi. Zohid o'tgan yili bunga ishondi: kutilmaganda bir gap tarqalib odamlar behalovat bo'lib

qolishdi. Emishki, bir odamni qo'shnisi mashinasida qaergadir olib borib qo'yishi lozim ekan. Mashina aytilgan tomonga emas,

bo'lak yoqqa burilibdi. "Nimaga bu tomonga burilding?" deb so'rasa, mashina egasi "jim o'tiravering, ko'rasiz" debdi. Xullas,

mashina gadoy topmas ko'chalardan yurib, shahar tashqarisiga chiqibdi. Borib-borib yo'l qamishzorga taqalibdi. Mashina egasi

o'tirib turing, deb g'oyib bo'libdi. Haligi odam qo'rqib, mashinadan tushibdi. Qamishzor oralab qarasa, bir chuqurda allaqancha

murdalar yotganmish. U "meni ham o'ldirib tashlashar ekan-da" deb o'ylab, o'liklarni surib, tagiga tushib yotaveribdi. Bir oz vaqt

o'tgach, besh-o'nta odam paydo bo'lib, uni qidirishibdi. Keyin "bizni aldadingmi, hali" deb mashina egasini do'pposlashibdi.

Tongga yaqin haligi odam o'liklar orasidan chiqib qarasa, uzoqda bir chiroq multillab turganmish. Borib qarasa, bir qozoq

cho'ponning uyi ekan. Qozoq uni uyiga olib kirib, yuvintirib, o'zining toza kiyimlarini beribdi. Gapning qisqasi, o'sha odamlar

Asadbekka tegishli ekan. Shu vahima gaplar kuchaya borgach, tekshirib ko'rish Zohidga topshirildi. U bir hafta urinib,

chuvallangan ipning uchini, o'sha odamni topdi. U odam o'n yetti yildan beri ruhiy xastaliklar shifoxonasida ro'yxatda turarkan.

Zohid bir qarasa, uning gapi bama'ni, bir qarasa, g'alati edi. U qo'shnisini ko'rsatdi. Qo'shni ajablandi. Ustiga-ustak uning

mashinasi yo'q. Haligi odam qamishzorni ko'rsataman, dedi. Zohid ko'ndi. Qadimda "Xotinko'prik" deb atalgan joyga boshlab

bordi. Qamishzor yo'q. Hammayoq ko'pqavatli imorat edi. Haligi odam mo'ltillab turib, so'ng yig'lab yubordi. Zohid uni uyiga

emas, shifoxonaga eltib qo'ydi.

Bu voqeaga bir yildan oshibdi. Zohid o'sha odamning mo'ltillab turishi, yig'lab yuborishini o'qtin-o'qtin eslardi. Hozir vinzavod

haqida gap chiqqanida yana yodiga tushdi. Yon daftariga "jinni odam, Xotinko'prik" deb yozib qo'ydi

- Demak, bu ish Asadbekka borib taqaladimi? - dedi u daftarchasini cho'ntagiga solib.

- Bo'lishi mumkin, - dedi Hamdam. - Lekin bu ikki galvarsdan gap olaman, deb ovora bo'lma. Ular Asadbekni bilishmaydi. Sharif

Namozov bilan suhbatlashsang ko'p narsa oydin bo'ladi. Olimligi bor ekan. Bunaqa odamlar haqiqatparast bo'lishadi. Adolat

qilaman, degan bo'lsa, qopqonga tushirishgan. Endi istasang-istamasang, qamoqqa olasan. Qoni tekshirilib giyohvand deb

turilibdi. Uyidan kukunlar chiqdi. Yuz ming so'mning nari-berisidagi mol-a! Yuz mingdan kechishibdimi, demak, ish katta.

- Agar siz aytganday Asadbekning yo'lga to'g'anoq bo'lsa, osongina yo'q qilishmasmidi?

- Maydaroq odam bo'lganida balki sen aytgan yo'lni tutishardi. Namozov biron-bir masalada ochiqchasiga qarshi chiqqandir.

Umuman... Yuz ming so'm ularga tramvay pattasiday gap. Agar Namozovni qamoqqa olishga ruxsat bermasang, ertaga uyingga

besh yuz ming tashlab ketishlari mumkin. Unda ham ko'nmasang...

- O'ldiradimi?

- Yo'q, o'ldirmasa kerak. Lekin yo'lni topadi. Har holda ish Asadbekka borib taqalsa, u bilan o'chakishma. Sendan zo'rlar ham

eplasha olmagan uni. Biz sen bilan komissar Katani bo'lolmaymiz. Lekin Asadbek advokat Teraziniga dars berishi mumkin. Senga

maslahatim: Namozovni qamash kerak. Qamasang, uning jonini saqlab qolasan. O'ylab ko'r.

2

Hamdamning taklifini o'ylab ko'rishga ulgurmay depara ichki ishlar bo'limi boshlig'i kapitan Mirsultonov kirib keldi:

- Ot aylanib qozig'ini toparkan. Bizdan qutulib bo'psiz! - u shunday deb Zohid bilan qo'shqo'llab ko'rishdi. - Yaxshi, yaxshi. Ishni

o'zimizdan boshlaganingiz, yaxshi bo'libdi. Qiynalmaysiz. Mana, bu yoqda biz bor. Borib ko'rgandirsiz? Nima qilmoqchisiz?

- Hali tayin bir xulosaga kelganim yo'q.

- Bu ko'p o'ylaydigan ish emas. Qamoqqa olish haqida sanktsiya beravering.

Zohid o'zini quvnoq tutishga urinayotgan kapitanga qarab ajablandi. "Namozovni qamoqqa olishimga buncha qiziqib qoldi? Yana

eski hammom, eski tos desangchi? Ashyoviy dalil bor, soxta guvohlar bor. Men qamoqqa olaman, u yoqda hakamlar yeng

shimarib shay turishibdi. Necha yilga hukm qilishni yaxshi bilishadi. Restoranda mashhoqlarga uch so'm berib istagan kuyni

chaldirgani kabi pul tashlab istagan odamni istagan muddatga qamatish cho't bo'lmay qoldi. Men adolat qilaman, desam, bular

"ovora bo'lma, qo'lingdan kelmaydi. Sen uch so'mlik restoran mashhoqisan", deyishmoqchimi?" Zohid xayolidan shularni

o'tkazib, asabiylashdi. Hamdamdan sigaret so'rab olib tutatdi. Boshliq stolni nog'oraday chertib, javob kutardi.

- To'g'ri aytasiz, - dedi Zohid, unga sinovchan tikilib, - qamoqqa olish kerak. Ammo bu yerda emas, shahar turmasida o'tira turadi.

Haligi ikkita guvoh ham uch-to'rt kun qamoqda o'tirsa, ancha o'ziga kelib qoladi.

"Haligi ikkita guvoh" degan gapni eshitib, Mirsultonov sergaklandi:

- Guvohlarni... majburiy davolanishga yuborish kerak, - dedi u Zohidga.

- U yoqqa yuborish vaqti ham keladi. Avval tergovni tugatib olaylik.

Boshliq Zohiddan tayinli gap ololmasligini bilib, Hamdamga savol nazari bilan qaradi.

- Guvohlar soxtaga o'xshaydi, - dedi Hamdam boshlig'iga. Keyin Zohidga yuzlandi. - Menga qara, prokuror, mijg'ovlik qilmay

to'g'risini aytib qo'ya qolmaysanmi, вЂ"u yana boshlig'iga qaradi. - Bu bola vinzavodni ham kavlashtirmoqchiga o'xshaydi. Fe'lini

bilasiz-ku?

Mirsultonov yana stolni chertdi.

- Yaxshi, yaxshi, - dedi u Zohidga qaramay. - Fe'lini bilaman, bu o'jarning. Avval gapirsam, insofga chaqirsam amalidan ajrashdan

qo'rqadi, derdi. Endi amalidan ko'rqadigan boshlig'i boshqa, - u boshini ko'tarib Zohidga qaradi. - Bukirni go'r to'g'irlarkan. Sen

ko'zingni ochib yur. Bukir bo'lsang ham shu yorug' dunyoda yuraver. U yoqqa shoshilma. Senga "Choqsunla"ni aytib beribmidim? - boshliq kulimsiragan bo'ldi. - Bir tajang uyg'ur yigit sochini ustarada qirdirib yayrab kelayotgan ekan, qayoqdanam ari uchib kelibdiy naq boshini chaqibdi. Yigit arining izidan yuguribdi. Yetib, qarasa, eski paxsa devor yorig'ida otning kallasiday keladigan in bormish. U shartta cho'p olib arining inini obdan kavlabdi, ari rosa to'zigandan keyin yoriqqa boshini tutib, "Choqsunla emdi, odash!" degan ekan.

Odatda boshliq buni latifa ohangida aytib, miriqib kulardi. Bu safar xazil aralashmay, jiddiy turib aytdi.

- Sen o'sha "Choqsunla"ga o'xshaysan. Lekin sen arining emas, naq o'limning uyasini kavlashni niyat qilibsən. Joning tekinga kelgan bo'lsa ham qadamingni o'ylab bos. Bola-chaqang borligini esdan chiqarma. Meni qanday tushunsang tushunaver. Qo'rqqo deysanmi, olchoq deysanmi - nima desang deyaver. Men osmondagi haqiqatdan yerdagi jonimni azizroq bilaman. Har kuni haqiqat, adolat deb javrayotganlarga ham jon shirin. Sen ularning gaplariga uchma. U haqiqat deb boshimizni aylantirib, bizni kushxonaga boshlaydi. O'zi qo'ng'iroqli serka singari o'tib ketadi. Pichoqqa senga o'xshagan laqmalar duch keladi.

Zohid sobiq boshlig'ining gaplarini toqat bilan eshitdi. Avvallari biron masala xususida gap talashguday bo'lsa, boshliq qo'rs muomala qilar, siltab-siltab tashlardi. Hozirgi muomalasi, siniqroq ohangda, nasihat tarzida gapirishi Zohid uchun yangilik edi. Boshliqning asl qiyofasi qaysi - hozir jonli odamday kuyib gapirishimi yo avvalgi temir odamday tersligimi - Zohid farqlamay qoldi. U sobiq boshlig'iga "ha" ham, "yo'q" ham demadi. Qishloqqa har borganida onasi ham shunday gaplarni ko'p aytardi. O'zingni o'qqa-cho'qqa uraverma, deb iltijo qilardi. Onasi-ku unga kuyganidan aytardi. Boshliq-chi? Nahot, Zohidning taqdiriga u ham kuyinsa?

Zohid siz bilan biz kabi dunyodan adolat izlardi, haqiqat topmoq istardi. Uning nazarida haqiqat qaerdadir kul ostida yoki bir uyum axlat ostida yotgan haykalu uni topib, tozalab, tiklab qo'ysa olam guliston bo'ladi. Mana shu kuchli istak uni yon atrofidagi odamlardan ruhan uzoqlashtirardi. "Izlab ovora bo'lma", deganlar u uchun ojiz maxluqqa aylanardi. Bu odamlardan fazilat izlashga harakat qilmayoq qo'ygan. Sobiq boshliqni ham shular qatoriga qo'shgan edi. Boshliqning ham odam ekanini, ozgina bo'lsa-da, insoniy fazilatlaridan bahramand ekanini o'ylamasdi. Sobiq boshliq uni yomon ko'rgani bilan taqdiriga befarq qarayolmas edi. Mana, o'zingiz tasavvur qilib ko'ring: siz ham kimnidir yomon ko'rasiz. Ha, ha, yashirmay bo'yingizga olavering. Barchani birday yaxshi ko'rish mumkin emas. Xullas, siz ham kimnidir yomon ko'rasiz. Lekin o'sha odamni o'ldirib ketishsa achinmaysizmi? Achinasiz. Hatto uni yomon ko'rib yurganingiz uchun, salomiga alik olmay qo'yganingiz uchun o'zingizni la'natlaysiz. Agarchi bu fojidan quvonsangiz, "o'ldirib ketishgani yaxshi bo'libdi", desangiz, u holda siz odam emassiz. Shu o'rinda "odam emassiz, hayvonsiz", desam qo'polligim uchun ranjaysiz. Ammo boshqa bir sabab bilan "hayvon" deya olmayman. Buni aytсам, o'sha begunoh jonivorlarni haqoratlagan, balchiqqa bulg'agan bo'laman.

Chekinishni bas qilib, yana depara ichki ishlar bo'limiga qaytaylik. Endi sizga Zohidning tuyg'usi qisman ma'lum. Sobiq boshlig'ining gaplari u qulog'idan kirib, bu qulog'idan chiqmaydi. Bu gaplarni so'nggi nafasda, jon taslim qilayotganida hali eslaydi...

3

Zohid ertalab idorasiga kirmay Sharif Namozov bilan gaplashish uchun shahar turmasiga keldi. Temir to'siqlardan o'tib, tergov xonasiga kirdi. Besh-o'n daqiqadan so'ng eshik ochilib, soqchi ko'rindi-da, mahbus olib kelinganini ma'lum qildi. So'ng qo'llarini orqasiga qilib olgan Namozov kirdi. Uning oyoqlariga kishan urilmagan, lekin qadam bosishi zanjirband mahbuslarnikiday og'ir edi. Ozg'in, siyrak sochlari to'zg'igan bu odamning dumaloq ko'zlari ich-ichiga botgan, qarashlarida esa kishining rahmini uyg'otuvchi iltijo zohir edi. Yelkasidagi dunyo yuki og'irlik qilayotganday bir oz bukchaygan. U yerga mahkamlangan qattiq kursiga o'tirib, boshini xam qildi.

Zohid chekmasa ham yonida sigaret olib yurardi. Mahbusga bir necha nafas tikilib turgach, cho'ntagidan sigaret chiqarib, unga uzatdi.

- Cheking.

Sharif indamay qo'l uzatib, titroq barmoqlari bilan qutidan bitta sigaretni ajratib oldi. Zohid unga gugurt uzatdi. Sharif avval gugurtga, keyin Zohidga qaradi. So'ng sigaretni stol ustiga qo'ydi.

- Uzr, chekmayman.

Chindan ham Sharif chekmas edi. Hozir nima uchun sigaretni olganini o'zi ham bilmadi. Kayfi tarqagan bo'lsa ham u hanuz karaxt edi. Turmaga qanday qilib tushib qolganiga xayron, xayol uni turli ko'chalarga haydardi. Berk ko'chalarning biriga kirib, tentirab, undan chiqardi-da, so'ng yana boshqa berk ko'chaga ro'para bo'lardi. Uning esida qolgani - boshqonga shartta-shartta gapirgani, "fosh qilish qo'limdan keladi!" deb katta ketgani. Boshqon "osmon qo'lingda bo'lsa tashlab yuboraver", dedi. Sharif "endi boshqon bilan yuz ko'rmas bo'ldim", deb o'tirganida, peshinga yaqin xonasiga kirib keldi. Boshqon ishi bo'lsa uni xonasiga chaqirtirardi. Sharif uning kirib kelganini ko'rib "gapim jonidan o'tibdi-da", deb o'yladi. Lekin boshqon, uni hayron qoldirib, bir soat ilgari bo'lib o'tgan noxush suhbatni eslamadi. Yo "sizdan o'tganini men kechirdim, mendan o'tganini siz kechiring" demadi. Kirdiyu:

- Yuring, ketdik, - dedi.

- Qayoqqa? - deb ajablandi Sharif.

- Sattornikiga, bugun otasining yigirmasi.

Sharif bir bahona topib, to'yga bormasa bormasdi, ammo ma'rakalardan qolib bo'ladimi? Shu bois indamay turib, boshqonga ergashdi. Boshqonning mashinasiga yana idoraning ikki xodimi o'tirib, to'rtovlon yo'lga chiqishdi. Ma'raka bo'layotgan ko'chani to'planib turgan behisob mashinalardan ham bilsa bo'lardi. Odamlar ham qator tizilishib, ichkari kirib osh yeb chiqish uchun navbatda turishardi. To'g'ri, ularning maqsadi qorinni to'qlab ketish emas. Niyat - marhum ruhini eslash, xonadon egalarga hamdardlik bildirish. Shunday bo'lsa-da, Sharifga navbatda turish malol kelardi. U o'zicha "obbo", yarim soat turarkanmizda", deb qo'yib mashinadan tushdi-da, odamlar qatorida turib chetga chiqmoqchi edi, boshqon "bu yoqqa yuravering", deb hech qayoqqa qaramay to'g'riga yo'l oldi. Sattor ularni ko'riboq peshvoz chiqib, qo'shqo'llab so'rashdi-da, uyga boshladi. Katta hovlidagi barcha o'rinlar band. Xizmatdagilarning qo'li qo'lga tegmaydi. Boshqon bilan kelganlarni alohida izzat bilan ichkariga, uyga boshlashdi. Keng, naqshinkor uyga ziyofatlardagiday dasturxon yasatig'liq, tashqaridan eshilib turgan tilovat ovozlari demasa, ziyofatga keldik, deb o'ylash ham mumkin edi. Boshqonning o'zi, Sharifni hayron qoldirib, qiroat bilan qur'on tilovat qildi. Choy kirdi, non sindirildi. Sharif "endi osh kirar", deb o'yladi. Ammo yana choy kirdi. Ikkala choynakni olgan idora xodimi boshqonga qaradi:

- Oqidanmi yo qizilidanmi, xo'jayin?

- O'ldirsa ham qizili o'ldirsın.

Sharif "ma'rakalarda ichilyapti", degan gapni eshitgan, ammo o'zi bunga hali guvoh bo'lmagandi. Unga ham quyib uzatishgach, bir ijirg'andi-yu, olmadi. U xudojo'y emasdi. Boshqon kabi tilovat qilish ham qo'lidan kelmas edi. Ammo bunday marosimda ichishdan hazar qilardi. Ko'kragida uyg'ongan bir his nafrat uyg'otar edi. Hozir shu nafrat bilan boshqonga qaradi:

- Bu yog'i o'rischa bo'p ketdi-ku? - dedi.

- Olavering, gunohi mening bo'ynimga, - dedi boshqon. Keyin qo'shib qo'ydi: - Niyat bilan olsa gunohi yo'q. Buning kayfi harom, o'zi halol. Uzunning suvini shu paytgacha birov harom demagan. Sattor "otamning joyi jannatda bo'lsin", deb niyat qilib dasturxon yozgan. Kimda-kim shu niyatiga yetmasin desa, mayli, olmasin.

Sharif shu gapdan keyin ham ichmadi. Keyin shunga o'xshagan gap yana qaytarilgach, uni ham shayton yo'ldan urdi. Go'yo uning aybi bilan marhum do'zax olovida qovurilayotgandek tuyulib, bir-ikki xo'plam ichdi. Keyin esa... So'ng bu "ma'raka"dan chiqib, kimmikigadir ziyofatga kirishdi. Gapdan gap chiqdi. Boshqonga nimadir otgani esida. Keyin... o'zini qamoqda ko'rib "bitta-yarimtani o'ldirib qo'ymadimmi", deb ham o'yladi.

Hozir tergovchi uzatgan sigaretni olganida shu dahshat iskanjasida o'tirgan edi. Shu talvasaga bandi bo'lib, sigaretga qo'l uzatganini o'zi ham sezmad

- Men Zohid Sharipovman. Shahar prokuraturasining tergovchisiman. Aybingizni bilasizmi? - dedi Zohid unga tikilib.

- Yo'-o'q... - Sharif Namozov o'zining ovozi o'zi bazo'r eshitdi.

- Siz qoradorifurushlikda ayblanaysiz. Uyingizdan katta miqdorda qoradori kukuni topilgan. Portfelingizdan ham. Xaltachalarda barmoq izlaringiz bor.

- Nima dedingiz? Qoradori... furushlik? Mening uyimdan... Portfelimdan... - Namozov Zohiddan "adashibman, gunohingiz boshqa" degan gapni kutib, ilinj bilan tikildi. - Siz... adashmayapsizmi? Gunohim boshqadir?

- Yana qanday gunohingiz bo'lishi mumkin?

- Gunohimmi? - Namozov daf'atan javob berolmay chaynaldi. - Masalan... birovni urgandirman... Kayfda bo'ladi-ku?

- Birovni urgan bo'lsangiz, bu ish bilan shahar prokuraturasi shug'ullanmas edi. Adashganimiz yo'q.

Namozov yengil tin oldi. Yelkasidan tog' ag'darilganday bo'ldi. Zohid undagi o'zgarishni sezdi. U Namozov aybnomani darrov rad etadi, isbot talab qiladi, deb o'ylagan edi. Indamay o'tirishiga qarab, "bo'yniga oldimi", deb taajjublandi.

- Nimaga indamayapsiz?

- Men... ochig'ini aytsam, odam o'ldirib qo'yibmanmi, deb qo'rquvdim.

- Qoradorifurushlikni yengilroq jinoyat deb o'ylayapsizmi?

- Sizning tilingizda yengilmi yo og'irimi, bilmayman. Balki unisi uchun ham, bunisi uchun ham otarsizlar. Lekin men uchun odam o'ldirib otildi, degan nomus yomon.

- Qoradori o'nlab yosh jonlarni halok qiladi. Bunisiga nima deysiz?

- Nima derdim, bunga qoradori sotadiganlar javob beraversin.

- Siz-chi?

- Umrimde qilmaganman bunaqa ishni.

- O'zingiz ham iste'mol qilmaganmisiz?

- Nimani? Qoradorinimi? - Namozov bosh chayqadi.

- Qoningiz tekshirilganda tarkibida qoradori topilgan. Siz faqat aroqdan emas, qoradoridan ham mast edingiz.

- Yolg'on.

- Sizga sudmedekspertiza xulosasini ko'rsatamiz. Hozir esa... bilagingizga qarang.

Namozov shoshilib pidjagini yechdi-da, yengini shimarib bilagiga qaradi. Yo'g'on tomir ustida bilinar-bilinmas igna izini ko'rib, Zohidga dahshat nazari bilan qaradi. Uning yumaloq ko'zlari yanada kattalashganday bo'ldi.

- Tamom! - dedi u titroq ovozda.

- Nima tamom! - dedi Zohid tushunmagan odamday.

Namozov boshini egib, xuddi o'zi bilan o'zi gaplashayotganday dedi:

- Men ajal bilan o'ynashgan ekanman... - u boshini ko'tarib Zohidga qaradi. - Mening bo'larim bo'пти. Bola-chaqam omonmi, faqat to'g'risini ayting.

- Xotiningizni ko'rdim. Bolalaringizni...

- Bolalarim oyimnikida edi.

- Siz kimdan qo'rquapsiz?

- Kimdan qo'rquapsiz? Men qo'rqumayman. Qo'rqqanimda bu yerda o'tirmas edim...

Zohid qalin daftar ochib, taomilga ko'ra Namozovni so'roq qila boshladi. Ism-sharifini, tug'ilgan yili, kunini so'radi. Namozov savollarga qisqa, sovuq ohangda javob berar edi.

- Qoradorini sizga kim yetkazib berar edi? - deb so'radi Zohid asosiy maqsadga ko'chib.

- Tanimayman, - dedi Namozov gap ohangini o'zgartirmay. U qamoqqa kimning istagi bilan kelib qolganini anglagan, puxta o'ylangan tuzoqqa tushganini fahmlagan edi. Tuzoqdan qanday qutulishni bilmas edi. Tergovchi ham balki ularning odamidir, degan o'y uni nochor ahvolga solib qo'yan, na ochiq gaplashishni, na o'zini go'llikka solishni bilardi. Qisqa muddat ichida tanlanishi mumkin bo'lgan yagona yo'l - "bilmayman" deb turish. Zohid uning tutgan yo'lini ko'ra bildi. Shuning uchun arqonni uzun tashlab, so'roqni davom ettirdi:

- Mijozlaringizni ayting?

- Tanimayman.

- Qanchadan olib, qanchadan pullaringiz?

- Kilosinimi?

- Aytaylik, kilosini?

Namozov o'ylandi. O'zicha chamaladi.

- Ming so'mdan olib, bir yarim mingdan sotardim.

- Demak, kilosidan besh yuzdan qolarkan-da?

- Ha, shunaqa.

- Ko'pdan beri sotarmidingiz?

- Ko'pdan... uch-to'rt yil bo'ldi.



- Pulni nima qilardingiz?
- Pulnima? Yeb-ichib...
- Meni laqillatmoqchimisiz?
- Savollaringizga to'g'ri javob beryapman-ku?
- Qoradorining kilosi ming so'm ekanmi? Qaysi ahmoq ishonadi bu gapga? Siz ilmdan boshqa narsalarga ham hech aralashganmisiz?

Namozov "ilm" degan so'zni eshitib, xuddi "daftaram uyda qolibdi", deb yolg'on gapirib qo'yib uyalgan boladek boshini egdi.

- Yolg'onni eplagan odam gapirishi kerak, - dedi Zohid achchiqlanib.

"To'g'ri, - deb o'yladi Namozov, - bunga ham iste'dod lozim. Men hatto oddiy yolg'onni ham eplay olmayman. Yolg'ondan qulluq qilsam, yolg'ondan jilmayib qo'ysam... allaqachon akademik bo'lib ketarmidim... Nasiba "bunchayam noshudsiz-a", deb to'g'ri aytadi..."

- Menga to'g'ri gapni ayting. Men qoradorifurushligingizga ishonmayman. Agar "yo'q, chindan ham qoradori sotardim", desangiz, qani, meni ishontiring-chi?

Sharif qotmadan kelgan, qoracha bu yigitga ajablanib qarab, bazo'r kulimsiradi.

- Ishontiring, deysizmi? Men jinoyatchi ekanimga sizni ishontirishim kerakmi? Qiziq-ku?

- Ha, qiziq. Aslida men sizni ishontirib, aybingizni bo'yingizga qo'yib, qamatishim kerak.

- Ayblayvering. Men tonmayman. Boshga tushganni ko'z ko'rar ekan. Bir-ikki yil o'tadi-ketadi. U dunyodan hali hech kim qaytmagan. Qamoqdan esa eson-omon qutulib chiqish mumkin.

- Bir-ikki yil deng'.. - Zohid o'rnidan turdi-da, stolni aylanib o'tib, mahbusning qarshisida to'xtadi. Namozov "urmoqchimi?" degan xavotir bilan qarab, turmoqchi bo'ldi. Zohid uni yelkasiga qo'lini qo'yib, "jilmang" degan ishora qildi. - Bir-ikki yil emas, sayru sayohat uzoqroq davom etsa kerak.

- O'n yil bo'lmaydimi, menga desa.

Zohid achchiqlanib, mahbusni ikki yelkasidan mahkam ushlab bir-ikki siltadi.

- Siz men bilan oldi-sotti qilmang. Bo'ladigan gapni ayting, kimdan qo'rqupsiz?

Sharif uning ko'ziga qarab oldi. Yaqindagina muloyim boqib turgan, ishonch uyg'otishi mumkin bo'lgan nigohda jahl uchqunlarini ko'rib "Endi do'pposlaydi", deb o'yladi. Boshini egib, gardaniga musht tushishini kutdi. Hatto gardani toshday qotib, zirillay boshladi. Musht tushsa, og'riq tarqab, yengil tortadiganday tuyulib, "ursa uraqolmaydimi" deb o'yladi. "Keyin kaltakdan odam o'lmaydi. Odam qatoriga kirib kaltak yesam yebman-da. Bola bo'lib birov bilan mushtlashmabman, birovdan tuzukroq kaltak yemabman. Ana endi, dong'im chet elga chiqib turganida bir befarosat savalasa. Lissabonda hozir mening ta'rifimni keltirib maqtashayotgandir. Bu yerda kaltak yeyayotganimni tasavvur ham qilishmasa kerak..."

Sharif kutganday musht tushmadi. Zohid uni qo'yib yuborib, joyiga qaytdi.

- Siz olim odam ekansiz. Agar zavodda oddiy xizmatchi yoki oddiy ishchi bo'lsangiz, nimadan qo'rqayotganingizga tushunib yetardim. Birga o'g'irlik qilgan sheriklaridan cho'chiyapti, derdim. Hozir joyingizga qaytib, o'ylang.

Eshik ochilib, soqchi kirdi. Mahbus tomon ikki qadam qo'ydi.

- Tur, - dedi sovuq ohangda. Sharif turdi. - Qo'lingni orqaga qil.

Sharif itoat etib, buyruqni bajardi.

"Joyingizga borib, o'ylang" emish, - deb fikr qildi u, qamoqxonaning uzun dahlizidan borar

ekan. - Endi bu yer mening joyim bo'lib qoldimi? Mening joyim... Yomon emas. Lahadga nisbatan shu yer tuzuk. Bolalarim omon bo'lsa bas. "Katta miqdorda qoradori topildi", deydi. Katta miqdori qancha? O'n ming so'mlikmi? Yo ko'proqmi? Shuncha qoradorini uyimga tashlab qo'ygan bo'lsa, bu tergovchilariga ham sarf-xarajat qilishgandir? Agar bu bolaga ham besh-o'n ming so'm berilgan bo'lsa, umumiy hisobda... narxim chakki emas ekan-da? O'n besh, yigirma ming so'mlik odam ekanman-da? Ba'zi birovlarni sariq chaqaga ham olishmaydi. Menga shuncha pul sarflashibdi. Boyvachchalar birovni qamoqdan chiqarish uchun pul sochishardi. Menga kelganda qamoqqa tiqish uchun sarflashdi. O'n besh, yigirma ming ularga pulmi? Bir kunda chiqarib olishadi. Men ularga yoqmay qolgan ekanman, shuncha ovora bo'lib, nayrang ishlatib, pul ketkazib yurmay, shartta o'ldirib yubora qolishsa yaxshi emasmi?

Yo o'ldirish qimmatroq tusharmidi? Be, uch-to'rt yuz so'm bilan tinchitishardi. Bitta alkashni yoki giyohvandni ishga solishsa tamom-da. Lekin qon to'kkilari kelmabdi. Nimaga? Insof qilishdimi? Insofni qayoqdan olishdi? Yo qo'rqishdimi? Kelib-kelib mendan qo'rqishdimi? Yo mening burnimni yerga ishqab, mulla qilishmoqchi bo'lishdimi? "Mulla" bo'lgan taqdirimda ular nima naf ko'rishadi? Baribir endi o'sha zavodga qaytib bormayman-ku?"

- To'xta, devorga yuzlanib tur.

To shu buyruq yangraguncha, kamera eshigi taraqlab ochilguncha mana shu xayollar Sharifga hamroh bo'ldi.

4

Zohid mahbus chiqib ketganidan keyin ham bir necha fursat o'rnidan qo'zg'almadi. Prokuratura tergovchisi bilan jinoyat qidiruv inspektorining ishida katta farq borligini mana shu birinchi qadamidayoq aniq his qildi. Uning nazarida prokuraturadagi ish osonroq tuyulardi. Prokuratura xodimlari uning ko'ziga loqayd to'ralar sifatida ko'rinardi. Uning avvalgi ishi jinoyat iziga tushish, jinoyatchini ushlashdan iborat edi. Qolganini jinoyatning katta-kichigiga qarab yo shahar, yo depara prokuraturasiga o'tkazilardi. Tergovchilar savol-javob qilib ishni sudga oshirishardi. Endi esa sobiq hamkasbi - jinoyat qidiruv inspektori ushlab bergan jinoyatchining taqdiri uning qo'lida. Birinchi jinoyatchi - olim. Yaqindagina olimlik shohsupasi tomon dadil borayotgan, akasi o'limidan so'ng shartta burilib, boshqa yo'lga o'tgan, dam-badam olimlik ko'chalarida xayolan sarsari kezuvchi yigit yangi ishda ilm odamiga yo'liqib tursa! Taqdir uni sinamoqchimi?

Zohid yuragi siqilib, daftarga formulalarni beixtiyor yoza boshladi. Uning odati shu - yuragi siqilsa, kalavanning uchini yo'qotib, garang bo'lsa, beixtiyor ravishda formulalar yozib, yechib chiqara boshlardi. Yod bo'lib ketgan Eynshteyn nazariyalari yoki hisob olamining yechimi mushkul raqamlari daftar sahifalarini to'ldirardi.

U huquq sohasiga buyuk umid bilan o'tgan edi. Adolat tiklamoqni istab edi. Bir dehqonning bolasiga hayotda nima kerak? Kunda bir kosa ovqatga qorni to'ygan, ovqat bo'lmagan taqdirda non-choyga qanoat qilgan, egnidagi kiyimining yengi to'rsagiga kelib, kalta bo'lib qolgunicha yangisini ko'rmas o'sgan bola podsholik taxtini talab qilarmidi? Otasining yonida ketmoniga sig'inib yashagan, rais buva marhamat etgan damda maktabda o'qib, boshqa payt dalada kesak yalagan bola dunyoga taniluvchi olim

bo'lish orzusida yurarmidi? Qarangki, shunday bo'lishi mumkin ekan. Akasi shahardagi oliy o'qishga kirganida Zohid to'qqizinchi sinfda edi. Bir tomondan akasiga havas qilib, yana bir tomondan riyoziyot muallimi qiziqtirib o'qishlari birmuncha yaxshilanib, oqibatda oltin nishonga da'vogar bo'lib qoldi. Dunyoning ajabtovurligini qarang-ki, suvchining o'g'li shunday e'tiborga, ya'ni, da'vogarlikka loyiq ekan. Ammo palovning masallig'i bilan shavla pishirish mumkin bo'lganidek, a'lochi bola oltin nishon olavermaydi. Palovni damlayotganda bir piyola suvni me'yoridan ko'proq quyib yuborsangiz, qo'lbola shavla yeysiz, o'quv davomida mingta "besh" olib, bittagina "to'rt"ga ilinsangiz, oltin nishonni tushingizda ko'rib, a'lochi bola sifatida maktabdan uchirma bo'lasiz. Albatta, bilim bergan muallimlaringizga mingdan-ming rahmatlar aytishni unutmaysiz.

Sizni bilmayman-u, ammo Zohidning boshiga shunday savdo tushgan. Peshonasiga "jamiyatshunoslik" degan fandan bitta "to'rt" olish yozilgan ekan, nima qilsin bechora. Riyoziyot muallimi bir yondan, akasi bir yondan targ'ib qilib, uni Maskovdagi oliy o'qishga borishga ko'ndirishdi. Shu munosabat bilan otasi bitta sigirni sotadigan bo'ldi. "Ikkita sigirni boqish azobidan qutulaman. Bir oilaga bitta sigir yetadi-da, kuzga borib tug'ib bersa, yana ikkita-da..." dedi otasi. Otasi ko'p alomat odam-da. Xudo uni yaratishga yaratib, so'ng unutilib qo'lyanmi, har holda shundaygina yaralganicha qolavergan - ustomonlik, hiyla, makr, yolg'on degan ne'matlardan bebahra yuravergan. Yo'qsa, bitta sigirning puli bilan o'g'lim katta o'qishga kirib, katta odam bo'lib ketadi, deb o'ylarmidi. Televizorni dastlab ko'rgan mahalda g'uncha labli qizga ko'z qisib, imlab qo'yib bir hafta o'zicha xursand bo'lib yurgan odamning o'g'li voyaga yetib Maskovday joyda o'qir ekanu sigirdan voz kechishi nima ekan?..

Ham tijorat, ham sayohat deganlariday, riyoziyot muallimi ham borgan edi Maskovga. Yozma imtihondan "uch" olgach, tarvuzlari qo'ltiqlaridan tushdi. Zohid masalani yod qilib olgan edi, muallimiga yozib ko'rsatdi - to'g'ri chiqdi. Muallim imtihon oluvchilar bilan bahslashdi. Foyda bermadi. Og'zaki imtihonni "to'rt" bahoga topshirib, rus tilidan "ikki" oldiyu "sigirning joni shularga xudoyi bo'ldi-da", deb qaytishdi. Ular "Toshkent o'qishxonalarida poraxo'rlik kuchli, Maskovda insof bor", degan umidni, o'yni o'sha yoqning o'ziga ko'mib kelaverishdi. Zohid ketmonni yelkasiga tashlab, otasi bilan dalaga chiqdi.

Kolxozda o'n besh kun ozodlik e'lon qilinib, kuniga to'rt-beshadan to'y o'tayotgan kunlarda qishloqqa tepakal bir o'ris jingalak sochlari oqarib ketgan bir o'zbek bilan birga kelib, Zohidni surishtirdi. Zohid uni tanidi: Maskovda og'zaki imtihonni shu odamga topshirgan edi. Uning muallim ekanini bilardi, biroq, riyoziyot bo'yicha yetuk mutaxassis ekanidan bexabar edi. Jingalak sochlari oqargan o'zbekni esa Zohid tanimadi.

- Yozma imtihondagi masalani men tuzgan edim. Uning ikkita yechimi bor edi. Sen yechimning uchinchi yo'lini topgan ekansan. Keyin fikrlasam, sen topgan yo'l ma'qulroq ekan. Sen kelgusi yili Moskvaga albatta borishing kerak. Mana, Habib Sattorovich sendan xabar olib turadilar. Bu kishi mening shogirdim. Sen menga kenja shogird bo'lasan.

Zohid bundan behad xursand edi. Go'yo oliy bilimgo'hnini bitirib kelganday quvongandi. Biroq, muallimi tushmagur ishni buzdi.

- Zohid endi Maskovga bormaydi, o'rtoq professor. Bilimgohingizda O'zbekiston uchun nechta o'rin ajratilgan? - deb so'radi. - Bittami? Bu yil kim kirdi? Sizga yolg'on, menga chin - ministrning o'g'li kirdi. Karra jadvalni biladimi yo yo'qmi, menga qorong'i. Lekin u imtihonlarni "besh"ga topshirdi. Siz tuzgan masalani ham zo'r qilib yechib bergandir. O'zbekistonda ministr deganlari ko'p, ularning bolalari ko'p. Har yili bittadan sigir sotishga bizning qurbimiz yetmaydi. Kambag'alning bolasi qadimda ham o'qiyolmagan, hozir ham o'qiyolmaydi. Katta olimlar, katta odamlar tarjimai holida kambag'aldan chiqqanman, yetimxonada o'sganman, deb yozishadi. Bari yolg'on! Hammasi boyning bolalari. Hammasi otasining oltinlari tufayli o'qib odam bo'lgan! Muallimning bu gaplari Zohidning otasiga ma'qul kelib, "o'g'lim Maskovda o'qisin" degan umididan voz kechdi.

Ketmonini tinchgina chopib yurganida, kelgusi yoz boshlarida Habib Sattorovich degan odam yana kelib, eski gapni qo'zg'adi. Uzoq davom etgan muzokaralardan so'ng tomonlar sulhga kelishdilar - Zohid Maskovda emas, Toshkentda o'qishga rozi bo'ldi. "Mayli, oliy ma'lumotni Toshkentda olsin, biroq, aspiranturani albatta Moskvada o'qiydi", dedi Habib Sattorovich. O'qishning ikkinchi yiliyoq, Zohid olimlar nazariga tushdi. Uning imkoniyatlari, kelajagi haqida umidli gaplar boshlangandi. Biroq, akasining o'limi, tergovchilar, hakamlarning nomardligi barcha imkoniyatu umidni parchalab tashladi. Zohidning yelkasiga bir shayton minib olib "bu o'qishni tashlaysan, huquq ilmini olasan, bu ablahlarga qarshi kurashasan, adolatni tiklaysan, bechoralarga suyanchiq bo'lasan", deb ming'irlyaverdi. Zohid bu gaplarga ko'ndi. To'ng'ich o'g'li dardida qaddi bukilgan otaga ham shu fikr ma'qul keldi.

Mana, oradan yillar o'tib, riyoziyotchilar umid bilan qaragan yigit shahar turmasining so'roqxonasida yolg'iz o'tirib, raqamlarga raqamlar ulayapti: qo'shuv, bo'luv, oluv, so'ng ildiz ostidagi raqamlar... Bularni yechish unga cho't emas. Ammo adolat formulasiga tishi o'tmayapti. Ne-ne allomayu donishmandlar yecha olmagan masalaga uning qurbi yetarmikin?

### III bob

1

Shahar markazidagi e'tiborli idoraning yerto'lasida videobar ochishdi. Yerto'laga imoratning biqinidan tushiladi. U ochilmasidan ilgari yerto'lada idoraning eski-tuskilari saqlanardi. Ikki yil muqaddam idora yerto'lani ta'mirlash uchun katta miqdorda mablag' ajratdi. Ayrim mahkamalar eshiklarini bo'yatish uchun pul topolmay sarson yurganida bu idoraga ikki yuz ming so'm ajratilishi hukumatning xotamtoyligimi yoinki idoraning erkalgimi, bilib bo'lmadi. Qayta qurish degan narsa bilan bog'liq voqealar shunchalar shiddatli edi-ki, "xalq arang tirikchilik qilayotganida yerto'lani ta'mirlashga balo bormi" deydigan odam topilmadi. Zimdan qaraganda xalq g'amini chekib yuruvchi bu idora xodimlari ham go'yo oyoqlari ostida nimalar sodir bo'layotganidan bexabar edilar. Yerto'la ta'mir etilib, Asadbek ixtiyoriga o'tgach ham "xalq fidoyilari"da ajablanish uyg'otmadi. Ular olamshumul ishlar bilan - xalqqa ozodlik berish o'yi bilan band edilar. Oyoqlari ostida nimalar bo'layotgani esa ularni qiziqtirmasdi.

Asadbekning qarorgohi uchun joy lozim ekan, tuzukroq imoratga qahat kelibdimi? Ayniqsa idoralar soni qisqarayotgan damda biron imoratni ijaraga olishdan osonroq ish yo'q. Shahar ijroqo'mining rahbarlaridan biri bu yumush bilan shaxsan shug'ullanib, Asadbekning yangi idorasi uchun ko'p joylarni tavsiya etdi. Asadbek barcha qulayliklarga ega imoratlardan voz kechib, shu yerto'lani tanladi. Yerto'laga imorat ichidan yo'l bor edi. Asadbek ixtiyori bilan imorat biqini kavlanib, zinapoya qilindi, qalin poydevor teshilib, eshik ochildi. Yerto'laga ikki tomondan kirib-chiqish imkoni tug'ildi - shunisi bexavotirroqda. Davlat ajratgan ikki yuz ming so'm bilan bir ishning uddasidan chiqish mushkul. Asadbekning besh yuz ming so'mi xarob yerto'lani o'n ikki xonalik shinam saroychaga aylantirdi. Uning bir xonasi videobar, qolganlari ish yuritishga, hordiq chiqarishga mo'ljallangan edi. Maishatxona, hatto hammom ham nazardan chetda qolmadi.

Yuqorida xalqparvarlar majlisdan bo'shamay tomoq yirtishadi. Pastda esa Asadbek o'z ishini yuritadi. Hammaning nazari yuqorida. Past bilan bironing ishi yo'q. Videobarda choy, qahva, sharbatdan bo'lak ichimlik yo'q. Ochilganidan beri biron marta ham xorij filmini ko'rsatmadi. Bisotida uch-to'rt multfilm, eski hind filmlari, Sheralining, Gulomning kontsertlari... Bu yerga

kunda beshta odam kirsa kiradi, bo'lmasa yo'q. Bular - kunduzning manzarasi.

Tunda videobar o'zgacha manzara kasb etadi. Soat o'n birlarga yaqin imorat oldida ikkita militsioner paydo bo'ladi. So'ng oppoq "Volga"lar bir daqiqaga to'xtab o'tishadi. Undan tushgan sipo odamlar atrofga alanglab olib, yerto'laga sho'ng'ishadi. Majislardan xorigan xalqparvarlarning yetakchilari ko'cha tomondan emas, ichkaridagi zinadan tushib boradilar. Tun hukmi zaptiga olganida oq "Volga"lar yana birin-sirin paydo bo'ladiyu egalarini olib jo'naydi. Shundan keyin militsionerlar ham g'oyib bo'lishadi. Tongga yaqin usti berk yuk mashinasi idora orqasidagi darvozadan hovliga kiradi. Bo'sh shishalarni ortib jo'naydi. Uning izidan "RAF" kelib to'xtaydi. Biri biridan shirin qizlar mashinaga ildam chiqib o'tirishadi. Soatga qaragan kishi yuk mashinasining uch, "RAF"ning bir daqiqada ish bitirib jo'naganiga guvoh bo'ladi.

Idorada qorovullik qiluvchi yosh, chapdast yigitlar barcha ishni vaqtida, aniq bajarilishini ta'minlaydilar. Qayta qurish sharofati bilan barcha idoralardagi kekxa xodimlar o'rnini iqtidorli yoshlar egallaganidek, pensiya puli tirikchiligiga yetmay, shu qorovullik maoshiga ko'z tikuvchi qariyalar tantana bilan kuzatilib, ular o'rniga tog'ni bexosdan urib talqon qilib yubormasliklari uchun kamtarinroq ishni istagan yigitlarni olishdi. Bu yigitlar idoraga kiruvchi har bir kimsaga salom berguchi, bag'oyat odobli ham edilar.

Asadbek har uch yilda qarorgohini o'zgartirardi. Dastlab guruhboshi bo'lib ish boshlaganida Eski Jo'vadagi pastqam uyni ijaraga olgan edi. Vassajuft, qorasuvoq uyda tuni bilan aroq ichib, chekib chiqilardi. Lekin ertasiga bu uyga kirgan odamning dimog'iga qo'lansa hid urilmasdi. Shuning uchun ham Asadbek o'sha dastlabki qarorgohini ko'proq yoqtirardi. Oradan yillar o'tib, qarorgohlarini ko'p o'zgartirdi. Mana bu yangisi xon saroyidek bezaldi. Lekin ko'ngil qurg'ur baribir o'sha qorasuvoq uyni qo'msab qoladi.

2

Yangi yil kutish bahonasida tunni bedor o'tkazgan shahar tongni ko'zda uyqu bilan kutib oldi. Kimdir tuni bilan televizor ko'rib, kimdir ulfatlari bilan to'yib ichib, kimdir jononlar bilan to'yib maishat qilib, endi hordiq chiqarar edi. Bunday bayramlar Asadbekning odamlari uchun harom, u bayram kunlari yayrashni, maishat qilishni qat'iyon ta'qiqilaydi. Uning nazarida aynan shunday kunda qopqonga tushib qolish mumkin. Odamlari bunga ko'nikib ketgan. Asadbek vaziyat va imkoniyatga qarab e'lon qilgan bayram kunlari yayrab olishadi.

Yangi yilning birinchi kuni shahar uyqudan turmay, videobar eshiklarini ochdi. Boshqa kunlardan farqli o'laroq, bu tun videobar ishlamadi. Oq "Volga"lar ham to'xtab o'tmadi.

Videobar og'asi, chaqchaygan ko'zlaridan biron-bir ma'no uqish mushkul bo'lgan, qalin mo'ylovi turtib chiqqan tumshug'iga husn berish o'rniga battar xunuklashtirgan barzangi yigit xorijning qizil duxoba qoplangan yumshoq kursisiga yastanib olgan edi. U go'yo teleekrandagi multfilmni tomosha qilar, xayoli esa yon kursida o'tirgan, bashang kiyingan, ko'zlarida sarosima suzayotgan odamda - vino zavodi boshqoni Qilich Sulaymonovda edi.

Boshqon sahar chog'i videobar eshigi ochilishi bilan paydo bo'ldi. Videobar og'asi ham, peshtaxtani artayotgan xushbichim qiz ham unga "nima uchun keldingiz?" demadi. O'n sakkizni qoralagan xushbichim qiz vazifasini aniq biladi: choy, qahva qaynatish, kelgan-ketganlarga e'tibor bermaslik, videobar egasi imo qilgan odamga qarab shirin jilmayib qo'yish. Videobar og'asi ham vazifasini aniq biladi: salom-alikni joyiga qo'yish, kelgan odamlarning, tanishmi yo notanishmi baribir, harakatini sinchiklab kuzatish, ortiqcha gaplashmaslik, savol bermaslik. Ana shu vazifasiga amal qilgani uchun ham, Qilichni yaxshi tanisa-da, salom-alikdan nariga o'tmadi. So'fi tahorat qilishga ulgurmay bu odam yetib kelibdimi, demak, sababi bor. Demak, a'yonlar, so'ng xo'jayin ham keladilar. U ichkarini tayyorlab qo'ygan. Bundan ko'ngli to'q. Videobar yangi yil kechasida tashqaridan zulfinganday ko'rinsa-da, ichkarida harakat to'xtamagan edi. To'rtta telefon qo'yilgan xonadagi ikki qiz, peshtaxta ortidagi xushbichim qiz go'yo xuru g'ilmon singari videobar egasiga bir kechalik jannatni berishgan, bazm qurishgan edi. Tongga yaqin bazm eng shirin yerida barham topgan, xonalar sarishta qilib qo'yilgan edi. Bazm isi xo'jayin dimog'iga yetib borsa, qay kunlarga tushishlarini bilishsa-da, bu tun shayton yo'rig'idan chiqisholmagandi. Ularga birov kelib "bu gunohingiz yaratganga ma'qulmas, endi jazolaydi", desa "tavba qilamiz, xudo kechiradi", deyishlari mumkin. Ammo "Asadbek bu ishingizdan xabar topdi" desa, yuraklari yorilib o'lishlari hech gap emas. Chunki Asadbekning kechirmasligini barchalari bilishadi. Bila turib o'zlarini tiyisholmadi. Nima qilishsin, tirik jon...

Qilich ikkinchi piyoladagi choyni ichib ulgurmay eshik ochilib, jussasi kichik, eti ustixoniga yopishgan, qaldirg'och mo'ylabi o'ziga yarashgan odam ko'rindi. Bu odamni yaxshilab tanib oling: Haydar Asrorov, laqabi Kesak polvon. Asadbekning o'ng qo'l a'yon. Ozg'in, chayir bo'lgani uchun Kesak polvon, deb atashgandir, desangiz yanglishasiz. Har bir jamoaning ichki tartibi, rasm-rusumi bo'lganidek, bu olamning ham o'ziga yarasha qonun-qoidasi bor. Shulardan biri - bu olamga qadam qo'ygan har bir tirik jonga laqab beriladi. Laqab osmondan olinmaydi, balki xatti-harakati, fe'liga qarab topiladi. Jussasiga qarab tanlanganida Haydar Kesak emas, Toshpolvon yoki Temir polvon bo'lishi kerak. Uning panjalarini Xudo suyakdan emas, temirdan yaratgan. Garchi sigir yilida tug'ilgan bo'lsa-da, Asadbek hazillashib buning muchali mushuk, deydi. Bunga sabab, yoshlik chog'larida, hali "karate", "ushu" degan gaplar yo'q paytida Kesak polvon mushtlashguday bo'lsa mushukday sapchib, uch-to'rt davangirga bas kela olardi. Kesak polvon anchadan beri o'zi mushtlashmaydi. Yonida birgina imosiga mahtal bo'lib turgan o'zi singari chayir yigitlari bor.

Kesakpolvon xonaga kirib, Qilich bilan so'rashib olgunicha bir-ikkita daqiqa vaqt o'tadi. Salom-alik chog'ida e'tiborga molik gap-so'z bo'lmagani uchun, vaqtdan foydalanib Haydarga Kesak polvon laqabi berilishining tarixini bayon qilay:

Bu voqea ellik sakkizinchi yilda bo'lib o'tgan edi. Haydar Asadbek bilan yangi tanishgan kunlar. Ertalab ko'proq temir yo'l bekati atrofida "ov" qilar edi. Poezdada kelgan odamlarni zimdan kuzatib, puli bor, deb gumon qilinganlarining izidan tushardi. Bir kuni Haydar Namangandan kelgan ikki odamni mo'ljalga oldi. Yaktagi ustidan qo'shbelbog' bog'lagan o'rta yashar kishi uning e'tiborini tortdi. Ikkala odamning qo'lida arziqli yuk yo'q, belbog' esa do'mpayib turibdi. Demak, bular bozorga meva-cheva olib keluvchi dehqonlardan emas. Pulni belboqqa bog'lab to'y-po'y tashvishi bilan shaharga tushishgan. Haydar bunaqa odamlarning fe'lini biladi. Pulni yo mahsi qo'njiga yo belboqqa yashirishadi. Ko'pchilik belbog'ni ma'qul ko'radi: pul belga darmon, deyishsa kerak-da. Haydarning "mijoz"lari, aksiga olganday, tramvayga chiqishmadi. U yoqqa tentirab, bu yoqqa galdirab, uch vagonli tramvaylar bemalol bo'lib qoldi. Endi ishni tramvayda eplashtirishning hech iloji yo'q edi. Haydar ularning iziga tushib, Oloy bozoriga qadar bordi. Lozim bo'lganida himoya qilish maqsadida Asadbek unga soyadek ergashdi. Cho'ntak, belbog' kesishga Haydardan o'tadigani yo'q edi. Xullas, belbog' kesildi. Kesishga kesdiyu og'irligidan hayron bo'ldi. Panaroqqa o'tib qarasaki, belbog'da sariq chaqa ham yo'q - besh-oltita kesak hafsala bilan terib qo'yilgan. Haydar "bu qishloqi ko'zni shamg'alat qilmoqchi

ekan", deb o'yladi. Aslida shaharni bir tomosha qilib kelay, deb yo'lga otlangan bu dehqon "tahoratga kesak topiladimi yo'qmi" deb har ehtimolga qarshi belbog'iga tugib olgan edi. O'shanda alamdanda bo'zarib turgan Haydarga qarab turib Asadbek rosa kuldi. Laqab ham o'shanda tug'ildi. Ikki oshna bu voqeani tez-tez eslab, miriqib kulishadi.

Kesakpolvon Qilich bilan omonlasha turib, peshtaxta ortidagi xushbichim qizga qarab oldi. Qiz unga shirin jilmaydi. Videobar egasi bu qarashning ma'nosini darrov ilg'adi.

- Okaxon, gap yo'q, shkalad yeganday bo'lasiz, - dedi qo'lini ko'ksiga qo'yib.

Haydar ichkari kirib ketgach, xuddi kelishib olinganday Ehsonov paydo bo'ldi.

"Chuvrindi" degan laqab barvasta, yuzlari hamisha qip-qizil, ovozi temir jarangiday bu odamga uncha mos kelmaydi. Yoshligida olgan bu laqabiga ko'nikib ketgan. Asadbek bilan Haydar Andijondan kelgan o'n uch yoshli chuvrindi bu bolani oltmishinchi yilda qanotlariga olib yanglishmagan edilar. Kamgap, sermulohaza, urishganda esa otasini ham tanimaydigan beayov edi bu Chuvrindi. Haydar biron-bir masala xususida fikr yuritilganda tez, ammo sayozroq xulosa chiqarardi. Mahmud esa aksincha edi. Asadbek shuning uchun ham ko'proq Mahmudga suyanardi.

A'yonlar ichkariga kirib ketishgach, oradan yarim soat o'tib, telefon jiringladi. Qiz go'shakni qulog'iga tutib, videobar og'asiga ko'z tikdi.

- Xo'jayin kelmas ekanlar. Begavotga ketibdilar, - dedi aybdor odamning ovozi bilan.

Bu gapni eshitgan Qilich "ketaversammikin?" deganday videobar og'asiga qaradi. Yigit qizning xabariga ham, Qilichning savol-nazariga ham e'tibor bermadi. Chunki bu xabarning siri xushbichim qizga va Qilichga noma'lum, videobar og'asiga esa oyday ravshan edi. "Xo'jayin kelolmaydilar" deb qo'ng'iroq qilindimi, demak, Asadbek yarim soatlardan keyin paydo bo'ladi. Hozir ichkari xonaga o'rnatilgan to'rttala telefon ham jiringlab shunday xabar eshitilgan. Asadbek, ko'ngli notinch mahallarda ana shunday nayrang ishlatib turardi. Birontasi izimga tushsa, poylab turgan bo'lsa chalg'iydi, deb shu usulni qo'llaydi. Bu nayrang faqat eng ishonchli odamlargagina ma'lum. Asadbekning belgilangan joyga, belgilangan soatda kelmasligi, yo yarim soat avval, yo keyin paydo bo'lishi ham unga ayon.

Videobar og'asi beparvo bo'lgani uchun Qilich ham noiloj multfilmga tikilib o'tiraverdi. Yarim soatda yuragi siqilib, joni halqumiga keldi. Oxiri chiday olmas:

- Men ketaveraymi? - deb so'radi.

- Okaxon, o'tiribmiza-de chaqchaqlashi-ib... Choydan oling. Bugun oddix bo'lsa, shoshib qayoqqayam borasiz. Hozir Sherni qo'yib beraman. Bir mazza qiling, - u shunday deb xushbichim qizga qaradi. Teleekran piri-pirab o'chdi. Dam o'tmay piri-pirab yorishib, torini qo'ltiqib olib qo'shiq aytayotgan Sherali ko'rindi. Sherali uchinchi ashulani aytayotganda Asadbek keldi. Salomga alik oldiyu hol-ahvol so'rashmasdan, indamay o'tib ketdi. Videobar egasi Qilichga "Okaxon, ahvolingiz chatoq, xo'jayinning fe'li aynigan", deganday qarab qo'ydi. Qilich befahm odamlardan emas, Asadbekning rangi-ro'yiga qarab, ahvoli yomonligini o'zi ham bildi.

Asadbek keng xonaga kirib a'yonlari bilan salomlashgach, o'rtada turib atrofga sinchiklab qaradi. U ichmas ham, chekmas ham edi. Shundanmi, dimog'i har qanday isni ilg'ab, ajrata olardi. Haydar ham, Mahmud ham yarim soatdan mo'lroq vaqt shu xonada o'tirib hech nimani sezishmagan edi. Asadbek xonani ko'zdan kechirgach:

- Bo'tqa! - deb baqirdi.

Bo'tqa - videobar egasi Kenjaning laqabi. U Asadbek kirib ketgach, joyiga borib o'tirmay, eshik og'zida turgan edi. Xo'jayinning qahrli ovozi eshitgach, shoshilib kirdi.

- Labbay, okaxon, - dedi qo'l qovushtirib.

Asadbek hech narsa demay teskari shapaloq tortib yubordi. Og'iz-burni aralash tushgan kutilmagan zarbdan Bo'tqa muvozanatini yo'qotib yiqilay dedi. Bir urishda odamning jonini sug'urib oladigan bu yigit gavdasini rostlab, "xo'jayin, yana uring, mazza qildim" deganday qo'l qovushtirib, boshini egdi.

- Shu yerni ham harom qildingmi, hayvon! - dedi Asadbek unga qaramay. Bo'tqa xo'jayin tikilib turgan nuqtaga qarab, joni chiqib ketguday bo'ldi. Kechasi maishat qilib, xonama-xona izg'ishganda gangib bu xonaga ham kirgan, chordon qurib o'tirib, yalang'och qizlarni o'ynatgan edi. Xonaga kirganida qo'lida piyola bor edi. Konyakni ichib bo'shagan piyolani stol tagiga qo'yganicha unutgan ekan. Xo'jayin kira solib, shuni ham ko'ribdi. Bo'tqa shoshilib piyolani oldi-da, chiqib ketdi.

Asadbek o'z o'rniga o'tmay divanga, Chuvrindining yoniga o'tirdi.

- Bularni bichib qo'yishim qoldi, - dedi o'ziga o'zi gapirganday.

Haydar ham, Mahmud ham Asadbekning qizi topilganini, uyga qay holda kirib kelganini bilardi. Lekin "qizingiz topilibdi, endi nima qilamiz", deb so'rashmadi. Uzoq yillar birga bo'lib, Asadbekning ko'ziga qaraboq niyatini fahmlab oluvchi bu a'yonlar shu vaqt mobaynida sabrga ham o'rgangan edilar. Ular Asadbekdan oldin gap boshlamasdilar.

- Anavi to'nkani nima qilamiz? - dedi Asadbek, jahldan tushib.

Gap vino zavodi boshqoni Qilich Sulaymonov xususida edi.

- O'tgan kuni Xosilboyvachcha bilan uchrashgan, - dedi Kesakpolvon.

- Besh kun avval ham uchrashgan edi, - deb eslatdi Chuvrindi.

- Topgan odamini qara, - dedi Asadbek...

- Tinchitib qo'ya qolish kerak, - dedi Kesakpolvon.

Asadbek Chuvrindiga qaradi. Agar u "ha" deb qo'ysa, masala ancha oydinlashardi. Asadbek boshqa fikrda edi, Chuvrindidan shu fikrini qo'llovchi, hech bo'lmasa yaqin keluvchi gap kutdi.

- O'zi pishirgan sho'rvani o'zi ichsin, - dedi Chuvrindi. Bu gapdan Asadbek ko'ngliga ravshanlik kirdi.

- To'g'ri, chaqir uni, - dedi.

Uchovlon yig'ilib, yonlarida boshqa odam bo'lmasa, dastyorlik vazifasi Chuvrindiga yuklanar edi. Hozir ham bu buyruqni malol olmay o'rnidan turdi. Uning eshikni ochib ko'rinish berishyoq Qilichga vahm sochdi. "Taqdirimni birpasda hal qilishdimi?" degan xavotir bilan katta xonaga kirdi. Hozir u zavod boshqoni, shaharning manaman degan boyiga o'xshamas, balki bir to'p och mushuklarga ro'para bo'lgan bechora sichqon ahvolidagi edi. "Puling bo'lsa, changalda sho'rva" deyishadi. Puli ko'p odam balki sho'rvani chindan ham changalida ushlab turishi mumkindir. Ammo o'z jonini ushlab qola olarmikin? Har kuni o'nlab odamlarning ta'zimiga bepisand qarovchi Qilich, "senga rahbarman" deb po'pisa qiluvchilarning ovozi besh-o'n so'm pul bilan o'chirib qo'ya oluvchi boshqon ishtonini bexos xo'l qilib qo'ygan boladek shalvirab qoldi.

Asadbek xonaga ikki qadam qo'yib, to'xtab qolgan boshqonga tikildi. Chetdan qaragan kishiga Qilich ham, Asadbek ham qotib

qolgan haykalday tuyulishi mumkin edi. Faqat Qilichbek ko'zlarini pirpiratib haykal emas, tirik jon ekanidan dalolat berib turar edi. Asadbekning nigohi ilon avrovchisiniki singari o'tkir edi. Shunday tikilganda hatto Haydar bilan Mahmud ham ba'zan kalovlanib qolishardi. Mana shu nigohning o'zi yuz darra tushirishdan afzalroq edi. Chunki bunday qarashning oqibati dahshatliroq hukm bilan yakunlanishi Asadbekning fe'lini bilganlar uchun sir emasdi.

- Bu yoqqa o'tiring, o'g'il bola.

Asadbek kinoya bilan shunday degandan keyin ham, to Qilichbek ro'paradagi yumshoq kursiga o'tirguncha ham nigohini uzmadi.

- Eshitdinglarmi, bu akamiz shaharga hokim bo'libdilar? - dedi Asadbek. Garchi uning savoli a'yonlariga qaratilgan bo'lsa-da, ko'zi hanuz Qilichda edi. - Yo men xato eshitdimmi? Balki dunyoga hokimdirsiz, a?

Qilich Asadbekka tik qarayolmay, madad istab a'yonlarga boqdi.

Shu paytgacha ular orasida bunday ohangda gap-so'z bo'lmagan edi. Asadbek biron narsadan ranjisa odamlari orqali ma'lum

qilardi. O'zi mayda-chuyda gaplarga aralashmasdi. Qilich zavoddagi ishni yuritishda, ishga odam olish yoki bo'shatishda Asadbek chizgan chiziqdan chetga chiqmas edi. Bosh muhandis qamalgan kuni chopar kelib "xo'jayin xafalar" dedi-yu, uning oromini oldi.

U Sharifning yuqori lavozimga noloyiq ekani, ishni buzayotganini aytib ogohlantirgan edi. So'nggi suhbatda Asadbekning o'zi "yo'lini qiling" deb edi. U yo'lini topdi. Endi xo'jayin nima sababdan ranjiydi?

- Asadbek aka, gunohim nima, ayting? - dedi Qilich.

- Gapini qara-ya! Gunohini bilmasmish, - dedi Asadbek tizzasiga shap etib urib. - Sharifni nima qilding?

- O'zingiz aytdingiz... yo'lini top, dedingiz. Ishlarimizdan hid olib, ochaman, devdi.

- Ochsa nima?! Kimga ochadi? Kim kelib seni kishanga soladi? Pul topishni bilgan, aql topishni ham bilish kerak! Qamatishga sarflaganingning yarmisini o'ziga bermaysanmi.

- Pul olmaydigan qaysar eshshak-ku, u?

- U olmaydigan eshshak bo'lsa, sen pul berishni eplolmaydigan molsan! Pul olmaydigan odam yo'q bu dunyoda, pul berolmaydigan lapashanglar bor. Bilib qo'y, uch kunga qolmay Sharif uyda bo'lishi kerak.

Qilich Sharifning ishi yosh bir yigit qo'lida ekanini bilardi. Shahar prokuraturasida so'zini ikki qilmaydiganlar ham bor. Shu sababli Asadbekning buyrug'idan cho'chimadi. "Shu ham ishmi!" deb yengil tortdi.

- O'zing o'rniga borib o'tirsang ham chiqarasan, - dedi Asadbek yanada qat'iyroq ohangda.

"Buncha vahima qiladi bu", deb o'yladi Qilich. Lekin bu gapni tiliga chiqarmay "Xo'p" deb qo'ya qoldi. U osongina qutuldim, deb o'rnidan turmoqchi edi, Asadbekning gapini joyiga qayta mixladi-qo'ydi:

- Hosilboyvachchaga salom aytib qo'y.

"Bilibdimi?!" Osongina qutuldim deb o'ylagan Qilichning yuziga endi qizillik yugura boshlagan edi. Bu gapdan keyin rangi quv o'chib, murdadan farqi qolmadi.

- Hosilboyvachchaga aytib qo'y: senikini artguncha, o'zinikini eplasin. Kelib-kelib o'shandan panoh izladingmi, e, so'tak!

- Men... panoh izlamadim... boshqa ish bilan borgan edim.

- Qanaqa ish? - Asadbek shunday deb o'rnidan turdi. Savol berishga berib qo'yib, javob kutmadi. Stol tomonga o'tib, g'aladondan kattaligi sigaret qutisiday keladigan magnitofon olib jajji tugmasini bosdi.

"Iltimosingizni bajardim, ora ochiq endi" - bu Hosilboyvachchanning ovozi edi.

"Uning qamalganini bilib Asadbek quturibdi". Qilich o'z ovozi eshitib o'rnidan turib ketdi. Asadbek ham, a'yonlar ham uning harakatiga parvo qilishmadi.

"Biz faqat olimvachchani yo'qotishga kelishgan edik. Bu yog'iga o'zingiz balogardonsiz".

"Shu ish bahona bo'lib Asadbekni yo'qotish kerak! Bu shaharga xo'jayinlik qilish faqat sizga yarashadi..."

Bu gapdan keyin oraga sukut cho'kdi. Qilichning ko'z oldiga miyig'ida kulimsirab turgan Hosilboyvachcha keldi. Asadbekning qanotida yurgan odamdan bunday gapni eshitish Hosilboyvachcha uchun tushunarsiz, zavod boshqoni chin dildan aytyaptimi yo ig'vo boshlayaptimi - unga qorong'i edi. Shahardagi ikki qo'chqorning biri Hosilboyvachcha sanalsa-da, kuch Asadbek tomonda ekani barchaga ma'lum edi. Ikki qo'chqor ko'prik ustida uchrashsa, birining qulashi tayin. Bu haqiqat har ikkisiga oydin bo'lgani uchun kalla qo'yishga shoshilishmaydi. Ikki qo'chqor orasida kelishuv borligi juda oz odamga ma'lum. Qilich nodonlik qilganini, bularning tili bir ekanini anglab yetdi. Endi magnitofondan chiqayotgan ovozlarning uning qulog'iga kirmadi. Xayoliga asta-sekin o'rmalab kirib portlagan, "O'ldiradi!" degan vahimali fikr tanasidagi jonni quvib chiqarganday edi. Kesakpolvon g'azabdan jo'shib, sapchib turib tumshug'iga musht tushirdi-yu, uning tanasiga jon qaytdi. Yiqilib yotgan yerida avval dumbasidan so'ng belidan bir-ikki tepki yegach, xayoli yanada ravshanlashdi.

Chuvrindi Kesakpolvonni qo'lidan ushlab ajratib qo'ygach, Qilich o'rnidan turdi. Cho'ntagidan ro'molchasini chiqarib, burnidan oqayotgan qonni artdi. "Endi o'ldirishadi. Meni bu yerga ajal haydab kelgan ekan,- deb o'yladi u. - Bitta boshga bitta o'lim. O'zim ahmoqman. Bularning baribir go'r ekaniga aqlim yetmabdi. O'zimni o'ldirishsa mayli, bolalarimga tegishmasa bo'lgani..." U o'lim oldida so'nggi gapimni aytib olay, degan maqsadda "Bolalarim..." deb so'z boshlamoqchi edi, g'o'diranishdan nariga o'tmadi.

Kesakpolvonning bir zarbidan singan tilla tishlari gapirtirmadi.

- Senga ijozat, - dedi Asadbek, yumshoq ohangda o'tib. - Aytilgan ishni qil. Sharifning o'rnini sovutma.

Qilich "xato eshitmadimmi?" degan ajablanish bilan Asadbekka boqdi. Asadbek yumshoqroq ohangda gapirgan bo'lsa-da, qarashi o'sha-o'sha o'tkir, sovuq edi. "Sharifning o'rnini sovutma, deb nimani nazarda tutdi? Vazifasiga tiklab qo'y, dedimi yo qamoqdagi o'rnini sovutma, demoqchimi?" Qilich singan tishlarini ro'molchasiga tupurib, shu muammoni oydinlashtirish maqsadida so'radi:

- Joyida ishlayversinmi?

- Qaerda ishlashini bizga qo'yib ber. Sen uning o'rnini sovutma.

"Demak, qamoqdagi o'rnini... Bir jihatdan shu durust. Bulardan bir-ikki yil nari yashaysan..." Qilich jonini qaytarib bergan hotamtoy akalari ta'zim qildi. Ta'zimga javob bo'lmagach, chiqib ketishi lozimligini uqdi. Tislanib yurib eshikka yaqinlashdi.

- Bir umr qulingiz bo'lmasam, kalomullo ursin, ko'zim ochildi, aka!

Bu gapdan ular quvonib ham ketishmadi, ajablanishmadi ham.

Qilich quvonib ketganidan yoki mehri tovlanaganidan ichmadi bu qasamni. Uning nazarida qirqa kirib, lahadga tushib chirib yotgandan ko'ra qolgan yigirma yilmi, o'ttiz yilmi, umrini yorug' olamda, qullikda o'tkazgani ma'qul edi. Yer yuzidagi odamlar turfa xil umid bilan umr o'tkazadilar. Birovlar Vatan uchun jonni tikadilar, ba'zilar din pokligi, yana ayrimlar fan rivoji uchun...

Qilichlar alohida toifaga mansub - ular shirin jonlari uchun Vatan ham, dinni ham... tikib yuboradilar. Shunday ekan, joni

foydaga qolgan damda bitta qasam ichib yuborsa, osmon uzilib yerga tushibdimi?

3

- Bekorga qo'yib yubording. Tinchitish kerak edi, - dedi Haydar, barmoqlarini qisirlatib. Uning odatini bilmagan kishi hozir musht urganda panjalari chiqib ketgan ekan, endi joyiga solyapti, deb o'ylashi mumkin. Barmoqlarini qisirlatish - asabiylashayotganidan darak. Asadbek uch narsaga toqat qilolmaydi: laganga qoshiq yoki sanchqi tegib taraqlasa, yonidagi odam ovqatni chapillatib yesa, barmoqlar qisirlasa g'ashi kelib miyasiga igna sanchilganday bo'ladi. Taqdirning g'irrom o'yini bu "fazilat"larning barchasini Haydarga nasib etgan. Yillar mobaynida Asadbek unga tanbeh beraverib charchadi. Agar bu tanbehlar molga aytilsa, u tuppatazuz odamga aylanib qolishi mumkin edi. Lekin Kesakpolvon yaratgan egam ato etgan bu "fazilat"lariga zarracha xiyonat qilmay yashayapti.

Asab torlari tarang tortilgan Asadbek unga o'qrayib qarab turib, oxiri portladi:

- Jim o'tirsang-chi, birpas!

Dunyoning oromini shu barmoqlar qisirlashi buzib turganday, xonani birdaniga sukunat bosdi. Ikkala a'yon Asadbekka tikilib o'tiraverishdi. Bir necha nafaslik sukut Asadbekning ham joniga tegib, ohista gap boshladi:

- Uni tinchitish oson... O'sha yoqda tinchiydi. Men xoinlarni hech qachon kechirgan emasman. Yozuvlarni menga Hosilboyvachcha berdi. Nima uchun berdi, o'ylab ko'r-chi? Meni yaxshi ko'rgani uchunmi? U "Asadbek Kesakpolvon degan ahmoq oshnasining maslahatiga yuradi", deb o'ylagan. U payt poylayapti. Uning puli ko'p, ammo aqli kalta.

- Aqli kaltalardan ko'proq qo'rqish kerak, - dedi Chuvrindi.

Asadbek unga yalt etib qaradi. "Qo'rqish kerak" degan ibora unga yoqmadi. Chuvrindi bu qarashning ma'nosini tushunib, gapiga tuzatish kiritdi:

- Ehtiyot bo'lish kerak, demoqchiman. Aqli kaltalar o'ylab, ishni pishitib so'ng jangga kirmaydi, kutilmaganda chang solib, o'zini ham, boshqani ham vayron qiladi.

- Hosilboyvachcha hali-beri menga urush ochmaydi. Yangi paydo bo'layotgan mayda to'dalardan ehtiyot bo'lish kerak.

- Gapingiz to'g'ri, - dedi Chuvrindi, - bir hikmat bor: tariqday mamlakatning rahbarlari kambag'allikdan chiqish yo'llarini izlab, oxiri Amerikaga urush ochmoqchi bo'lishibdi. Urush ochsak, ular bizning yurtimizni bosib olishadi, so'ng xalqimizni boqishga majbur bo'lishadi, deyishibdi. Shu qarorga kelishganda ulardan biri: "agar biz ularni yengsak-chi, xalqini qanday boqamiz?" deb tashvishlangan ekan.

- Agar katta mamlakat lallaysa har balo bo'lishi mumkin, - dedi Asadbek. So'ng Kesakpolvonga yuzlandi: - Otarchining qaytganini eshitganmiding?

- Qaysi otarchi?

- Elchin. Esingdan chiqdimi?

- Ha, umi? Eshituvdim.

- Nega menga aytmading?

- Chakki qadam bosgani yo'q. Tinchgina yuribdi.

- Tinchgina yuribdimi? Sen uning o'rnida bo'lganingda tinchgina yurarmiding?!

- Meni o'sha so'takka tenglashtirasanmi?

- Bo'пти, gapni chaynama. Endi qarzimizni uzishimiz kerak. U sen o'ylagan so'taklardanmas. Erkak u, bilib qo'y! Deputatning qizi bo'yiga yetib qolganmi?

Chuvrindi Asadbekning maqsadini anglab, bosh iring'adi.

- Haydar, Shilimshiqdan xabar bormi?

- Yuribdi, Chelyabinskda.

- Uni qaytarish kerak. Otarchiga ro'para qilamiz. O'chini bizdan emas, o'shandan olaversin. Mahmud, Sharifning ishi yosh bolaning qo'lida ekan. Vinzavodga qiziqayotgan emish. Kimligini bilib qo'y.

- Bilib qo'yganman. To'ytepalik bola. Ota-onasi ketmonchi. O'ziga ilmdan Xudo bergan ekan. Lekin ilmni tashlab bu yoqqa o'tibdi.

- Nega?

- Akasini o'ldirib ketishgan ekan. Shunga alam qilgandir.

- Kim o'ldirgan ekan, aniqlab qo'y.

Bu buyruq Kesakpolvonga qarata aytilgan edi. U nima qilish lozimligini tushundi. Mahmud Haydarga nisbatan ziyrak, mulohazali edi. Asadbek atrofida ularni bir odam tanasi a'zolari, ya'ni Haydar b' qo'l-oyoq, Mahmud - bosh, Asadbekni esa yurakka qiyos qilar edilar. Asadbekdan marhamat istaganlar avval Mahmudga uchrashishni ma'qul ko'radilar. Uning laqabi "Chuvrindi" bo'lgani bilan aqlan boy edi. Ko'p yillar muqaddam bekatda xarob holda tentirab yurganida Asadbekka emas, biron ilm egasining nazariga tushganida katta olim bo'lib ketishi shubhasiz edi. Bandaning emas, Yaratganning amri vojib bo'ladi, deganlaridek, mana hozir Mahmud Fanlar akademiyasida emas, qasrga aylantirilgan yerto'lada Asadbek bilan yuzma-yuz o'tiribdi. Olimlar tungi ziyofatdan hali o'zlariga kelganlaricha yo'q, u esa tiniq aqli bilan tetik o'tiribdi. Asadbek yuragidagi zardobni yashirishga qanchalik urinmasin, Mahmud uning vujudida uyg'ongan g'alayon o'tini allaqachon sezgan. Bu zardob, bu g'alayon faqatgina qizining taqdiriga bog'liq emasligini ham fahmladi. U Asadbekning bir oz jim qolganidan foydalanib, o'rnidan turdi-da, eshikni ochib qarab qo'ydi. Bo'tqaga shu qarashning o'zi kifoya qildi. Zum o'tmay patnis ko'tarib kirib, piyolalardagi qahvalarni ta'zim bilan bir-bir uzatdi.

Asadbek piyolani oldi-yu, qahvani ichmadi. Bo'tqa chiqib ketgach, Mahmudga yuzlandi:

- O'g'ling nechchiga kirdi?

- Yigirma ikkiga.

- Kichik o'g'lim yigirma oltiga qarab ketyapti, - Asadbek shunday deb ma'yus tortdi. - Topgan-tutganlarimiz nevarachevaralarimizga ham yetib ortadi. Bizga yana nima kerak?

Mahmud javob bermadi. Haydar esa ajablanib, qo'lidagi piyolani yumshoq kursining yonsuyanchig'iga qo'ydi.

- Bek, tinchlikmi o'zi, senga nima bo'ldi?

- Mengami? - Asadbek ma'yus jilmaydi. - Menga hech nima bo'lmadi. Lekin... osoyishta hayotimiz tugaganga o'xshaydi.

Asadbek salkam qirq yillik bezovtalikni, kurashni, tahlikali yillarni, jon talvasasida yurishlarni osoyishta hayot, degan ekan, bu osoyishtalik tugagan bo'lsa nimalar yuz berishi mumkinligini tasavvur etib ko'ring.

- Biz urushga kirayotganga o'xshaymiz, - dedi Asadbek o'sha siniq ohangda. - Bizga urush ochganlar - mayda to'da. Mayda to'da

22 Kitoblar Olami | Sever.UZ | Uzsmart.UZ

uyushganroq bo'ladi. Ular bizga urush ochganlarini ma'lum qildilar. - Asadbek qizi voqeasini nazarda tutgan edi, a'yonlar buni tushundilar. - Lekin men urushni istamayman. Men ularning maqsadini bilishim kerak. Dardi boylik bo'lsa, beraman. Shaharga hokimlikni istasa - olsin. Agar maqsadi yolg'iz o'ch olish bo'lsa, noilojimiz, urushimiz. Ammo bu so'nggi urush bo'ladi. Endi men vinzavoddagi tentak olim bolaga jon kuydirayotganimning sababini senlarga aytib qo'yay. Biz bu zavodni davlatdan sotib olishimiz kerak. Bu olim bola bizga shunda asqotadi. Chet elning nazariga tushgan olimni qo'ldan chiqarsak, o'taketgan ahmoq bo'lamiz. Shu bola orqali Portugaliya bilan aloqa bog'laymiz. Zavoddan olayotgan sariq chaqalarimiz oltinga aylanishi kerak. Bu gap Mahmud uchun yangilik emas edi. Korxonalar ijaraga berila boshlaganida Asadbek bir necha yigitlariga taksi mashinalar olib berdi, ammo kattaroq ishga qo'l urmadi. U kutgan payt endi keldi: korxonalarni sotib olish fursati yetdi. Buning uchun zavod xarob holga kelishi, so'ng sotib olinishi zarur. Korxonani xarob holga olib kelish qiyin ish emas. Biroq uni dunyo bilan tillasha oladigan darajaga yetkazish qiyin. Buning uchun aql kerak. Aqlni Asadbek Sharifda ko'rgan, uni bosh muhandislikka tayin etishda ana shu maqsadni ko'zlagan edi.

Asosan ijrochilikka ko'nikib qolgan Kesakpolvon Asadbekning shu ishlariga ko'pam tushunmas, shu ishdan bir gap chiqar, deb, uncha aralashmas ham edi. Mana hozir "bir ish chiqayotganiga" ishonib, hayratga tushdi.

#### IV bob

1

- Sizni chiqarib yuborishmoqchi bo'lishgan ekan, o'zingiz ko'nmaganmishsiz? - dedi hamshira.

- Sizni tashlab ketgim kelmadi, - dedi Anvar, jilmayib.

- E, qo'ying-e...

- ...Men sizni o'ylasam

Charog'on bo'ladi olamim.

Men sizni o'ylasam

Qora qon bo'ladi olamim...

- Anvar aka, qo'ying, bunaqa gaplarni... Shunaqa desangiz... gaplashmay qo'yaman...

Hamshira shunday deb kaftlarini yuzlariga bosdi. Anvarning shirin so'zlari unga yoqqan, bu so'zlar vujudidagi shaytonni uyg'otgan, shayton esa fursatni qo'ldan bermay, ayolning nozik hislarini qo'zg'ata boshlagan edi. Ayni chog'da, sergak farishtalar ayolning uyat, nomus, hayo tomirlarini uyg'otmoqqa kirishgan edilar. Osmondagi bulut to'dalari to'qnashib yashin chaqqani kabi bu vujudda ikki kuch ayol yuragini yondirib, larzaga soldi. Bu kuchdan juvonning yuzlarigacha qizarib ketdi. Chiroqning xira nurida hamshiradagi bu o'zgarish sezilmasa-da, u o'ng'aysizlanib, yuzlarini kaftlari bilan to'sgan edi.

Anvar juvondagi bu o'zgarishni sezdi. Kunduzi bir shifoxonada hamshiralik qilib, bu yerda haftaning ikki tunida navbatda turuvchi, ustiga-ustak qo'shni idorada farroshlikni ham bo'yniga olgan bu ayol har qanday erkakning xayolini o'g'irlashi tayin edi. Bu xushro'y ayolning eri majruh ekani, to'shakdan turolmashligini bilgan erkak esa unga bir qarmoq tashlab ko'rmasa ko'ngli tinchimas. Hamshira bunga ko'nikib qolgan. Ko'zlarini chaqchaytirib turib ko'ngil izhor qilgan, ayniqsa bilagiga qo'l yuborganlarida u erkak zotidan, hatto ba'zan o'z eridan ham nafratlanib ketadi. "Erim sog' bo'lganida shularga o'xshar edimi", deb o'ziga o'zi savol beradi. Bolaligida xastalanib, so'ng to'shakka bir umr mixlangan bu yigitni yaxshi ko'rib tekkan. Ko'nglida uyg'ongan his nima edi - muhabbatmi yo rahm-shafqatmi aniq bilmaydi. Yigitni xastaxonada ilk ko'rganida yuragi g'alati bo'ldi. Yuzida kulgichi bor, ko'zlari qisiroq, qoshlari qalin bu yigit istarali, so'zlari esa shirin edi. U xuddi xirgoyi qilayotgandek shirin gapirardi... Boshqa hamshiralar muolaja qilishsa, gapga solishsa uning g'ashi keladigan bo'ldi... Otasi ko'nglida norizo bo'lsa-da, sirtiga chiqarmadi. "Shu g'aribga baxt bersa, savob", dedi. Dunyodagi eng xushsurat yigitni kuyov qilaman, degan umidda yurgan onasi ko'z yoshi to'kdi-yu, baribir ko'ndi. Ba'zilar to'rt muchasi sog' go'zallarga yetishguncha dard chekishadi. Hozir yuzlariga kaftlarini bosib turgan juvon esa xasta yigitga yetguncha ko'p qiynaldi. U kechirgan to'lg'oqli tunlar tasviri alohida doston bo'lar. Ko'nglini muhabbat chaqmog'i ozgina bo'lsa ham yoritgan insonga bu kechmishlar begona emas.

Hamshira ko'nglida shilqimlik uyg'ongan erkaklarga duch kelganida to'shakda yotgan eri ko'z oldiga kelardi. Shunda unga xiyonat qilganday, o'zini o'zi la'natlar edi. Bilagiga begona erkakning qo'li tekkuday bo'lsa vujudi kirlanganday, yomon bir kasal ilashib qolganday tuyular, uyiga qaytgach, erining ko'ziga boqishga qurbi yetmas, bolalarini o'pishga ham yuragi betlamas edi. Uyiga go'yo haromni boshlab kelganday o'zidan-o'zi nafratlanar, dunyoni bunchalar yaralganidan xafa bo'lib ketardi. Ba'zi hollarda "erim sog' bo'lganida shu yo'lda yurarmi edi" deb savol tashlab, yuragi battar ezilib ketardi. Nomusni jondan aziz bilgan ayol xiyonatga duch kelsa nima bo'larkin? Ming yillar muqaddam o'tgan Yevripid degan shoir:

Nomussizlik gar ilashsa nikoh ipiga

Ayol qalbi shu qadarli qonsiragayki,

Topolmaysiz yer yuzida bunaqasini,

deganida balki bizning hamshirani nazarda tutgandir.

Xullas, rashk mavjud, ammo xiyonatga begona oila sohibasi garchi Anvarga mehri bo'lsa-da, chegaradan chiqa olmas edi.

Chegarada nomus, iffat, hayo degan qo'riqchilar borki, ular iblisning zarbalariga yo'l bermaydilar. Hamshira "shunaqa desangiz... gaplashmay qo'yaman" deganida shunchaki po'pisa qilmadi. Hozir Anvar gapni shu ohangda davom ettirsa, chindan ham suhbatga chek qo'yar edi.

Anvar hamshiraning gapini yolg'on po'pisa deb anglamadi. Balki gaplari noto'g'ri talqin etilganidan afsuslandi:

- Dilobar, - dedi u, - siz meni tushunmadingiz. Erkak bilan ayol bir-birini yaxshi ko'rsa maqsad faqat to'shak bo'lmaydi-ku? Aka-singilday yaxshi ko'rish mumkinmi? Men sizning qoshu ko'zingizni emas, faqat inson bolasiga xos odatlaringizni yaxshi ko'rishga haqqim yo'qmi? Yorug' olamda besh milliardga yaqin odam yasharkan. Lekin ko'ngil ba'zan beshta yaxshi odamga muhtoj bo'ladi-ku? Shu besh odamning biri ayol bo'lishi mumkin emasmi?

Dilobar "Gapingiz rostmi?" deganday unga bir qarab oldi. Anvar boshini egib, ko'zlarini bir nuqtaga qadab o'tirar edi.

Hamshiraning qarab qo'yganini sezmedi.

- Siz mendan nafratlanmang. Agar siz mendan ranjisangiz... men dunyodan nafratlanaman.

Olislarni ko'rish uchun umr karvoni,

Saboq ekan, kiprigimni yosh qilib qo'ydi.

Keyinchalik har bir kuzning bargi xazoni

Yumshoqqina yuragimni tosh qilib qo'ydi.

Dilobar oradagi siniqlikni ko'tarish uchun gapni boshqa yoqqa burmoqchi bo'ldi:

- Yangi she'ringizmi?

- Yo'q, - Anvar boshini ko'tarmay javob berdi, - Asqar Qosim degan shoirniki. Taqdirim o'xshaydi, ammo she'riyatiga yetishim mushkul. Balki umrim ham o'xshar.

- Umrim?.. U odam tirikmi?

- Yo'q... o'zini osgan.

Dilobar titrab ketdi.

- Osgan?

- Ha.

- Nimaga?

- Buni tushunishingiz qiyin. Oxirgi she'rini aytaymi?

- Ayting.

"Boshginamga ag'anagan, katta tog'lar, alvido!

Men ketarman hasratlanib, ruhi sog'lar, alvido!

Bu dunyoning sho'rishiga navnihollar tebraning,

Esliroq bog'boni yo'q, qoldi bog'lar, alvido!"

- Voy, bechora...

- Bechora emas. Chorasini topdi, mard ekan.

- Qo'ying, bunaqa gaplarni. O'zini o'ldirish... mardlik emas.

Anvar o'rnidan turdi. U ayol bilan bahslashishni istamadi.

- Ertalab yana ishga borasiz. Damingizni oling, - dedi u.

Anvar xurrak ovozi eshitalayotgan xonasiga kirib ketdi.

Hazil ohangida boshlangan suhbatning ezgin ruhda to'satdan uzilishi Dilobarni qiynab qo'ydi. Ustiga choyshab solingan taxta karavotda uch-to'rt soat bo'lsa ham uxlab oldi. Anvarning gaplaridan keyin ko'zlaridan uyqu qochdi. Xunuk xayollar tinchlik bermay xonaga bir-ikki o'g'rincha qarab oldi.

Anvar karavotida o'tirardi. U tong otguncha ham yotmadi.

2

Navbatdagi tun bedor edi. Umrning yana bir qorong'u kechasi to'lg'oqlar bilan o'tayotgandi. Ruhleri xastalangan bemorlar orasida sog'lom bir yigit dunyoning kirligiga imon keltirib o'tirardi.

Hamshira bilan bo'lgan suhbatdan ezildi, shoir esiga tushib o'rtandi, deb, siz azizlarni chalg'itmay. Nafsilamrini aytganda, suhbatni keskin uzishiga nima sabab bo'lganini Anvarning o'zi ham aniq bilmaydi. Yuragi siqiladiyu tomog'iga bir nima tiqilib gapirolmay qoladi. Qulog'i shang'ilyaydi. Xotini ko'rgani kelganida ham tuppa-tuzuk gaplashib o'tirib, birdan shu ahvolga tushadi. Xotini "kasallari tutdi shekilli", deb o'ylaydi. O'zi ham ba'zan shu fikrga keladi. "Chindanam jinni bo'lyapmanmi", deb xayol qiladi. Bu fikrga bandi bo'lmaslik uchun "Dorilar ta'sir qilyapti", deb o'zini o'zi ishontirmoqchi bo'ladi. Ruhni sozlovchi, tinchituvchi kuchli dorilar sog'lom odamni gangitishi turgan gap.

Hozir ham shunday bo'ldi. Xonaga kirib o'tirib yutindi. O'sha "bir nima" tomog'iga qadalib turaverdi. "Jonim halqumimga kelib qoldimi? Qadalib nima qiladi, chiqib keta qolmaydimi? Jon chiqishi shunchalik qiyinmi? Uni quvib chiqarish uchun bo'yinga sirtmoq solish shartmi? Asqar aka ham shunday qiynalganmi? Qanday umidlilar bilan tong ottirganlar? "Bandasini yaratgan Xudo insofni ham berar", debmi? Shoh Mashrabday odamni osgan bandaga insof berilishini umid qilish mumkinmi?"

Yuragi siqilib, havo yetishmayotganday bo'ldi. U chuqur-chuqur nafas oldi. Tomog'idagi "bir nima" yo'qoldi. "Jon anoyi emas.

Menday mo'minni tashlab qayoqqa ketsin? Lekin yurak bezovta. Nimaga potirlaydi. Ozodlikni qo'msayaptimi? Qaerda bor ozodlik? Mana shu devorlar ortidami? Yo uchinchi qavatdami? Ozodlik devor ortida emas, shu yerda-ku? Ozodlikni asrash uchun devor bilan o'rganlar. Eng ulug' ozodlik esa uchinchi qavatda. Shuning uchun ham derazalarga temir panjara to'silgan. Devor orti - jinnixon. Amal talashadilar, obro', shon-shuhrat ilinjida Xudodan qo'shimcha barmoqlar tilab olib ishga kirishadilar... Bu yerda esa unday jinnilik yo'q. Hamma teppa-teng..."

Anvar shu xayollarga bandi bo'lib o'tirganida deraza orti yorishdi. U avvaliga ko'cha chirog'i yondi, deb o'yladi. Lekin yorug' oqim faqat ro'paradagi derazadan oqib kirayotganini anglab sergaklandi. Oppoq nur xuddi poyandoz singari yuqoridan tushib oyoqlari ostida to'xtagan edi. Anvar ajablandi. Dam o'tmay bu ajablanish qo'rquvga aylandi. Hozirgina joni chiqib ketishiga rozi bo'lib o'tirgan yigit qo'rqdi - har holda jon shirin-da! Qo'rquv oyoq-qo'lga muz yugurtirdi.

"Qo'rqma, biz senga faqat yaxshilik istaymiz".

Anvar bu muloyim ovoz qaerdan kelganini bilmadi.

Dilobarning ovozigina o'xshatib, alangladi. Eshik qiya ochiq - hamshira ko'rinmaydi.

Ovoz yana takrorlandi.

"Qo'rqma, biz senga faqat yaxshilik istaymiz. Derazaga qara".

Anvar deraza ortida go'zal bir qizning yuzini ko'rdi.

- Kimsiz?

- Biz boshqa sayyoradanmiz.

- Qaysi sayyoradan?

- Sizlar Chayon yulduzlar turkumi deb ataysizlar. Biz esa Zurru deymiz. Zurru - nur o'lkasi degani.

- Uchar likopchalarda yurgan sizlarmidingiz?

- Yo'q. Ular sizlarning yaqin qo'shningiz. Quyosh majmuasiga eng yaqin joylashgan Zaura yulduzidan. Zaura - taraqqiyot degani.

Ular taraqqiyot uchun hamma narsadan kechganlar. Sayyorolari halokat yoqasiga kelib qolgan. Ulardan qo'rqishing kerak. Sen biz bilan birga bo'lasan. Zauraliklarning taraqqiyoti biznikidan ming karra past. Shuning uchun likopchaga o'xshagan jismda uchib yurishadi. Ularning vakillari orangizga tushgan, sizlar bilan birga yashaydi, sizlar esa buni bilmaysizlar. Xalq otasiman, deb yurgan, senga kun bermayotgan odam asli zauralik. U - odam bolasi - onasidan chala tug'ilgan, o'limga mahkum edi. O'sha onda zauralik uning tanasiga jon bo'lib kirgan. Shuning uchun unga hech nima kor qilmaydi. Ocharchilik yillari tengdoshlari o'lganda ham bu tirik qolgan. Ocharchilikda omon qolgan tengdoshlari urushga ketib qirildi. Buning ham erkak ekani, urushga borishi



lozimligi bironing xayoliga kelmadi. Urushdan tirik qaytgan tengdoshlari qamoqqa tashlandi. Sen bilmaysan, do'stlari uning fatvosi bilan qamoqda chiriganlar. Sen uning kelajakni ko'ra bilish xususiyati borligini ham bilmaysan. Unga ertaga nima bo'lishi ma'lum. Shuning uchun o'zi ham bir yarim yil qamoqda o'tirib kelgan. Qamoqdan chiqqan do'stlari sil bo'lib, pes bo'lib o'lib ketdilar. U yetmish yoshida o'n yetti yoshli yigitdan ham baquvvatroq.

- Uning maqsadi nima?

- U Yerni Zaura fuqarosi uchun tayyorlashi kerak.

- Qanday?

- Ruhan tayyorlaydi. Zaurada tarixdan ko'z yumganlar. Tarixdan so'z ochgan zauralik o'sha zahoti qatl etiladi. Ularning yuragi tosh kabi qattiq. Kimdagi his-tuyg'u uyg'onsa - o'limga mahkum. Xalq otasining vazifasi yerliklar qalbidan mehr-oqibat degan tuyg'uni haydab chiqarish, tarixni unutishga erishish. Huda-behudaga barmoqlari bilan soch tarashi, "s"ni aytmaligi, lablarini tili bilan yalab qo'yishi, ko'zini lo'q qilib yolg'on gapirishi - zauralik ekaniga isbot. U bittagina emas, yonida sheriklari ko'p. Hammalari odam libosida. Bilib qo'y: ular odamlarni qirib tashlab, so'ng Yer sayyorasini egallaydilar. Bilki ular jon bo'lib odam tanasiga kiradilar. Hozir Yer odamlarining juda ko'pi zauralikdan iborat. Yer halokat sari boryapti. Biz eng pokiza yerliklarni qutqarib qolamiz. Seni ham olib ketamiz. Sen mening gaplarimga ishonmaysan. Senga yana ozgina fursat beramiz. Yerdagi yurgan ikki oyoqli maxluqlar aslida Yer odami emas, zauralik ekaniga ishonch hosil qilganingdan so'ng biz bilan ketishga o'zing rozi bo'lasan. Hozir o'rningdan tur. Nur ustiga qadam qo'y.

Anvar nur poyandoz ustiga qadam qo'yishi bilan o'zini yengil his etdi. Ko'zlari nurdan qamashdi. Qancha vaqt o'tganini bilmaydi. Bir vaqt nur kuchdan qolib, ko'z oldi ravshanlashdi.

- Gaplashish mumkin emas, faqat ko'rishing mumkin.

Sharshara yonidagi majnuntol soyasida o'tirgan odamni tanidi: Asqar Qosim. O'y surib o'tiribdi. Yerdagi ham shunday edi - ko'p o'y surar edi. Atrofdagi odamlar ham tanish. Shiypondagilar... Nahot? Qodiriy, Cho'lpon... "Tushimmi, o'ngimmi?"

- O'ngingda ko'ryapsan.

- Ularni ham sizlar...

- Ha, biz olib ketganmiz. Yerdagi zauraliklar zulmidan xalos etganmiz. Pokiza odamlarning barchasi shu joyda orom topadi - bilib qo'y! Endi izingga qayt. Vaqt yetdi. Men sen bilan yana uchrashaman...

Ko'z oldidagi nur yana kuchaydi. O'zini yana yengil his qildi. So'ng... nur yo'qoldi. G'ira-shira xona... Xurrak ovozi...

3

- Uyuqungiz kelmayaptimi?

Ko'rganlari tushmi yo ro'yo ekanini bilolmay garang o'tirgan Anvarga eshik tomondan kelgan ovoz xuddi yer qaridan chiqqanday tuyuldi. Shu sababli savolga javob qaytarmadi. Ovoz kelgan tomonga qaramadi ham.

- Bu yerda menam uxlolmayman.

Anvar ovoz yer qaridan emas, eshik tomondan kelganini fahmlab, boshini ko'tarib qaradi. Yangi yildan uch kun oldin kelgan o'rta yosh kishi tirsagiga tiralib unga qarab gapirar edi.

- Gaplaringizni eshitib yotuvdim. Asqar degan bolani esladigiz. Men ham tanirdim u bolani. Temir yo'lning naryog'idagi jinnixonada birga yotganmiz. Yuragi toza bola edi. Ammo sog'lom edi. Bekor uvul ketibdi. Eshitmagan ekanman. Xudo rahmat qilsin.

Anvar gap poylab yotgan bu kishiga nima deb javob berishni bilmadi. Ovqat ustida bir-ikki og'iz suhbatlashgani hisobga olinmasa bu odamni bilmaydi. Kim u, dardi nima - xabarsiz.

Anvardan sado chiqavermagach, gap tashlagan odam o'rnidan turib kelib yoniga o'tirdi. Karavot simlari uning og'irligiga dosh berolmay zorlanib, g'ijirlab qo'ydi.

- Men bu yerlarda yotaverib ko'zim pishib qolgan. Kim sog', kim nosog' - darrov ajrataman. Kerak bo'lsa do'xtirlaringizni o'qitib qo'yaman. Siz sog'lom yigitsiz. Bu yerga tushib qolganingizdan ezilyapsiz. Ezilmang, uka. Bu yerning nomi xunuk. O'zi yaxshi joy. Men shu yerda jon saqlayman. Agar jinnixonada bo'lmaganida allaqachon... asfalasofilinga jo'natvorishardi. Bir kuni, deng, oqshom ko'chaga chiqsam, qo'shni turibdi. Yap-yangi "Gaz-21" olgan edi. "Yuring, qo'shni, xizmatigizda bo'lay", dedi. O'zi muttahamroq bola edi. Men uning ustidan o'rganga yozib yuborgan edim. Hay, Xudo insof beribdi, dedim. O'tirdim. U qizig'ar moshinasini Qoraqamishga qarab uchirdi. Gadoy topmas yerga yetganda "qimirlamay o'tir!" deb do'q urdi. "Voy, qizig'ar, o'ldiradi, shekilli", deb moshinadan tushdim. Qochay, deb o'zimni qamishzorga urdim. Bunday qaragam, chuqurda odam o'liklari yotibdi...

Anvar bu hikoyani kechki ovqatdan keyin eshitgan edi. Shu sababli eshik yonidagi karavotda yotuvchi bu odamning gaplari qulog'iga kirmadi. Boshqa payt bo'lganida balki zerikmay tinglardi. Ammo hozir, ko'ziga ko'ringan nur, deraza ortidagi go'zal uzor, sharshara, majnuntol, xayolga cho'mib o'tirgan shoir... uni yolg'izlikka undardi. Ammo bu yorug' olam aro hech bo'lmaganda bir necha daqiqa yakka qolishni istardi. Bandaning ko'ngli nimalarga sust ketmaydi. Vohidlik faqat yaratgan parvardigorga yarashadi. Faqir bo'lib yaralganingdan keyin yoningda it o'tirsa ham, bit o'tirsa ham chidaysan.

Anvar bu odamni esi og'ib qolganlardan deb bilgani uchun yonidan haydamadi. Gapini qanday bo'lib, joyiga qanday jo'natish yo'lini izladi. Nojo'ya so'z aytib yuborsa bu toifa odam ayyuhannos solib jinnixonani boshiga ko'tarishi hech gap emas.

- Men boyatdan beri sizga qarab yotibman. Haykalga o'xshab qotib o'tiribsiz. Men sizga aytсам, - u Anvarning qulog'iga shivirladi, - men ham soppa-sog'man. Lekin hamma meni jinniga chiqargani uchun ba'zan o'zim ham ishonib ketaman. Davlat ham ishonadi. Ishonadi. Ishonmasa yigirma uch so'm pensa berarmidi. Endi uka, mening otim Shoqayum, tuz-nasib ekan, shu yerda jon saqlaymiz. Men hangomatalab odamman. Ko'p gapirib bezdirvorsam, shartta urishib tashlayvering, xafa bo'lgan - nomard. Lekin hadeb bunaqangi siqilib o'tiravermang. O'zingizni yeb qo'yasiz. Men ham oldiniga shunaqa bo'lganman. Keyin bilsam, qaytaga shu yaxshi ekan. Odamlar meni jinniga chiqargandan beri mazza qilib yashaydigan bo'ldim. Oldin to'g'ri gapni aytmay ezilib ketardim. Endi shartta-shartta aytaman. Bironing qulog'iga kiradimi, yo'qmi, aytaveraman. Shunaqa qilib yuragimni bo'shatib olaman. Siz ham shartta-shartta gapirib yuboravering. Bunaqa o'tirmang.

"Bunaqa o'tirmang... Rostdan ham qimirlamay o'tirdimmi? Nur-chi? Sharshara-chi?"

- Shoqayum aka, kirganimdan beri haykalday qotib o'tirdimmi?

- Ha, de! Asqar rahmatli ham shunaqa edi. Derazaga tikilib o'tiravardi. Qorong'ida nimani ko'ryapti, deb hayron bo'lardim.

Ammo uni gapga solish qiyin edi. Bir kuni "nima qilib o'tiribsiz, uka?" desam, "quduq qidirayman", deydi. "Hazillashyapsizmi,

qanaqa quduq?" deb so'rasam, "Iskandarning shoxi bor", degani bir quduq kerak manga" deydi. Shunaqa g'alati gaplari bor edi. Ko'p gaplariga tushunmasdim.

Anvar "bu oddiy gap, har bir shoir haqiqatni aytishni istaydi. Rivoyatdagi satarosh kabi aytmay qiynaladi. Bir quduq topsayu aytsa, yuragini bo'shatib olsa..." demoqchi bo'ldi-yu, Shoqayumning gap xaltasini battar kavlamay, deb indamay qo'ya qoldi. Shoqayumning gap xaltasi birov tegmasa ham qaynaverar edi. Anvar indamagani bilan gapi toshib chiqaverar edi. Anvar uning so'zlarini uzuq-yuluq eshitardi. "Demak, ko'zimga ko'ringan. O'tirgan yerimda uxlamay turib, tush ko'rganman. "Uchar likopchani ko'rdim", deganlar ham menga o'xshab xayolan uchrashganlar. Bu - jinnilikning boshlanishi emasmikin?"

- Bu yerdan chiqib ketmay, yaxshi qilibsiz. Shu yerda qishlab, bahorning o'rtalarida chiqish kerak. Bahorda quling o'rgilsin odamlar kelishadi, zerikmaysiz.

"Qanaqa odam bu o'zi! Jinnilarni masxara qilyaptimi? Tavba! Ishtoni yo'qning ishtoni yirtiqqa kulgani shumi? Chiqib ketmasam bo'lmaydi bu yerdan".

Anvar Elchin ketganidan beri qayta-qayta "qolib to'g'ri qildimmi?" degan savolni o'ziga-o'zi berib "To'g'ri qildim!" degan qaysar javobdan nariga hatlamas edi. Shoqayumning ezmaligi bu qaysarlik to'g'onini buzib, "chiqib ketishim kerak!" degan tushuncha darvozalarini ochib yubordi.

V bob

1

Elchin Yangi yil kechasi Asadbekning qorong'i, sovuq uyida bo'lib o'tgan suhbatni Sibirda orttirgan oshnasi Zelixonga aytib berdi. Qirraburun, ko'zlari burgutnikidek o'tkir Zelixon o'y surganida ham nigohini bir nuqtada to'xtatmas edi.

- Asadbek molodets! Visshiy klass! - dedi u. вЂ”Aniq topibdi. Endi u bilan hazillashib bo'lmaydi.

- Shoshilma, - dedi Elchin. - Boshqalar bilan ham xuddi shunday gaplashgan bo'lsa-chi. Shaharda nima ko'p, to'da ko'p. Avval ularga qo'l solgan. Keyin har ehtimolga qarshi mendan ham xavotiri borligini bildirib qo'ygan bo'lsa-chi?

- Baribir. Eng muhimi - seni nazardan chetda qoldirmagan. Faqat o'zi bilgan to'dalarni kavlashtirganida ahmoq bo'lardi.

- Biz mo'ljalni aniq oldik, muhimi - shu!

- Aniqlikka aniq, lekin sen yo'lbarsning peshonasini mo'ljalga olmading-da. O'qing qovurg'asini yalab o'tdi. Endi yarador yo'lbarsdan qo'rqishing kerak.

- Menga uning o'limi emas, yaralanib, azoblanib o'kirishi kerak. Bir o'q bilan o'lishining keragi yo'q.

Zelixon Elchinning yelkasiga qo'l tashladi. Uning odati shu - mehri tovlanib ketsa, shunday qiladi.

Elchin Sibirdagi lagerga ko'chirilganda, hali "o'qilon"ning ovozi yetib kelmay turib, shu Zelixonning panohida jon saqlagan edi.

O'zbekistondan kelgan, bo'sh-bayov ko'ringan bu yigitni dastyorga, aniqrog'i, qulga aylantirmoqchi bo'lgan zo'ravon mahbuslar Zelixonning "bu mening zemlyagim" degan gapidan keyin tinchishdi. "Senam musulmonsan, men ham musulmonman. Yonimda yur", degan gapi Elchinga "Men akangman" deganday tuyuldi. Cho'ntakkesarlikdan ish boshlab, katta xazinaga hujum qilishgacha borib yetgan Zelixon turmalarning ham, mahbuslarning ham turli toifasini ko'rib ko'zi pishgan edi. U Elchinning birinchi marta qamalanganini yurish-turishidanoq bilgan edi. To Elchinning o'zi aytib bermagunicha qamalishi sababini so'ramadi. Elchin Sibirda yurganlarida to'g'ri gapni yashirdi. Haqiqatni keyinroq, qamoqdan chiqqach aytdi. Rejasini amalga oshirish uchun ishonchli, mard odamlar kerak edi. Eng ishongani Zelixon bo'lgach, undan haqiqatni yashirolmadi.

- Senga bir qarashdayoq yuragingda o'ch borligini sezganman. Erkakning o'ch olishi yaxshi. Chechenlar yomonlikni hech qachon kechira olmaydi. Biz mayda-chuyda gaplarga o'ralashmaymiz. Qasos yaxshi narsa. Dunyoning lazzati shu qasosda. Sen qasos olib mazza qilsang, men ham mazza qilaman. Ammo mensiz bir qadam ham bosmaysan. Sen atak-chechak qilayotgan bolasan. Men bu olamda yugurib yurib katta bo'ldim. Qaysi teshikda ilon, qaysi teshikda chuvalchang yotishi menga aniq.

Chindan ham Zelixon biz jinoyatchi deb ataydigan odamlar olamining pastu balandini yaxshi bilardi. Birinchi marta cho'ntak kesganidan to so'nggi xazinani urganiga qadar yagona aqidaga amal qiladi - u faqat o'zigagina ishonadi. Sheriklariga "Men hatto o'zimga ham ishonmayman!" derdi. Bu gapida ham jon bor edi. Zelixon yolg'iz ishlashni yoqtirardi. Lozim bo'lganda bir-ikki sherikka suyanardi. Uning qoidasiga ko'ra, sheriklar ko'paygani sayin ishning muvaffaqiyatli yakunlanishiga ishonch kamayib, aksincha, xoinlik uchun sharoit ortib boradi. "Ish taqdirini kuch emas, aql hal etadi". Zelixon faqat shu qoidani tan olardi. Elchin qasos haqida so'z ochib, odam to'plashni taklif etganida Zelixon "uch kishi yetarli" dedi. Jinoyatchilar olamining to's-to'polonini chiqarmoqchi bo'lgan Elchin bu gapdan hayratlandi. U atrofiga kamida yuz kishilik lashkar to'plamoqchi edi. "Yuz kishi" degan gapni eshitib, Zelixon kulib qo'ydi. Keyin shu bolaning sazasi o'lmasin, deb besh kishiga rozi bo'ldi. "Qancha odam kerak bo'lsa, keyin sotib olaveramiz", deb ko'nglini tinchitdi.

Zelixon o'ttiz yildan ortiq ot surib yurgan bo'lsa, uch marta qo'lga tushgan. O'smirligida bir yarim yil, so'ng uch yil, oxirgi marta besh yilga kesilgan edi. Birinchisida ayb o'zida, tan oladi. Qolgan ikkitasi sheriklarining landavurligi tufayli bo'ldi. Barcha qilgan jinoyatlarini qamoqdagi kunlariga taqsimlab chiqilsa har bir ishi uchun besh-o'n daqiqa o'tirgan hisoblanardi.

Zelixonning laqabi "akademik" edi. Bunga sabab - u puxta o'ylab olib, so'ng ishga kirishardi. Uning boshqalardan farqi - odamlar ruhiyatini albatta hisobga olardi. Lozim bo'lganda katta idoralarga boshqa bir idora boshlig'iday bemalol kirib chiqaverardi. Eshik og'zidagi soqchiga kiborlik bilan so'z tashlab, "ha, o'tiribsanmi" deb kirib ketaverardi. Elchin uning bu "fazilati"ni shaharda uchrashganda bildi. Bir kuni Zelixon mashinasini kirish mumkin bo'lmagan ko'chaga burdi. Milisa tayog'ini ko'targach, to'xtadi-yu, tushmadi. Milisa lapanglab kelib, engashishi bilan oynani tushirib:

- Ha, turibsanmi, - dedi. Milisa javob qaytarishga ulgurmay yana savol berdi: - Leytenant qani?

- Sobirovmi? - dedi milisa yigit talmovsirab.

- Ha, o'sha, nimaga lallayasan, qayoqqa ketdi?

- Hozir keladi.

- Menga uchrashsin.

Zelixon shunday deb mashinani yurgizdi. Milisa esa gardanini qashib qolaverdi.

- Sobirov deganingiz kim? - dedi Elchin.

- Qayoqdan bilaman, - dedi Zelixon kulib. - Senam milisaga o'xshagan laqma ekansan-ku.

- Leytenantligini bildingiz-ku?

Zelixon qah-qah otib kuldi:

- Bularda nima ko'p, leytenant ko'p...

Zelixon shunday odam edi. Elchin Asadbekning qizi haqida gapirganida Zelixon ko'p ham bosh qotirmadi. Atrofida yurgan qizlardan birini ishga soldi. Qiz sirtqidan kunduzgi o'qishga o'tayotgan toliba qiyofasida Asadbekning qizi bilan darslarga kirib yuraverdi. Asadbekning qizini tanaffus paytida mashinagacha olib borgach, o'sha kuniyoq Kavkaz tomonga uchib ketdi. Zelixon "qancha odam kerak bo'lsa, sotib olavramiz", deganida shu qiz kabilarni nazarda tutgan, har bir ish uchun alohida odam yollash uning nazarida bexavotirroq edi.

2

- U seni o'ziga yaqin odamning qiziga uylantiradi. Shu bilan har bir qadamingni emas, har bir nafas olishingni ham kuzatishadi.

- Bu juda yaxshi! - dedi Elchin, - ular meni kuzatishadi, siz esa oshni pishirasiz.

- Men pishiraman, sen suzasanmi?

- Ha.

- Bo'lmaydi, zemlyak. Endi osh suzishing qiyin. Bir marta, bor, ana, ikki marta suzarsan. Uchinchisida o'zingni suzib qo'yishadi. Boshqa yo'l topish kerak. Sen... men bilan endi yashirin uchrashma. Aka-ukaday kelib-ketib yuraver. Ammo yigitlarimiz bilan ko'rishmaysan. Sen ularni tanimaysan, ular seni tanishmaydi bildingmi? Sen ashulangni aytib yuraver. Asadbek rostdanam aqlli bo'lsa, bizga o'zi yordam beradi.

- Qanday qilib?

- Qotillar kimligini o'zi senga aytadi. Sen ularni o'ldirasan. Shu bilan orani ochiq qiladi.

- Laqillatib, boshqa odamni ko'rsatsa-chi?

- Yo'-o'q. O'qilon g'irromlik qilmaydi. G'irromga suyangan odam bu olamda uzoq yashay olmaydi. O'qilon b' b' figura! - Zelixon shunday deb ko'rsatkich barmog'i bilan havoda undov belgisini yasadi. - Sen meni go'rga tiqasan, zemlyak. Ming marta aytdim senga: o'ch olish fikri aqlingni o'tmaslashtirib tashlayapti. Chuqur o'ylamayapsan. Har bir ishga alohida reja tuzish kerak. Bir ish ikkinchisiga sira o'xshamasin. Biz ularni chalg'itib tashlamasak, darrov dumimizni bosishadi.

Zelixon xontaxta ustidagi shishadan piyolaga musallas quyib sipqordi, so'ng sigaret tutatdi. Chordana qurib o'tirgan Elchin xuddi tasbeh o'girayotgan mulladek nigohini bir nuqtaga qadadi. U Zelixonning zehriga, sadoqatiga ishonar edi. Qamoqda yurgan kezlarida, vujudi qasos alangasida qovjirayotgan damlarda Elchin yo'l-yo'riq izlardir. U avvaliga bir o'zi jangga kirmoqqa qasd qildi. O'sha mash'um kechada hovlisiga qadam qo'ygan har bir odamning kallasini sapchadek uzishni istadi. "Kallani sapchadek uzish" - aytmoqqa oson. Umrida chumchuq so'ymagan yigit odam bolasiga pichoq ura olarmikin? Elchin dushmani bilan yuzmayuz kelganida qo'llari qaltirashini bilib, o'zini bu ishga ruhan tayyorladi. Xayolan yuzlab odamlarning yuragiga pichoq qadadi, kallasini uzdi. Zelixon qamoqdaligida ko'zlari chaqchaygan bir yigitni ko'rsatib "otasining kallasini arralab tashlabdi, hayvon" deganida Elchin bir necha kun davomida dushmanlariga shu jazoni ravo ko'rdi. Xayolan arralaganda ularning dod-faryodlari orasida arra tishlariga dosh berolmagan suyaklarning qirtillaganini eshitib o'zi ham seskanib ketdi. Keyin "uyimga kirganlarning turqi balki shu yigitga o'xshagandir", deb o'ylab dushmanlarini shu ko'zlari chaqchaygan timsolida ko'ra boshladi. Ana shunda ko'krakka pichoq qadash qo'lidan kelmasligiga fahmi yetib, Zelixonga suyanishni o'yladi. Zelixon odam o'ldirish, degan tushunchadan yiroq edi. Iloji bo'lsa bironing burnini qonatmasam, derdi. U "aql ish bermagan yerda qon to'kiladi", deb hisoblardi. Zelixon faqat o'z aqliga ishonadi. Qamoqdan keyin uchrashish qasos haqida so'z ochilganida u "yo'lbarsni bir o'q bilan o'ldirishning qizig'i yo'q, uni yaralab, o'kirtirib lazzat olish kerak", dedi. Bu gap Elchinga moydek yoqqan, hozir shuni o'z tili bilan Zelixonga qaytarmoqda edi.

Zelixon ro'parasida o'yga cho'mib qolgan bu yigitni nima uchun yoqtirib qolganini o'zi ham bilmaydi. Elchin istarali yigit, desak, Zelixon bunaqalarni ko'p ko'rgan, musofirlikda ikki musulmon farzandi bir-biriga suyandi, desak, qamoqda boshqa musulmonlar ham bor edi. Zelixon begunohlarga xayrixoh edi, desak, qamoq faqat gunohkorlarninggina boshpanasi emas, ko'zlariga "men nima uchun bu azoblarni tortyapman?" degan savol muhrlanib qolgan mahbuslar ko'p uchrardi. Zelixon qamoq, ayriqlik azoblariga chiday olmasdan ho'ng-ho'ng yig'lovchi erkaklardan nafratlanardi. To'g'ri, yig'i erkakka xos husn emas. Ammo, Zelixon ularning dardini his qila olmas edi. Na farzandi, na tayinli xotini, na tayinli qarindosh-urug'i bo'lgan odam sog'inch hissini tuyishi mumkinmi? Elchinda Zelixonni nafratlantiradigan narsa yo'q edi - Elchin o'zining begunohligini ko'rsatishga harakat qilmas, nolimas edi. Bu yigitning mushtdek yuragini qoyadek dard bosib turganini Zelixonning sinchkov nigohi ilg'adi. Zelixon dardini yashira oladigan odamni yaxshi ko'rardi. Hasratini har kimga to'kib soluvchi erkakdan do'st chiqmaydi, deb ishonardi.

Zelixon Elchindan qasos haqidagi gaplarni birinchi marta eshitganda sergaklandi. U mushtdek yurakni qoyadek dard bosib turibdi, deb yursa, bu vujudda vulqon kuch to'playotgan ekan. Vulqon otilsa hammayoqni barbod qiladi. Biroq otilgan choqda bahaybat tog'larni poralab tashlagani kabi ko'krakni ham, alamli yurakni ham tilka-tilka qilib yuboradi. Zelixon aynan shundan xavotirga tushdi. Qamoqda yurib hamma narsani o'rgandim, degan bu go'dak (Zelixonning oldida Elchin bir go'dak edi) birinchi to'qnashuvdayoq nobud bo'lishi aniq edi. Zelixon bu katta shaharga begona, bu tomonlarda rizq terib yeyish unga nasib bo'lmagan, qamoqda. Elchinning targ'ibotidan keyin shu yerlarda yurgan edi. Qimorbozlikdan ish boshlab juda katta to'daga bosh bo'lgan, eng muhimi, biron marta bo'lsin qo'lga tushmagan Asadbekning kimligini u yaxshi bilmas edi. Asadbek to'g'risida yurgan gaplarga ishonmagan taqdirda ham, shahar hokimiga nisbatan ko'proq mavqega ega bo'lgan bu odam ahmoqmasdir, deb qo'ygan edi.

Zelixon avvaliga Elchinni bu yo'ldan qaytarmoqchi ham bo'ldi. U dunyoda uch narsa ochiq ko'zni ko'rmaydigan qilib qo'yadi, deb hisoblardi. Bu - muhabbat o'ti, qasos o'ti va boylik o'ti. Zelixon muhabbat o'tida yonmagan. Biron-bir qiz ishqida o'tanmagan. Muhabbat muammosi to'shakda bir necha daqiqada hal etiladi, degan aqidaga amal qilib yashagan.

U boylik o'tidan ham qo'rqmaydi. Chunki u o'g'ri bo'lgani bilan, hech mahal boylik to'plashga urinmagan. Yashashi uchun aqchasi bo'lsa bas, boshqalarday dang'illama imoratu orzu-havaslariga berilmagan. Shu yoshga kirib hali o'z uyi bo'lmagan. Cho'ntak bo'shab qolgan taqdirdagina "ov"ga chiqqan. Hatto qo'lga tushib qamalib ketsam, chiqqanimda asqotadi, deb jamg'armagan ham. Qasos o'ti bolaligida bir yonganu bobosining sa'y-harakati bilan o'chirilgan edi.

3

Urush chechenlar yashaydigan qishloqlardan uzoqroqda bo'lsa ham uning sovuq nafasi ufurib turardi. Qishloqqa qoraxatlar bilan birga noxush mish-mishlar ham yetib kelardi. Mish-mishlar oqibatda haqiqatga aylanib butun qishloq bir kechada issiq uylardan haydab chiqildi. Bir hafta burun Zelixonlarnikiga qoraxat kelib aza ochilgan edi. Olti yoshga to'lgan bola dam onasiga qo'shilib yig'lardi, dam bobosiga qo'shilib qo'lini fotihaga ochari. U nima uchun aza ochilganini tushundi - otasini fashistlar o'ldirgan. Endi qotillarni kechirish mutlaqo mumkin emas! Zelixon - endi xunxo'r! Tomirlarida chechen qoni oqayotgan olti yoshli bola ajdodlar

qonunini bilardi. Unga na onasi, na bobosi "o'ch ol!" dedi. Bu gapni uning yuragi aytardi. Shunga aqli yetgan bola nima uchun uyqudan uyg'onishganini, ikkita tugunni orqalab tun bo'yi yo'l yurishganini, so'ng poezdga chiqishganini bilmadi. Birov "fashistlar yaqin kelib qolishibdi, bizni asrashyapti", dedi. Bundan Zelixon ajablendi: fashistlar yaqin kelsa yaxshi-ku! O'ch olish imkoni tug'ilgan ekan-ku?! Yana birov: "Ichimizdan sotqin chiqibdi, hammamiz shuning kasofatiga qolibmiz", dedi. Zelixon bunga ham ajablendi: qanaqa sotqin, nimani sotadi, qishloqda sotadigan nima bor?..

Uzun kechalar yo'l yurib, nihoyat bir qishloqdan panoh topishdi. Uning ko'ngli, ko'zlari tog'larga, cho'qqilarga o'rgangan edi. Bu qishloq tog'dan ancha uzoq ekan. Ammo bobosi ham, onasi ham shukr qildilar. Bir dehqon uyining yarmini bo'shatib berdi. Devor o'rniga eski sholcha tortib yashayverishdi. Yetti yot begonaga ham muruvvat ko'rsatuvchi imonli odamlarga uchratgani uchun bobosi Ollohga shukrlar qildi. Yaxshiyam, bobosi turkchani bilardi, bo'lmasa kunlari imo-ishora bilan gaplashishga qolarmidi... Zelixonning onasi betoblanib, ikki kungina yotdi. Uchinchi kuni uzildi. Bobosi dono edi. Ortiqcha kiyim-boshni qo'yib, o'limligini olvolgan ekan, o'ziga emas, keliniga nasib etdi. Uch yil oralatib o'zi qaytish qilganida kafanlikni shu uy egasi topib berdi.

Bobosi bir oydan ziyodroq yotdi. Uning umri tugagan, bu hayotdan nasibasi qirqilgan edi. Biroq, Xudoga yolborib yana bir-ikki oy umr so'rardi. Begona yurtda g'irt yetim bo'lib qolayotgan nabirasini ozgina bo'lsa-da, oyoqqa qo'yib omonatini topshirsa, ko'zi ochiq ketmas edi. Nasiba qirqilsa, banda chorasiz ekan. Bobosi to' so'nggi nafasi chiqquncha Zelixonga nasihat qildi. So'nggi kechada, so'nggi kuchini jamlab bir gap aytdi:

- Bolam, biz chechenlarmiz! Unutma! Chechenlar hech qachon o'zlarini xor qilib qo'ymaganlar. Sen hech qachon nomardlarga bo'yin egma! Ammo yaxshilik qilganlarni umring ado bo'lguncha boshingda ko'tarib yur. Sen o'z nomusing uchun jang qilmasang, kechiraman. Lekin senga yaxshilik qilgan o'zbeklarning nomusi uchun jon bermasang, rozi bo'lmayman. Olloh ham seni kechirmaydi, bilib qo'y! O'zbeklar ham biz kabi xorlangan ekan, vaqti kelsa joningni ayama...

- Bizni xo'rlaganlardan qasos olaman! - dedi Zelixon. To'qqiz yoshli chechen bolasining tomirida qasos qoni ko'pirishi uchun yetarli asos bor edi. Bobo buni bilardi va shundan qo'rqardi. Qasos o'ti bolaning ko'zini ko'r qilib halokat jari tomon yetaklashi muqarrarligini bilgani uchun ham qo'rqardi.

- Zinhor! - dedi bobo, keyin ko'zlarini yumib tin oldi. U xo'rlikni kechira olmaydigan chechen edi. Ayni choqda, musulmon ham edi. Cholning urishdan to'xtay deb turgan yuragida armon bilan birgalikda qasos ham bor edi. Qasos - xo'rlikdan, armon esa qasosning qiyomatga qolayotganidan. Chechen uchun xo'rlikdan ham chorasizlik yomon. Ular chorasiz edilar. To'qqiz yoshli bola qasos olaman, deb qasam ichyapti. Ammo kimdan qasos oladi? Birgina shularning o'zini haydab chiqarganlarida edi, so'rab-surishtirib, aybdorni topardi. Agar bu mo'ylovning (bobosi Stalinni "mo'ylov" deb atardi) istagi bilan amalga oshirilgan bo'lsa boshini qaysi toshga urishi kerak?! Bobosi ko'zlarini yumib shularni o'yladi. Uning bu o'ylari Zelixon uchun sir bo'lib qolaverdi.

- Zinhor, - dedi bobosi ko'zini ochib. - Bunday qasam ichma! Ota-onam go'rida bezovta bo'lmasin, desang, tinch yur!

Uy egasi, eski do'ppining ustidan qiyiqcha bog'lab olgan mo'ysafid yarim piyola sutga to'rt to'g'ram non tashlab, bir tishlamini xastaning og'ziga tutdi. Zelixonning bobosi labini qimtib bosh chayqadi.

- E, birodar, jonga darmon kerak. Nima deyaotganingizni anglamadim-u, ammo bolani qo'rqitish yaramaydi. U hali hech nimani tushunmaydi.

Bobosi uy egasining maqsadini anglab, og'zini bazo'r ochdi. Anchagacha tamshandi. Ammo nonni yuta olmay asta chiqardi. Ko'zlari bejo bo'ldi.

- Bolam, sen bir aylanib kel, - dedi uy egasi Zelixonga.

Zelixon chiqib ketdi. Uy egasining nima uchun chiqarib yuborganini ulg'ayganidan so'ng fahmladi. Bobosining tamshanishi to' hanuzga qadar ko'z oldidan ketmaydi. Bobosining rizqi tugaganmide yo o'lim oldidan birovning luqmasini yutishni istamadimi - bu Zelixon uchun muammoligicha qoldi.

Zelixon Elchin bilan shaharda uchrashganidan beri bobosining so'nggi gaplarini ko'p eslaydi. Bir tomondan bobosi qasosga yo'l bermay ketdi. Bir tomondan Elchin - o'zbek, ularga ham boshpana, ham nasibasidan bir ulushini, hatto kafanligini baham ko'rgan xalq farzandi. Yana bir tomondan esa, Elchin qasos olmoqchi bo'lgan odamlar ham shu xalq farzandlari.

Alanga Zelixonni uch tomondan o'rab kelardi. Bir tomon ochiq - qochoqlik, qo'rqoqlik yo'li. Chechenning eng nomardi ham bu yo'ldan yurmaydi. Zelixon Elchinni qasos yo'lidan qaytara olmasligini bilardi. Zelixon qasosga sherik bo'lish uchun emas, balki Elchinni ajdaho komidan asrab qolish uchun ham uning yoniga kirdi.

Uch-to'rt kishi bo'lib xazinani urish yoki biron boyni qaqshatish Zelixonga cho't emasdi. Ammo Elchinning boshlayotgan ishi uni ancha gangitib, tashvishga soldi. U Asadbekdan cho'chidi, deyish bo'hton. Asadbekdan joni o'ziga shirin odamlar qo'rqishadi. Shu paytgacha Zelixon jonini sira ayamagan. Uning tashvishib "B" maqsad sari bir-ikki qadam qo'yganda bevaqt yiqilib qolish. Erkak odam bir ishga qo'l urdimi, o'lsa ham oxiriga yetkazib o'lishi kerak - shu aqida asosida ulg'aygan Zelixon boshqacha yo'l tutolmas edi.

Zelixon piyoladagi musallasni sipqorib, nigohini bir nuqtaga qadab o'tirgan Elchinni yelkasiga asta turtib qo'ydi.

- Zelixon yarim yo'lda tashlab qochmaydi. Men - chechenman! Unutma! Asadbek senga uylan debdimi, uylan. To'yga tayyorgarlik ko'raver.

Bu gapdan keyin Elchin boshini ko'tardi.

- O'ziga kuyov qilsa-chi?

Zelixonning rejasida ishning bu tomonga og'ishi nazarda tutilmagan edi. Asadbekning qizini o'g'irlash, uning nomusiga tegish g'oyasi Zelixonidan chiqqandi. Ishni boshidan oxirigacha o'zi pishitib bergan edi. Elchinning vazifasi qorong'i uyda qo'rquvdan titrab o'tirgan qizning qo'yiniga kirish edi. Elchin birinchi kirganida "Oyijon!" deb o'zini himoya qilgan, jonholatda tipirchilagan qizni yenga olmadi. Unga rahmi keldi. Agar qiz "otajon!" deb baqirganida ko'z oldiga Asadbekning qahrli nigohi kelib, balki ko'nglidagi rahmini parchalab tashlarmidi... Keyingi safar qiz "Oyijon!" deb baqirganda Noilaning nolasini eshitganday bo'ldi. Qiz uning bag'rida tipirchilaganda ko'kragiga pichoq qadalib jon talvasasida yotgan xotini ko'ziga ko'rindi.

O'sha tun Elchin uchun sinov kechasi edi. U o'ch olishning azobini ham, lazzatini ham tatib ko'rdi. Lazzat shahvatini qondirishdan emas, balki dastlabki qasosning shirin suvidan edi. Azobi - nohaq jabr tortish nima ekanini totib ko'rgan yigit begunoh bir pokiza vujudni bulg'adi.

Zelixon bu rejani tuzayotganida Elchining ikki o't orasida qovurilishini hisobga olgan edi. Chunki u birinchi marta begona odamning cho'ntagiga qo'l solganini, pulini olgandan so'ng uyatdan yonib ketay deganini hali-hali unutmaydi.

U Asadbekning fe'lini bilmas edi. Bunday voqeaga qo'l siltab qo'yadimi yo kuyib-o'rtanadimi - bu Yaratganga ayon bo'lmasa, Zelixon uchun qorong'i edi. Uning nazarida Asadbek - ota. Qizining nomusiga befarq qaraydigan ota bu yurtda yo'qdir. Ayniqsa,

ko'pning nazarida turgan odam nomusiga befarq qaramas. To'g'ri, uning oldida sho'rlik qizi haqida og'iz ochishga jur'at etmaydilar. Lekin pana-panada visir-visir bo'lishini Asadbek sezmasmikim? Gap-so'zlarga barham berishning eng to'g'ri yo'li - uni turmushga uzatish. Kuyov kim - Elchinmi?

Zelixon Elchinning so'zlaridan keyin o'zini Asadbekning o'rniga qo'yib ko'rdi. O'zini marhamatli, odamparvar ko'rsataman, desa "qamalib chiqqan otarchi"dan hazar qilmay, yelkasiga kuyovlik sarposini yopadi. Misqollab to'plagan obro'-e'tiborini o'ylasab bu bu ishga qo'l urmaydi. Xo'sh, Asadbek uchun qay biri qadrli? Zelixon bu muammoga javob topa olmadi. Bu savolga javobini oradan kunlar o'tib Asadbekning o'zi aytdi.

VI bob

1

Sharif garang edi. Ko'rgani, eshitgani tushmi yo o'ng ekanini farqlay olmas edi. Dam badaniga halovatli, huzurli kuch hukm o'tkazadi. Bunday paytda u bulutlarga yonboshlab olib osmonda suzadi. Ba'zan esa qandaydir ko'rinmas bir kuch temirchining omburi bilan yuragini siqa boshlaydi. Ana shunda dunyo ko'ziga tor bo'lib ketadi. Esini taniganidan beri ko'rgan xo'rliklarini, alamlarini, tashvishlarini eslaydi. Eslab turib "omburingni qattiqroq siqsang-chi, bu yurakni birato'la vayron qilib yubora qolsang-chi", deb nola qilganini o'zi ham bilmaydi.

Sharif hozir ham shu ahvolda edi. Ikki qavatli karavotning yuqorisida yuztuban yotib, dardli bir to'lg'oqni boshidan kechirar edi. Birovlarni onalari duru gavhar ustida tug'ib, zarhal choyshablarga yo'rgaklaydi. Sharif esa, o'zining nazarida, alamlar tikonzori ustida tug'ilib, tashvish choyshabiga yo'rgaklangan. Birovlar bu dunyo ne'matlaridan to'yib bahramand bo'lish uchun tug'ilgan bo'lsa, Sharif, o'zining nazarida, bu dunyodan nafratlanish uchungina tug'ilgan. Go'yo poki Parvardigor uni yaratib "mana, qarab qo'y, bu dunyoda havas qiladigan hech nima yo'q", deganu Sharif tug'ilganidan beri mana shu haqiqatni qadam-baqadam anglab borayotganday. Bu dunyoda hamma narsa o'lchovli, hamma narsaning cheki-chegarasi mavjud. Alqissa, Sharifning boshiga yog'ilayotgan abri balo ham o'tay deb qoldimi? Bu bulut uning boshiga ham turli alamlarni, g'ussalarni yog'dirdi. Eng so'nggi balo - o'lim urug'imi, qamoqda chirish qismatimi?

Sharifning badaniga titroq yugurib, tan azobi ruh azobini quvib chiqara boshladi. Eng chekkadagi karavotda qarta o'ynab o'tirgan davraning dam jimib qolishi, dam asabga teguvchi g'o'ng'illashi, dam baland ovozda gap talashishlari ham tumanli ufq bag'riga singib ketdi. Ko'ngli aynib, a'zoyi badani qaqshadi. Go'yo ichiga katta ilon kirib olib, buralib, to'lg'ona ketdi. Sharif shu yoshga kirib sira bu holga tushmagan edi. Tumov kabi ne'matlardan el qatori bahramand bo'lib yurardi. Ammo bunaqa azobli dardni sira tortmagan edi. "O'ladiganga o'xshayman, - deb o'yladi u. - Ichimda buralayotgan jon bo'lsa kerak. Jon chiqishi shunaqa og'irimi?" azoblar mavji bir oz pasaygan damda otasini esladi. Otasi muloyim gapira turib jon taslim qilgan edi. Go'yo gapdan horib picha tin olish uchun ko'z yumganday edi. O'shanda "o'lish ham oson ekanda", deb qo'ygandi. Hozir bu dunyoni tashlab ketish oson emasligini angladi.

Sharif hayotdan to'ygan banda emasdi. To'g'ri, u to'yib yeb-ichmadi, tarallabedodlar unga nasib etmadi. Agar shularga intilsa, balki erishardi. Nolimay yashadi, o'z ishini bildi. Shu ahvolda bo'lsa ham yana uzoq yil umr ko'rishni istardi. Ammo nachora... kuni bitganga o'xshaydi.

"Kunim bitganga o'xshaydi..." Sharifning xayoliga bu fikr qattiq o'rtnashib olgan edi. Soqchi orqali do'xtir chaqirishni o'ylamasdi. Bu dard o'lim darakchisi emas, balki mastligida tomiriga yuborilgan qoradorining xumori ekani xayoliga ham kelmas edi. Tergovchining gaplari, bilagidagi igna izi oqibatda bunchalar azoblarga qo'yishini o'ylab ko'rmagan edi. U giyohvandlarning telba ko'zlarini, qiynoqdan to'lg'onishlarini televizorda ko'rgan, ammo bu ahvolga tushib qolish mumkinligini bilmas edi. Uning bukchayib titrashi, o'qchishi xona burchagida qimor o'ynab o'tirgan yigitlar diqqatini tortdi. Ulardan biri Sharifga yaqinlashib peshonasida to'zib yotgan sochini siqimlab, boshini ko'tardi-da, yarim ochiq ko'zlariga qaradi.

- Paxan o'zimizdan ekan-ku, - dedi u sheriklariga qarab. - Nima qilamiz?

- Ishing bo'lmasin, - dedi to'rda o'tirgan kishi.

- Odam qilib qo'ya qolay, haqqini to'lar? - dedi yigit.

To'rda o'tirgan kishidan sado chiqmadi. Yigit o'zi yotadigan karavot tomon yurdi. Yostig'ini ko'tarib, tuguncha oldi. Tugunchada em ignasi, ikki qarich ingichka rezina ichak bor edi. U Sharifga yaqin kelib usta hamshiralarday rezina ichakni Sharifning bilagiga o'radi. So'ng bo'rtib chiqqan tomirga igna sanchdi.

Sharifni azoblar tark etdi. Ichidagi ilon ham tinchidi. "Jonim chiqib ketdimi?" deb o'yladi. U rohat quchog'ida suza boshladi.

Shirin tushlar adog'iga yetib mast uyqudan uyg'onish vaqti yetdi. U ko'zini ochib picha karaxt yotdi. Qamoqda ekani, azob bilan to'lg'ongani tush emas, haqiqat ekani ayon bo'lg'ach, yostiqdan bosh ko'tardi. Temir panjarali deraza ortida tunning qora basharasi ko'rindi. Ikki qavatli temir karavotlarda mahbuslar uxlab yotishibdi. Xona burchagi odatdagiday bedor. Ular Sharifning uyg'onganini darrov sezishmadi. Sharif qaddini ko'tarib oyoqlarini pastga osiltirib o'tirganidan keyin davradagi bir yigit o'rnidan turdi.

- Ha, paxan, ahvol qandoq, zo'rmi? - dedi u Sharifga yaqinlashib.

Sharifga uning yuzi tanish ko'rindi. "Qaerda uchratgan ekanman?" deb o'yladi.

- Pastga tushing mundaq, hisob-kitob qilib qo'yaylik.

"Nimani hisob-kitob qilarkan", deb o'yladi Sharif.

Yigit Sharifni eshik tomon boshladi. Yuvingich yonidagi qo'pol qutini imlab dedi:

- O'tirib yozing, paxan. Kennayimga bizadan salom eting. Ertaga beshtagina kusok tayyorlab qo'ysinla.

- Tushunmadim, - dedi Sharif, - kusogingiz nima?

Yigit rostdan tushunmadimi yo laqillatyaptimi, deb o'ylanib, unga qattiq tikildi. Keyin qo'pol ohangda:

- Besh ming, - dedi. - Ertaga besh ming so'm yetkazib bermasa tilla tishlaringni sug'urib olaman.

- Menda... tilla tish yo'q, - dedi Sharif soddalik qilib.

- Qani, og'zingni och-chi?

Sharif yigitning amriga bo'ysindi.

- I-e, - yigit ajablandi, lekin bo'sh kelmadi, - unda kallangni sug'urib olaman. Besh mingga arziydimi o'zi bu kalla?

- Og'ayni, uyda besh mingim yo'q mening. Men...

- Gapni cho'zma. Yoz xatingni. "Besh ming topib bermasang, meni o'ldirisharkan", deb yoz. Agar bu ham senga yetmasa, bola-chaqang bilan qirib yuboramiz. Besh ming topiladi, bola-chaqa topilmaydi!

Sharif chinakamiga qo'rqib ketdi. Bu yigit hazillashayotganga o'xshamaydi. Sharif bunday qahri qattiq odamlarning qilmishlarini ko'p eshitgan. Odamning kallasini olib huzur topadigan bu bandalar shunchaki po'pisa qilishmaydi. Sharif yigit uzatgan qalamni olib ikkitagina jumla yozdi: "Onasi, menga besh ming juda zarur. Xatni olib borgan odamga topib ber". Yigit xatni o'qib jilmaydi.

- Vey, paxan, odam ekansan-ku, a? - deb yelkasiga urib qo'ydi-da, eshikni taqillatdi. Darcha ochilib soqchining yuzi ko'ringach, xatni uzatdi.

- Shu akaxonimizning xatlari bor ekan, berib qo'ying, duo qilamiz.

Sharif bu holatni ko'rib lol qoldi. Bu yigit kim o'zi - mahbusmi yo turmaning egasimi? "Har holda pachakilashmaganim durust bo'ldi", deb o'ziga taskin berdi. Yigit uni davraga boshladi. Sharifga ham qarta uzatdilar.

- Men... o'ynamayman... bilmayman, - dedi Sharif kartani nari surib.

- Bilmasang, o'rganasan, bundan oson ish yo'q. Erkakmisan o'zing? - dedi yigit qat'iy ohangda. So'ng Sharifning oldiga bir siqim pul qo'ydi. - Bu qarz. Haligidan tashqari.

Sharif avvaliga bir oz yutdi. Yigit unga maslahatchi bo'ldi. So'ng yutqiziq boshlandi. Qarzga berilgan bir siqim g'ijim pul uchdiyu ketdi. Davradagilar hotamtov edilar, bu bechoraga rahm qilib qarzga o'ynashga rozi bo'ldilar. Tongga qadar "Sharif boyvachcha" o'ttiz ming so'mlik qarzga botib, o'rnidan turdi.

- Kennayimga yana bir xat yozasan. Pul uch kunda shu yerda bo'lishi kerak, - dedi yigit. - Bo'lmasa...

- Bilaman, - dedi Sharif, - molim ham, jonim ham talonda.

- Ha, barakalla, bor, yozaqol.

Soqchiga yana bitta xat berildi. Sharif o'rniga chiqib yotib o'ylashga tildi. Boshi berk ko'chaga kirib qoldi desak, uncha to'g'ri bo'lmas. Boshi berk ko'chaga kirib qolgan odam orqasiga qayrilib qaytib chiqib ketishi mumkin. Sharif nazarida boshi berk ko'chaga kirib qolmadi, balki naq jahannamning o'ziga quladi, endi ortga yo'l yo'q. Shu yerda kuyib kul bo'lishi kerak. O'zi-ku kuyib kul bo'lishga mahkum etilgan ekan, oilasini nima sababdan jahannam oloviga ro'para qildi? Sharif mana shundan dog'da edi. Endi nima qilsin? Tergovchiga aytsinmi? U ham bularning odami bo'lsa-chi? Tergovchining ko'rinishi binoyi, o'zini rahmdil, haqiqatparvar qilib ko'rsatyapti. Biroq... hamma baloni shular boshlaydi - Sharifning birinchi uchrashuvdan chiqargan xulosasi shu.

Yangi yilning birinchi kuni Sharifni o'ttiz minglik qarz botqog'iga botirdi. Xotini bu pulni qaerdan topadi, kimlarning ostonasiga bosh uradi - o'ylab o'yiga yetolmadi. Puldor qarindosh-urug'i, oshna-og'aynisi ham yo'q. Sinfdozlari orasida boyvachchalar bor, lekin ularni haromxo'r deb bilib, hatto hazar qilib bordi-keldini yig'ishtirib qo'rgan edi. Endi ular yordam berisharmikin?

Nonushtadan keyin Sharifning tungi "ulfatlari" dam olish uchun karavotlariga cho'zilishdi. Ularga xalaqit berishning qanday oqibatga olib kelishini barcha bilmidimi, har holda aytadigan gaplarini pichirlab aytishdi, yursalar oyoq uchida, tovush chiqarmay yurishdi. Tunda horigan mahbuslar peshingacha uxlab, xuddi kelishib olganday bir vaqtda uyg'onishdi. Bir-ikkitasi yuz-qo'lini yuvgan bo'ldi. Qolgani turiboq, bir esnab, bir kerishib tunda egallab o'tirgan joyiga bordi. Tartibli idora xodimlariday, xizmatni bir daqiqacha kech boshlasa qiyomat yuz beradiganday jam bo'lib olishdi. Lekin o'yinni - xizmatni boshlashmadi. Idoralardagi "besh daqiqalik majlis" kabi bularning ham izdihomi mavjud edi. Idoralardan farqib bu yerda majlis bir-ikki soat emas, bir-ikki daqiqacha davom etardi. To'rog'asining gapi qisqa edi:

- Olib kelishmabdimi?

Javob undan ham qisqa:

- Vaqt o'tdi.

Hukm undan-da qisqa:

- Boshla.

Sharif talvasada yotganida unga jon ato etgan yigit o'rnidan turib eshik yaqinidagi karavotga yaqinlashdi. Karavotda uzala tushib yotgan go'shtdor odamni turtdi:

- Tur o'rmingdan, to'nka! - deb baqirdi. Xonadagilar hozir dahshatli voqea yuz berajagini fahmlab, nafas yutdilar. Karavotdagi odam - o'ttiz besh yoshlardagi baqaloq yigit - pinakka ketgan ekanmi, qaddini ko'tardi-yu, ammo nima gap ekanini anglamay, javdirab qaradi.

- Soatingga qara, bir bo'ldimi? O'n ikkiga yetkazishing kerakmide?

- Olib kelishadi, gap yo'q, okaxon.

- Qani, og'zingni och.

- Jon okaxon, Xudo ursin, olib kelishadi.

- Och deyaqman!

Yigit elanavergach, davradan bir odam turdi-da, unga yaqinlashib boshini changalladi. Xuddi tarvuz tanlayotganday qattiq siqdi. Yigit og'riqqa chidayolmay dodladi. Shunda u odam ikkita barmog'ini yigitning burniga tiqib, bir qo'li bilan pastki jag'ini pastga tortdi. Yapaloq ombir bilan yigitning tilla tishlarini bir-bir sug'urib oldilar. Mahbuslar, jumladan Sharif ham oraga tushishga qo'rqib, hech narsani eshitmaganday, sezmaganday jim yotaverdilar. Tashqaridagi soqchilar esa, dod-faryodga ahamiyat ham bermadilar. Sharif bu manzarani ko'rib titrab ketdi. "Buning-ku, tilla tishlarini sug'urib oldilar. Meni nima qilishar ekan?" degan o'y uni "o'zimni o'ldirsam qutulamanmi shu azoblardan", degan to'xtam sari boshladi.

2

Zohid Sharipov prokuratura joylashgan imoratning ro'parasidagi katta chinor yonida turgan ayolni darrov tanidi. Uning shunday fazilati bor - bir ko'rgan odamini ancha vaqtdan keyin ham darrov taniydi. Egniga odmi, bir oz uringan palto kiyib, jun ro'mol o'rab olgan bu ayol - Sharif Namozovning xotini - Nasiba edi. Bu hol Zohidni ajablantirmadi. Xibsga olinganlarning yaqinlari milisaxonaga, prokuraturalarga qatnayverib tinkalari quriydi. Ayollar yo'l poylab, ko'z yosh to'kib charchashmaydi. Erlarining yoki otalarining, aka-ukalarining begunoh ekanini isbotlashga urinishadi. Bu faryodlarga qarab turib, "faqat begunohlar qamalar ekan-da", deb fikrlash mumkin. Zohid hozir ham shu hol takrorlanadi, deb o'yladi. Xotinni ko'rmaganga olib o'tib ketmoqchi ham bo'ldi. Lekin o'zi sezmaganday kuch uni bir nafas to'xtatdi. Ayolning harakatga kelishi uchun shu bir nafaslik to'xtash kifoya edi.

- Sizda gapim bor, - dedi ayol siniq ovozda.

- Yuring, - dedi Zohid.

Ayolga sovuqroq muomala qilgani o'zining ham g'ashini keltirdi. "Bu xotin necha soatdan beri sovuqda turgan ekan, gapi bordirki

kutgan... Erining aybi yo'qligini o'zim ham sezib turibman. Bu bechoraga nima uchun xo'mraydim?" Zohid imoratga yarashmay turgan kichkina peshayvonga chiqib ortiga o'girildi. Nasiba "kelib to'g'ri qildimmi yo adashdim-mi?" deganday bitta-bitta bosib chiqardi.

- Kennoyi, yuravering, - dedi Zohid.

Bu gapdan keyin ayol sal dadillandi. Mashoyixlar "so'z xanjar bo'lib jonni olishi ham, tiriklik suvi bo'lib o'likka jon berishi ham mumkin", deganlariday, Zohidning "kennoyi" deyishi ayoldagi xavotir bulutini bir oz tarqatdi.

O'tgan kuni peshinda bir yigit kelib: "Sharif akamgila xat berib yubordila", deganida xufton dili birdan yorishib ketdi. Ammo "Besh ming berib yubor", degan gapni o'qib ajablandi. Xayoliga urilgan narsa - pulni milisadagilar so'rashgan, degan fikr bo'ldi. Yigit yana kelajagini bildirib, tezda iziga qaytdi. Kecha esa o'ttiz ming so'ralgan maktubni o'qib, eti uvishib ketdi. "Agar shu pul evaziga chiqarib yuborishsa, uyni sotib bo'lsa ham topib beraman", degan qarorga keldi. Keyin fikri bir oz tiniqlashgach, "pulni kim so'ragan bo'lishi mumkin?" deb o'ylay boshladi. O'sha kuni uni ikki yigit so'roq qildi. Biri sharttakiroq edi. O'sha so'radimi? Keyingisi prokuraturadanman, degan edi, yo o'shanisiga kerakmi bu pul?

Nasiba, garchi ma'lumotli ayol bo'lsa-da, huquq ilmidan butkul begona edi. Milisaning vazifasi - ushlashu qamash, prokuraturaning vazifasi - qoralash, sudning ishi - hukm chiqarish, degan yuzaki tushuncha barcha o'zbeklar singari unga ham yo'ldosh edi. O'ylagan o'ylari ham shu tushunchalar atrofidan nari siljimas edi. Prokuratura faqat qoralash emas, haqiqatni oydinlashtirish ishi bilan ham shug'ullanishi lozimligini bilmasa-da, pul so'rasa shular so'raydi, degan fikr uni Zohid bilan uchrashishga da'vat etdi. "So'raydigan bo'lsa o'zimga aytsin, nimaga odam qo'yadi", deb tongotarda yo'lga chiqdi. To Zohid ko'ringuncha ming xayolga bordi. "O'zimni qamab qo'ysa-ya", deb qo'rqdi ham. Zohid sovuqqina qilib "yuring", degach, "ha, shu so'ragan, kelganim yoqmad", deb, kutganlariga pushaymon yedi. Ammo "kennoyi" degan so'z umid ham berdi. "Bu emasdir", degan ilinj bilan qadamini tezlatdi.

Zohid Nasibaga joy ko'rsatib, o'zi ham o'tirdi. U ayolning erimda ayb yo'q, deb gap boshlashini kutib, "qulog'im sizda", deganday qaradi. Ayol dafatan tilga kirmadi. Uning nimadandir o'ng'aysizlanayotganini Zohid sezdi.

- Kennoyi, bir gap bo'ldimi, erta sahardan kelib turibsiz?

- Yo'-o'q, - Nasiba shunday deb Zohidning ko'ziga bir qarab oldi. Dilidagini aytish yoki aytmasligini bilmay yana ikkilandi. - Bilay deb keluvdim.

- Tergov endi boshlandi. Sizga bir nima deyishim qiyin.

- Rostdan ishonapsizmi shunga?

- Biz dalillarga ishonamiz. Uyingizdan qoradori chiqqan. Bu eringizga qarshi bir dalil. Agar uni biror odam qasddan tashlab qo'ygan desak, bunga ham dalil kerak, guvoh kerak. Agar shu ishga oid biron gapingiz bo'lsa, ayting.

- Gapim yo'-o'q... - Nasiba aytmasa, hozir chiqib ketishi lozimligini bilib, so'zida tutila-tutilla maqsadga ko'chdi. - O'zimda yo'q, lekin qarindosh-urug' qarab turmas. Bir haftada olib kelsam... dalil topiladimi?

Zohid avvaliga tushunmadi. Keyin ayolning maqsadini fahmlab joni chiqib ketay dedi. Odamlarning pora taklif etishi uning uchun yangilik emas. Akasining o'limi va sud jarayonlari davrida ishga pul aralashganini sezib qanchalar iztirobga tushgan bo'lsa, keyinroq bu xizmatga o'tib pora bilan yuzma-yuz kelgach, undan beshbattar qiynoqlarga uchradi. Pora degan narsa bir qaraganda ko'rinishi yoqimtoy, tili shirin, onasi o'pmagan qizga o'xshaydi. Bu qiz ishvali jilmayib, ko'z qisib, nuqul to'shakka imlaydi. Hatto chol odamni ham bo'ydoq yigit holiga solib qo'yadi. Yelkadagi shayton tinmay shivirlab, "uning quchog'iga ot", deydi. Ammo bu ishvalar, bu shivirlar Zohidga hukm o'tkaza olmaydi. Chunki o'sha ishva bilan uning orasida akasining ruhi bor. Ishvaga uchsa B'B akasining murdasini bosib o'tgan bo'ladi. Zohidning sergak ongi bunga yo'l qo'ymaydi.

Hozir pora taklif etayotgan bu juvonga qarab, g'azabini ichiga yutdi. "Bu ayol chaynalib gapiryapti. Umrda birovdan o'zi uchun bir narsa so'ramagan, ta'ma qilmagan odam shunaqa bo'ladi. "Men sizga shuncha beray, erimni qo'yib yuboring", deyishga andishasi yo'l bermayaptimi?"

- Sizga bu gaplarni birov o'rgatdimi yo o'zingiz o'ylab topdingizmi?

Zohidning ovozida qahr, g'azab zohir edi. Nasiba bu yigitning tez o'zgarishini kutmagani uchun bir seskanib tushdi, tamom o'zini yo'qotdi.

- Bunaqa gaplar uchun...

Nasiba yig'lab yubormay, deb pastki labini tishladi. "Mayli, meni ham qamay qoling. Sizlar begunoh odamlarni qamash, mayib qilish, xo'rlash uchun dunyoga kelgansizlar. Sizlar biz bechoralarning ko'z yoshlarini, jigar qonlarini tilla tog'larga aylantirasizlar. Harom non yeb qorinni qappaytirasizlaru yana bizlarga do'q urasizlar!?" degan hayqiriq ko'kragini ezdi, ammo bo'g'zidan nariga ko'tarilmadi. Dardi ichida qolaverdi. Haqiqatni aytish shunaqa qiyin. Ayniqsa nopok odamlarga (Nasibaning nazarida Zohid ham nopoklardan edi) bas kelish mushkul. Undan ko'ra o'ttiz besh ming so'mni topib berish osonroq. Nasiba "bu yigitga bekor uchrabman. Endi o'rta qo'ygan odami bilan gaplashaveraman", degan fikrga kelib joyidan qo'zg'oldi.

- Kennoyi, kim nima desa so'ziga uchavermang. Besh qo'l barobar emas. O'ylab ish qiling.

Zohidning muloyimlashgani juvonni yana o'rniga qaytardi.

- Axir xat olib kelishdi-ku? - dedi ajablanib.

- Qanaqa xat?

Nasiba cho'ntagida g'ijimlab turgan xatni chiqarib uzatdi. Zohid shoshib olib o'qidi.

- Dastxat eringiznikimi, aniqmi?

- O'zlariniki, xatlarini tanimaymanmi?

Zohidga voqea ravshanlashdi. U turmalardagi ahvolni bilardi. Lekin juvonga xatning yozilishi tarixini aytolmasdi. Aytsa, bu xotinning esi og'ib qolishi hech gapmas.

- Siz... uyingizga boring. Bu ishni bizga qo'yib bering. Agar pulni so'rab kelishsa, ikki soatdan keyin keling, deng u menga xabar bering.

Zohid gapini tugatishi bilan eshik ochilib, bashang kiyingan yigit kirib keldi. Zohid prokurorning yordamchisi bilan yaqin aloqada bo'lgan bu tergovchini tanirdi, ammo hamsuhbat bo'lmagan edi. Uning xonaga beruxsat kirib kelib, yana o'tirib olishi g'ashini keltirdi. Nasibaga "boravering" deganday qarab qo'ydi. Juvon o'rnidan turganida yigit uni to'xtatdi.

- Kechirasiz, opa, siz kim bo'lasiz?

- Bu kishi Namozova, suhbatga chaqirgan edim, - dedi Zohid sovuq ohangda.

- E, anavi bechoraning xotinimisiz? - dedi yigit achingan odamday. - Eringizni tushunmovchilik bilan qamashibdi. Bugun qo'yib

yuboramiz.

Ayol tushimi yo o'ngi ekanini bilmay tamom gangidi.

- Siz ketavering. Osh-posh pishguncha eringiz uyingizga kirib boradi.

- Rostmi... voy...

- E, odamlarga yaxshi gap aytsang ham ishonishmaydi-ya! Prokuror yordamchisi hozir buyruq berdi. Eringiz ozod. Tezroq boring uyingizga.

Ayol ajablanib, Zohidga bir qarab oldiyu xonadan shoshilib chiqdi.

Zohid juvoning savol nazariga javob berishga ojiz, chunki uning hayronligi ham ayolnikidan kam emasdi.

- Gapingizga tushunmadim? - dedi Zohid, ayol chiqib ketishi bilan.

- Vinzavod direktori prokuror yordamchisiga kelib hammasini o'zi tashkil qilganini bo'yniga oldi. Namozov begunoh. Sizga shuni aytgani kiruvdim. Ovora bo'lib qog'oz titib yurmang. Omon bo'ling, oshna.

- Direktor tuhmat qilgan bo'lsa...

- Bu yog'i bilan ishingiz bo'lmasin, - yigit shunday deb, chiqib ketdi.

Zohid qanday o'yin bo'layotganini bilolmay hayron qoldi.

3

- Namozov!

Dilgir o'tirgan Sharif soqchining amri ovozini eshitib o'rnidan qo'zg'oldi. Qamoqxona da ezilib o'tirish durustmi yo tergovchi bilan uzundan-uzun suhbat qurishmi - bilmasdi. Tilla tishlari sug'urib olingan odam ihrashlarini bas qilgan, ammo uning zorli ovozi Sharifning quloqlariga muhrlanib qolgan edi. Kap-katta erkak odamning so'yishga mahkum etilgan buqaday o'kirishi, so'ng tul xotinday piqillab yig'lashi, keyin omonatini topshirishga qasd qilgan, so'nggi nafasleri bilan ihranayotgan bemor kabi ovoz chiqarishi faqat Sharifga atalganday edi. U bo'kirganda ham, yig'laganda, ihranganida ham Sharifga "Ko'rib qo'y, sening boshingga ham shu tushadi. Seni azoblashdan avval menda tajriba o'tkazishyapti. Sening tilla tishlaring yo'q, itdan battar xor bo'lasan", deganday bo'lar edi. Sharif uchun bir narsa qorong'i - bu odam jon azobida ingrayaptimi yo mol achchig'idami? Har holda tillaning narxi hozir falon pul...

"Ish kuni" qarta o'ynidan iborat bo'lgan odamlar esa o'z yumushlari bilan band. O'rtadagi bir tutam pul go'yo shu qamoqxonadagilar taqdiri yozilgan hukm qog'oz. O'y surib yotgan, bir-biri bilan past ovozda gaplashib qo'yayotgan, qattiq yostiqqa yuzini bosib pinhona yig'layotgan katta-kichik erkaklarning har biri istalgan paytda pul o'rniga tikilishi mumkin. Bu yerdagi mahbuslarning ishlari ham tergovda. Sudgacha hali fursat bor. Qimor o'ynovchilar tergovchi va hakamlarga nisbatan tez ishlaydilar.

Sharif o'ziga atalgan hukm va ijroning qanday bo'lishini o'ylab, ezilib o'tirganidi, soqchi uni chaqirdi. Sharif yarim ochiq eshikka yaqinlashib orqasiga o'girilib qaradi: burchakdagilarning u bilan ishlari yo'q, muhim muammoni hal etolmay garang bo'layotgan olimlar kabi jim o'tirishibdi. Go'yo soqchining ovozini eshitishmagan, go'yo Sharifni qulog'igacha qarzga botirishmagan. Hatto ko'ngil uchun ham bir qayrilib qarab qo'yishmadi-ya!

Soqchi dahlizdagi sherigiga Sharifni topshirib, o'zi eshikni sharaqlatib yopdi. Sharif temir zinalardan pastga, undan hovliga chiqdi. U tergovchi bilan uchrashuvga hozirlangan edi. Soqchi Sharifni ikkita stol qo'yilgan chog'roq xonaga boshlab kirdi. Qaldirg'och mo'ylovli yigit Sharifga faqiriga mensimay qaragan podsho kabi ilkis nazar tashlab qo'ydi. Podsholar bunday paytda faqirning ta'zim bajo aylashini, tiz cho'kishini, tizzalab yurib kelib oyoqlarini o'pishlarini kutganlar. Bu mo'ylabli yigit qadim shohlarning faqat nazarinigina olgan, qolgan udumlardan "feodal sarqiti" sifatida voz kechgan deyish mumkin emas. Agar Sharif hozir tiz cho'ksa, faqirga lozim bo'lgan ishlarni bajarsa, bu "ko'ngli bo'sh" azamat yigit yo'q demasdi. Har holda bu yigitning o'zi hukmdor bo'lmasa-da, qarashlari va aytar so'zi shohona edi.

- Namozov, siz ozodsiz. Ayblaringiz isbotlanmadi.

Sharif prokuratura tergovchisi bilan suhbatdan keyin "bu bir anglashilmovchilik bo'lsa kerak, tekshirib chiqarib yuborishadi", deb umid qilgan edi. Qamoqxona eshigi har ochilganda yo soqchi tirqishdan mo'ralaganda "meni chaqirisharmikin", deb najot ko'zi bilan qaragan odam "Siz ozodsiz" degan so'zni eshitib ishonmadi. "Siz falon jinoyatni qilishda ayblanasiz" deyish ham, "Siz ozodsiz!" deyish ham shunchalar osonmi? Dunyoning lazzatini faqat ilm bilan shug'ullanishda va oqibatda nimadir kashf etishda deb bilgan odamga bu idora, uning xodimlari, ularning muomalalari g'alati tuyulardi. Odamni bu darajada xo'rlash, bu darajada kalaka qilish, bu darajada tepkilash mumkinligini tasavvuriga sig'dirolmas edi. Bu xo'rliklarni o'z ko'zi bilan ko'rib, tanasida his etgan bo'lsa ham, ishongisi kelmasdi. Hozir qaldirg'och mo'ylabli yigitning yana bir marta "Siz ozodsiz", deyishini kutdi. Ammo yigit onasidan kamgap bo'lib tug'ilganmi, yo unga rahbarlari "faqat bir marta aytasan bu so'zni" deb qattiq tayinlashganmi, yo bu shirin so'zning qimmatini falon so'mu bu pulni to'lashga Sharifning qurbi yetmasligini bilgani uchunmi - har holda takrorlamadi. Shunda Sharifning bag'ri yondi. Noshukur banda! Rahmat, deb chiqib ketavermaydimi?! Hozirgina o'limiga rozi bo'lib o'tirgan odam birdan haqiqatni aytgisi kelib qoldi. "Nimaga meni bu azobga giriftor qildinglar, nima haqlaring bor edi, qilg'iliqni qilib qo'yib, uzr so'raydigan tillaring uzilib tushganmi?!" demoqchi edi. So'z boshladi ham:

- Nimaga...

Har tugur yigit gapirgani qo'ymadi:

- Nimagaligini uyingizga borganda bilasiz. Yaxshi odamlarning nazari sizga tushibdi. Bo'lmasa urug'-aymog'ingiz bilan qamoqda chirirdingiz. Boring, gapni cho'zmang, - yigit shunday deb bir parcha qog'oz uzatdi.

Sharif qog'ozga qo'l uzatgan edi, orqasidagi soqchi chaqqonlik qilib, qog'ozni undan avvalroq oldi-da, yelkasiga "yur" deganday turtib qo'ydi.

Sharif darvoza eshigidan tashqariga chiqib ikki-uch qadam yurgach, to'xtab, o'girildi. Tepasi sim to'siqli devor balandligini chamalaganday uzoq tikildi. Shu payt yonida sutrang "Jiguli" to'xtab, xayolini buzdi. O'zini chetga olishiga ulgurmay mashina eshigi ochildi.

- O'tiring, okaxon, - dedi jingalak sochli yigit, mehribonlik bilan.

- Rahmat, uka, ovora bo'lmang, - dedi Sharif. U "yigit biror tanishimning yo ukasi yoki o'g'li bo'lsa kerak, tasodifan ko'rib qoldi", deb o'yladi. Qamoqdan chiqa solib tanishga uchraganidan hatto xijolat bo'ldi. Odamlar aybi bormi yo yo'qmi deb mulohaza qilib o'tirishmaydi. "Qamoqda o'tirib chiqqan", deb, ola qarashadi.

- O'tiring, - dedi Jamshid. Bu safar uning ovozida mehribonlik emas, qat'iylik, amr ohangi zohir edi. Garangsib turgan Sharif buni



sezmad. Jamshidning atayin kutib turgani ham uning xayoliga kelmas edi.

- Men eski shaharga boraman, - dedi Sharif.

- O'tiring, o'sha yoqqa ketyapman.

Sharif "unda mayli, sizni ovora qilmas ekanman", deb mashinaga o'tirdi. Tanish yigitlar hech bo'lmasa hol-ahvol so'rab qo'yishardi. Bu esa miq etmay ketyapti. Sharif shundan ajablanib, so'radi:

- Uka, sizni tanimayroq turibman?

- Tanimaysiz. Bir yaxshi odamni duo qilavering. Shu odam sizga muruvvat qilmasa, qamoqda chirib ketardingiz.

"Yaxshi odamlarning nazari tushibdi..." Sharif qamoqxonadagi qaldirg'och mo'ylovli yigitning gapini esladi. Kim ekan u yaxshi odam, nima uchun unga muruvvat qilyapti? Sharif yaxshilik qilishi mumkin bo'lgan tanishlarini bir-bir eslashga urindi. Uning tanishlari orasida bunchalar qo'li uzun odam yo'q edi. Qilich Sulaymonov-chi? Avval qamoqqa tiqib, so'ng olib chiqib qudratini ko'rsatib qo'ymoqchi bo'ldimi? Shu fikr Sharifga to'g'riday tuyulib, so'radi:

- Yaxshi odam... Qilich Sulaymonovmi?

Yigit javob bermadi.

- Asadbekmi?

- Sergap odam ekansiz! - yigit shunday deb jerkib berdi.

"Demak, o'sha", degan qarorga keldi Sharif. Odam bolasining dushmani o'z tili, deganlaridek, tili jilovsiz bo'lgani uchun Sharif ko'p pand yerd. Uning zo'r ilmlarga yetgan aqli oddiy haqiqatni tushunishga qosirlik qilib qolar edi. Kambag'al yashashi, ilmda olg'a siljishda qiynalishi, unvonlardan benasib qolishi va nihoyat, qamoqqa tushishida suyaksiz tilning ko'p xizmatlari borligini tushungisi ham kelmas edi. Xotini zorlanib "tilingizni tiyibroq yuring", degan paytlarida "Men indamay ketadigan qul emasman", deb o'jarlik qilardi. Boyvuchchalarning o'tkir hidli atirini sepib, yasanib olgan bu jingalaksoch yigitning "sergap ekansiz", deb jerkib berishidan uning o'jarligi tutdi.

Yo'ldan ko'z uzmay kelayotgan Jamshid orqasiga o'girilib, unga ajablanib qarab oldi.

- Qanaqa o'ttiz ming?

- Vaqti kelganda bilib olasiz, - dedi Sharif uning boyagi gapiga taqlid qilib.

- Bilib olamiz, xotirjam bo'lavering, - dedi Jamshid uning pichingiga e'tibor bermay.

Jamshid mashinani Sharifning eshigi oldida to'xtatdi.

- Ortiqcha valaqlamay, boshingizga g'alva orttirmasdan uyingizda jim o'tiring. Ertaga ishga chiqasiz. Yaxshilab bilib oling, okaxon: sizni panohiga olgan odam kerak bo'lsa o'ttiz mingdan o'ttiz mingtasini boshingizdan sochadi. Agar uni xafa qilsangiz, urug'-aymog'ingiz bilan, o'ttiz bir ming to'miringizni quritib tashlaydi.

Sharif eshikni ochib, bir oyog'ini yerga qo'ygan damda bu gapni eshitib to'xtadi. Tarang tortilib turgan asab tomirlari battar qaqshadi.

- Meni qo'rqitmang, - dedi ovozini ko'tarib.

Jamshid, uni hayron qoldirib, javob bermadi. Sharif battar tutaqib, tili kalimaga kelmay qoldi. "He onalaringni..." deb so'kinib mashinadan tushdi-da, eshikni qarsillatib yopdi.

Sharif deyarli so'kinmas edi. So'kingan taqdirda hech bo'lmasa jag'i yorilishi mumkinligini ham bilmasdi. Baxtiga u endi Asadbekning odamiga aylandi. Hozir "onangni..." deyishi nima ekan, buning yoniga amma-xolarini, opa-singillarini qo'shib so'kkanida ham Jamshid lom-mim deyo'lmasdi. Jamshid Asadbekni ko'pga hotamtoylik qilishini biladi. Uning nazarida xo'jayini Sharifni shunchaki panohiga oldi. Xo'jayinning e'tiboridagi odamga ola qarash mumkin emasligi unga o'z o'zidan ravshan. Unga yana bir narsa aniq - buyruqni ado etish chog'ida begonalar bilan gaplashmasligi, ayniqsa, piri Asadbek haqida biron so'z aytmasligi shart. Hozir Sharifga po'pisa qilib shu shartni buzdi. Sharifning gapidan achchiqlanib, "xo'jayin o'ttiz ming so'raydigan gadoy emasligi"ni bildirib qo'yish uchun chegaradan chiqqanini o'zi ham sezmay qoldi. Chegaradan hatlashga hatladi-yu, so'ng afsuslanib, mum tishladi. Sharifning haqoratiga parvo qilmay o'tirishining ikkinchi sababi shu.

Sharif eshikni yopishi bilan "Jiguli" poygachi mashinalarday siltanib qo'zg'oldi. Yo'lni avaylabgina qoplayotgan qor to'zg'ib ketdi. Sharif eshigi oldida turib qoldi. Oppoq g'ishtdan qurilib savlat to'kib turgan imoratlar qatoridagi somon suvoqli pastak uyi ko'ziga yetim boladay mung'ayib ko'rindi. Nazarida egasi qamoqqa olib ketilganidan so'ng uyi sharmandalik yukini ko'tarolmay cho'kibroq qolganay tuyuldi.

Tuhmatdan qamalib, so'ng ozodlikka chiqqan odam quvonchini ichiga sig'dirolmay, baxtidan yonib, hazor-hazor shukrlar qilib uyiga uchib kirishi kerak. Sharifda esa bunday baxt, bunday quvonch yo'q edi. U davlat qamog'idan qutulgan bilan, ko'rinmas to'rga chirmab tashlanganini, bu to'r uni oqibatda batamom halok etishini sezib turardi. Mana shu sezgi uni ozodlik baxtiga begona qilib qo'ygandi. U yelkasidagi dard yuki bilan ostona hatlab hovliga kirdi. Yo'lakda bittagina iz - qor uchqunlari hali bu izni ko'mib ulgurmagani - demak, Nasibasi yaqinda ko'chadan qaytgan.

Hovli etagida "oshxona" nomi bilan zikr etiluvchi bostirmaning eshigi zorlanib ochilib, Nasiba chiqib keldi. U eri tomon bir-ikki qadam qo'ydi. So'ng nima qilarini bilmay tosh kabi qotdi. Keyin beixtiyor ravishda yugurib kelib, Sharifni quchoqlab oldi.

Oq g'ishtli dang'illama uylarni, duru gavharlarni orzu qilmay yashayotgani, qozonlari bozor go'shti qanday bo'lishini bilmay, muzlagan go'shtga ham qanoat qiluvchi, halol yashamoqlik zahmatini barcha lazzatlardan afzal ko'ruvchi, boriga shukr qilib umr kechirayotgan bu ikki bandaning tili gapga kelmas edi. Ular "gunohimiz nima ekan?" degan jumboqqa yechim izlashar edi.

Yaratganing oldida ularning gunohlari yo'qdir, deyo'lmaymiz, beayb - parvardigor. Bizning fikri o'zimizcha, boshlariga kulfat solgan "gunoh"larning eng ulug'i - "o'ynashmagin arbob bilan..." degan hikmatni unutganlarida. Zamonlar o'zgaradi, tuzumlar o'zgaradi, podsholar kelib ketaberadi, bular - dunyoning ustidagi liboslar. Eski ko'ylak ustiga yangisi kiyilgani, vujud, qalb, insof, vijdon esa o'zgaray qolabergani kabi, foni dunyo aslini o'zgartirmaydi. Xalq yaratgan hikmatlar ham aslicha yashayveradi. Avvalambor Sharif, qolaversa Nasibaning ko'p narsalarga yetguvchi aqli, fahmi-farosati shu nuqtaga yetganda andak o'zlik qilgani uchun ham bu kichik kulfat tuzini totib ko'rishdi.

Nasiba erining kirib kelishi tushi emas, o'ngi ekaniga ishonch hosil qilgach, uni bag'ridan bo'shatib, uyga boshladi. "Bolalarni olib kelmadingmi?" dedi Sharif ostona hatlab ichkari kirgach.

Nasiba labini tishlab, bosh chayqadi. Shu kunlar ichi huvillayotgan uyda yolg'iz o'tirish unga oson kechmadi. Ammo yolg'izlik azobidan "dadam qanilar?" degan savolga javob qaytarish ming chandon og'irroq edi. Bu savol uni ilon kabi chaqishi, nazarida hatto jonini ham sug'urib olishi mumkin edi. O'zi aytmagan taqdirda ham, bolalari ko'chadan eshitishardi. Dadalarining qamoqda o'tirgani murg'ak qalblarni ezib tashlamasmidi? Nasiba shuning uchun bolalarini onasiniqidan olib kelmagan edi. Sharif buni

tushundi. "Yangi yil kechasi ham yolg'iz o'tiribdi-da, bechora", dedi o'zicha.

Nonushta mahali ham bo'lib o'tgan noxushlikdan so'z ochmadilar. Ikkovi bir-biriga qarab-qarab qo'yib, nomigagina non tishlab, choy ho'plab o'tirdilar. Er-xotinning ishtahasi yo'q edi. Ular ilk marta yolg'iz qolib bir-biriga aytishga so'z topolmay iymanib o'tirgan kelin-kuyovga o'xshashardi.

Sharif Nasibadan savollar kutardi. Nasiba "erim o'zi gapirar", degan ilinjda edi. Nojo'ya savol bilan erining diliga ozor yetkazishdan cho'chirdi.

Barcha ko'rguliklariga "fosh qilaman" deb do'q urgani sabab bo'lganini tushunib yetgan Sharifning xotiniga bu haqda gapirish niyati yo'q edi. Shu birgina po'pisa uchun qamoqqa tiqib qo'ya oladigan zotlar fosh qilishga kirishilgan taqdirda qaerga olib borib tiqib qo'yishi mumkinligini xotini bilsa, dahshatdan yuragi yorilib ketishi hech gapmas.

Sharif jonini saqlab qolishning birdan-bir yo'li tilning bevoshtligiga barham berishi lozimligini angladi. Uni qiynayotgan narsa - bilagidagi igna izlari, qamoqda xuruj qilgan tan azobi. Hademay yana bosh ko'taruvchi bu azobga endi dosh bera oladimi? Yo giyohvandga aylanib qoladimi? Mana shu fikrning o'ziyoq uni dahshat to'rida ushlab turardi.

## VII bob

1

Jalil uyiga qaytdi-yu, ammo tinchini yo'qotdi. Asadbek boshiga bir og'ir ish tushganiga amin bo'lib, tashvishlandi. Hali "falonchini otib ketibdi", hali "falonchini yoqib ketishibdi", degan vahimali mish-mishlar bosh ko'tarayotgan tahlakali kunlarda Asadbekday odamning ham joni qil ustida ekanini Jalil yaxshi tushunardi. Avvalo g'anim qasd qilmasin. Qasd qilsa biron uning jonini saqlab qololmaydi. Atrofni o'nta ishonchli yigit o'rab tursa ham bitta o'q sig'adigan tuynukcha topilib qolar. Shunday ekan, bu o'yinga kirganlarning umri xotimasi aniq. Asadbek shuni sezdimi? Yuragi sezgani uchun birodari bilan vidolashib olmoqchi bo'ldimi? Asadbekning bevaqt chorlovi Jalilni bu fikr iskanjasiga topshirdi.

Jalilning nazarida televizordagi bejirim lablari kulib turgan qiz-juvonlar, tirjayib turib ashula aytayotgan xonandalardan tashqari butun el tashvishga burkangan edi. Hamisha miriqib ko'radigan tomoshalari bu kech unga yoqmadi. "Yangi yil kutish" degan gap ham birdaniga erish tuyuldi. Kuyovi bilan piyolani cho'qishtirib qo'ydiyu aroqni ichmadi. Doimo zavq beruvchi farzandlar davrasi ham tatimadi. Yuragi tars yorilguday bo'lib o'rnidan turib ketdi. "Tobim qochdi", deb xonasiga kirib cho'zildi. "Tinchlikmi, adasi, o'rtog'ingiz tinchmilar ishqilib", deb kirgan xotiniga bobillab berdi.

Soat o'n ikkida farzandlari bir-bir kirib yangi yil bilan tabriklab chiqishdi. Qo'shni xonada tongga qadar televizor sayradi. Jalil tongni it azobida kutdi. Chala-yarim nonushta qilib, ota mahallasiga jo'nadi. Asadbekning bolaligi o'tgan hovli eshigi ichkaridan tanbalangan, demak, chiqib ketibdi. Jalil uyiga kirib ukasini yo'qladi-yu, Asadbeknikiga qarab yo'l oldi.

O'rtog'i uyiga kelmabdi. Manzura odatiga xiyonat qilmagan ravishda yerdan ko'zini uzmay so'rashdi.

- Tinchlikmi, o'zi kelin?

- Tinchlik, - dedi u past ovozda. Bu oilaga samimiy munosabatda bo'luvchi eng yaqin odamning Jalil ekanini, hatto unga ham oila sirlarini ishonib aytish mumkinmasligini Manzura biladi. Ko'z yoshi to'kib hasrat daftarini ochgisi keladi. Ammo... eri aytmagan sirni u aytolmaydi...

- Agar tinchlik shunaqa bo'lsa, g'alvasi qanaqa bo'larkan, - dedi u iziga qaytayotib. - Galvars eringizga ming marta aytdim, shu ishlarni yig'ishtir, deb.

- O'rtog'ingizni bilasiz-ku...

"Ha, bilaman, - deb o'yladi Jalil, - Xudo unga boylik berganu tariqcha aql bermagan. Million so'mi yo'qlar qirilib ketyaptimi, shuncha boylik kammi unga, go'riga ortmoqlab boradimi? Lahadda boshiga bittagina guvala qo'yiladi, pul qo'yilmaydi, shunga farosati yetmaydimi?..."

Shu gaplar xayoliga keldi-yu, ammo ayolga qarab vaysashdan o'zini tiydi. Shu topda eshikdan Asadbek kirib kelsa, shu zahar gaplarni aytalarimi? Aytish ham gapmi?! Xo'sh, shaharni yotqizib-turg'izish qo'lidan keladigan Asadbek-chi? Eski yuz so'mlikni uzoqdan ko'rib qolgan, yangisi chiqqanini ko'rish u yoqda tursin, hali eshitmagan oddiy ishchining haqorat chegarasini ham bosib o'tib ketuvchi so'zlariga nima deydi? Jalil gapira-gapira jo'shib ketsa, shartta biqinini chimchilaydi yo songa shapatilab urib qoladi - shunda Asadbek nima qiladi? Kayfiyati yaxshi bo'lsa - kulib qo'ya qoladi. Hatto o'rtog'ining bu qiligidan yayraydi. Bolalik damlari esiga tushib shirin entikadi. Bolaligida bir ro'shnoqlik ko'rmagan bo'lsa ham vujudiga rohat o'rmlaydi... Jalil zaharga bulab otayotgan so'z o'qlariga kayfiyati nobop paytida duch kelsa ham g'azablanmaydi. O'zini bosadi. "Ha, qilig'i sovuq" deb to'ng'illab qo'yadi... Shunday ekan, Jalil ichini yondirayotgan gaplarini Manzuraga aytadimi yo soqchi yigitlargami, yo Asadbekning o'zigami - farqi yo'q, so'zlar samoga sochilgan o'qlardek samara bermaydi.

Jalil Manzuraga qaradi-yu "xayr" deb tashqariga chiqdi. Endi qayoqqa borishini bilmay garangsidi. Katta ko'chaga qadar kalovlanib bordi. So'ng pishillab to'xtagan avtobusga chiqib uyiga ketdi.

2

Asadbek oshnasinikiga deyarli kelmas edi. To'y-ma'rakalarda birrov kelib ketardi. Jalilning bolalari, ayniqsa kuyovi, Asadbekning nomini eshitishgan, ammo o'zini yaxshi tanishmas edi. Shuning uchun eshik qo'ng'irog'i tugmasini bosib yo'qlagan bashang kiyimli kishini ko'rib, ajablanishdi. To Qamara - Jalilning ko'z ochib ko'rgan xotini chiqquncha Asadbek ostonada turdi. Qamara uni ko'rib hayratlandi.

- Jalil uydami? - so'radi Asadbek.

- Yo'g'idilar... Ertalab chiqib ketuvdilar... Bugun birinchi... Siznikiga ketdilar, debman.

Asadbek ikkilanib o'tirmay kirdi. Mehmonxona yig'ishtirilmagan edi. Qamara Asadbekning kirishi mumkinligini tasavvur ham qilmagani uchun shoshib, dovdirab qoldi.

- Kennoyi, siz bezovta bo'lmang. Men hozir ketaman, - dedi Asadbek urinib qolgan divanga o'tirib. U kira solib divanning oyog'i o'rniga gazetaga o'ralgan g'isht qo'yilganini ko'rgan edi, shu sababli ehtiyot bo'lib cho'kdi.

- Voy, ovorasi bormi, siz har kuni kelib yuribsizmi? Kecha nevaracham bir yoshga to'ldi. Shuning uchun hamma yig'ilgan edi. Kecha... o'ttiz birinchi dekabr... Asadbek Qamaraga yalt etib qaradi. Ayolning gapi unga ukasi Samandarni eslatdi. Samandari ham o'ttiz birinchida tug'ilgan edi. Bir yoshga to'lganida bunday tantana yo'q edi. Tanchada o'tirib, qora nonni iliq suvga botirib qorinni to'qlash - ular uchun katta bayram bo'lgan o'shanda. Jalilning uyiga yozilgan dasturxon ham Asadbek qarichi bilan o'lchansa - xarobgina tantana. Lekin har kimning qarichi har xil. Dasturxon ustiga bir tishlam qotgan non qo'yilsa ham, atrofiga farzandlar

yig'ilsa to'kin dasturxonidan fayzliroq bo'lib ketadi.

- Nevarangizning oti nima! - deb so'radi Asadbek.

- O'rtog'ingiz kitob qarab Samandar deb qo'yganlar. O't-olovni ham pisand qilmaydigan g'alati qush bo'larkanmi-e... Qudalari "Ulug'bek" deb qo'ymoqchi ekanlar. "Hey, dadasi, bolaga ismni qiz tomon qo'ymaydi", desam ham "Hammayoqni bek bosib ketdi, bitta Samandar bo'lishi kerakmi yo yo'qmi!" deb qaysarlik qilib turib oldilar. Baraka topgur, qudamiz juda yaxshi odam-da. Xo'p, deb ko'nib qo'ya qoldilar...

Qamaraning oyoq-qo'li ham, tili ham chaqqongina edi. Cho'loq divanda kim yastanib o'tirganini unutilib gapga tushib ketdi. Uning so'zlari Asadbekning qulog'iga kirmadi. "Samandar" degan ismni eshitib qo'z oldi xiralashdi. Tomog'iga bir nima tiqildi. Yarim soat burun pulining ko'pligidan esini yo'qotgan vinzavod boshlig'ining taqdirini bir so'z bilan hal etgan Asadbek o'zini benihoya ojiz banda ekanini his etdi. "Hatto shu g'alcha xotinning baxti ham yo'g'a menda, - deb o'yladi. - Nevara ko'rsam, ismini Samandar qo'yaman, deb yuruvdim. Jalil ilib ketibdi. Kitob ko'rib qo'yganmish... Jalil o'zini haqqo'y deydi. Men uni noshud deyman. Baxt noshudlarga kulib boqarkan-da? Shu noshud qizini kuyovga uzatib, nevara ko'rib, xursandchilik qilib o'tirsa... Men shunday ham bo'lolmasam... Na akam, na ukam bor. Faqat... pulim bor. Bu noshudning puli yo'q. Ammo ukalari, kuyovi, Samandari bor... Men hashamdor uyda yashayman, uyimni dev yigitlar poylashadi. Bu noshud oyog'i siniq divanda yonboshlab yotib, o'laman deb turgan televizorni tomosha qiladi. Eshigi hamisha ochiq... Ko'ngli ham ochiq... Yangi divanni, rangli televizorni orzu ham qilmaydi... Nega orzu qilmaydi?! Odam ham shunchalik noshud bo'ladimi! O'ziga kerak bo'lmasa, bolalariga lozim-ku! Bolalarining ko'ngli sinmaydimi! Nevarasi shu cho'loq divanda yotib, shu xira televizorni ko'rib ulg'ayishi kerakmi? Ablah, noshud!" Yuragi ezilib o'tirgan Asadbekni birdan g'azab chulg'adi. Shart o'rnidan turdi.

- Hozir kelaman, - dedi Asadbek, - choyingiz qaynaguncha qaytaman.

Qamara bu gap shunchaki ko'ngil uchun aytildi, deb o'ylagan edi. Mehmonxonani yig'ishtirishga ulgurmay, Asadbek qaytgach, battar shoshilib qoldi. Qamara mehmonning ulug'ligini hisobga olib, ohori to'kilmagan yangi dasturxon yozdi. Kuyov chiqib Asadbek bilan qo'sh-qo'llab so'rashdi-da, choy quyib uzatdi. Hashamdor uylarda, to'kin dasturxonlar atrofida o'tirishga ko'nikkan Asadbekka qog'ozlari sarg'ayib, ayrim yerlari ko'chib tushgan uyda choy ichish boshqa payt bo'lganda malol kelardi. Uning hozirgi kayfiyati aynan shunday sharoitni qo'rsardi. G'arib ko'ngil, g'arib uyni sog'ingan edi.

Bir soatdan keyin Jalilning uyi besaranjom bo'lib qoldi. Besh-olti odam baravar bostirib kirib avval cho'loq divanni, so'ng stol-stullarni, so'ng xira televizorni olib chiqib ketishdi. O'rniga yangi divan, yangi stol-stullar, rangli televizor qo'yildi. Qamara "Voy, o'lmasam, voy, qiziq bo'ldi-ku", deyishdan boshqa so'z topmadi. Asadbek bu o'zgarishlarga aloqasi yo'qdek, pinagini buzmay turardi.

Jalil uyiga qaytganda hamma ish saranjom bo'lgan edi. U Asadbekka zahrini sochishga ulgurmaydi. Qo'rqan oldin musht ko'tarar, deganlaridek, Asadbek ostonada o'qrayib turib qolgan oshnasiga qarab baqirdi:

- G'ing desang, abjag'ingni chiqarib tashlayman, bu senga emas, Samandarga, tug'ilgan kuniga sovg'a!

Jalil Asadbekka bir nima deya olmadi, ammo xotiniga qarab o'qraydi. Qamara o'ziga qanday shirin gaplar atab qo'yilganini fahmlab, labini tishladi.

- Senga nima bo'ldi? - dedi Jalil, Asadbekka tikilib, - paytavangga qurt tushganini bilib turibman.

- Mening paytavamga emas, sening miyangga qurt tushgan, - Asadbek shunday deb Qamaraga qarab qo'ydi. U erkaklar gaplashayotganda ayol kishining atrofda ivirsib yurishini yoqtirmas edi. Qamara Asadbekning maqsadini anglab, tezgina chiqib ketdi. Asadbek shundan so'ng gapini davom ettirdi. - Nevara ko'ribsan, ismini Samandar qo'yibsan, oradan bir yil o'tibdi... Asad degan o'rtog'im bor edi, xursandchiligimga sherik qilay, ukasining oti ham Samandar edi, nevaramga ot qo'yishda bir so'rab olay, deyishga aqling kaltalik qildimi? Tiling bir qarich. Birovga so'z bermaysan-u, shunaqa narsalarga kelganda kallang ishlamay qoladi, xom oshqovoq!

Jalil unga qarab jilmaydi. Hozir uning qarshisida faqat Xudogagina bas kelolmaydigan Asadbek emas, ko'p jabru jafolarni birga tortgan, bir ko'chani changitib, bir yamoq ko'rpani tepishib katta bo'lgan oshnasi o'tirardi. Asadbekning ovozi amr ohangi ham, qahr ham yo'q edi. Asadbekning bu odati Jalilga ma'lum. U dunyo tashvishlaridan ezilib, bolaligini qo'rsagan paytlarida Jalilni toptirib kelib shu ohangda gap boshlaydi. Ikki oshna soatlab gaplashib o'tirishadi. Suhbat a'yonlarning ishtirokisiz bo'ladi. Zarur ish bilan kelgan Kesakpolvon ham, Chuvrindi ham ularning suhbatini buzishga jur'at qila olishmaydi. Bunaqa paytlarda a'yonlar matbuot xabarlariga taqlid qilib "ikki prezident yuzma-yuz uchrashdi. Xalqaro ahvolning muhim masalalari kelishib olindi", deb hazillashishadi. Yopiq eshik ortidagi "xalqaro ahvolning muhim masalasi" - yong'oq o'yinida chiqqan janjalning "tinch yo'l bilan hal etilgani" dan boshlanib, bitta kalishni galma-gal kiyib maktabga qatnash chog'ida yuz bergan sarguzashtlarni eslash bilan yakunlanadi.

Jalil Asadbekning bugun bu xususda gaplashish niyati yo'qligini bildi. Agar Hasanning o'ng biqini og'risa, Husanniki ham og'riydi, deganlaridek, Asadbekning yuragini tirnayotgan darddan Jalil bebahra qolishi mumkin emas. Asadbek dardini ichiga yutmoqchi. U otasi olib ketilgan kundan beri isyon yo'lga kirgan, ammo ochiq-oydin hayqirish, shiorlar ko'tarib maydonga chiqish yo'lidan bormay, arqonni uzun tashlab, dardni ham, g'azabni ham ichiga yutib asta ish ko'rishni o'rgangan edi. Jalilning yo'li bo'lak - o'ychi o'yiga yetguncha tavakkalchi uyiga yetadi, qabilida ishni dangal bitirishga odatlangan. Hozir ham oshnasining gapni maydalashiga toqat qilolmadi.

- Yorilsang-chi! - dedi u jerkib. - Mendan boshqa dardkashing bormi?

Asadbek Jalilga tikildi. Xuddi ro'parasidagi odamni birinchi marta ko'rayotgandek tikildi. Gapirish oson. "Yorilish" - xotinlarga xos. Erkak dardini aytguncha to'lg'oq azoblarini boshidan kechiradi. Ayniqsa Asadbekni ezayotgan dard birovga aytgulik emas.

"Qizimni o'g'irlab ketib, keyin tashlab ketishibdi", deyishga til aylanadimi? Erkaklik nomusi, ori bunga yo'l qo'yadimi? Kecha

Jalilni atayin yo'qlatdi-yu, dardini aytolmadi. Bugun ertalab vinzavod boshqoni taqdirini hal etib uyga ketaman, deganda tashqarida savdo rastasi xo'jayiniga yo'liqdi. Xo'jayin savdo ahliga xos tavozelik bilan so'rashib, ikki qo'lini ko'ksiga qo'yib:

"Bag'ringiz to'lib, xursand bo'lib qoldingizmi?" dedi. Asadbek "Ha" ham, "Yo'q" ham demadi. Unga bir o'qraydi-yu, mashina eshigini ochdi. Bu odam qizining qaytganini eshitib, tabriklagani kelgan. O'zicha bu odamgarchilikka kiruvchi fazilat, odat.

Asadbek uning laganbardorligidan bir g'ashi kelgan bo'lsa, befahmligidan bir g'azablandi. Qizini kimlardir o'g'irlab ketib, qandaydir ahvolda tashlab ketishadiyu u xursand bo'ladimi? Qiziga tegishmagan bo'lishsa-ku, xo'p-xo'p... Yo'qsa... tirik qaytarishmagani ming marta afzal emasmidi... Asadbek mashinaga o'tirgach, xayolida boshqa gap o'rimaladi - bu odam is olibdimi, demak, ko'pchilik biladi. Bugun kechgacha shaharga tarqasa ham ajab emas. Nima qilish kerak? A'yonlari bilan ish yuzasidan maslahatlashadi. Ularni shu paytgacha oila sirlari, tashvishlariga tortmagan. Asadbek uchun oila - muqaddas. Har kimning ham

tumshuq suqaverishini xush ko'rmaydi. Chuvrindi uylangan yili "oilaviy bo'lib o'tirib turaylik", deganda, Asadbek "xotiningni bozorga solmoqchimisani", deb gapni kalta qilgan, shu-shu oilaviy bordi-keldi masalasi qayta tilga olinmagan edi. Ularning xotinlari faqat yo'qlov, to'y va ma'raka bahonasida ko'rishishar, "esonmisiz-omonmisiz"dan nariga o'tishmas edi. Shunday ekan, qizining endigi taqdirini a'yonlar bilan maslahatlashishi mumkinmi?

Asadbek Jalildan jo'yali maslahat chiqar, degan ilinjida emas, balki taskin ilinjida kelgan edi.

- Mish-mishlarni eshitgandirsan? - dedi Asadbek, oshnasidan ko'z uzmay.

- Men mish-mish orqalab yuradigan xotinmasman,- dedi Jalil. - Sen bo'ladigan gapni gapir.

"Rostdan eshitmaganmi?"

Asadbek savoliga javob topmoq istagida Jalilning ko'zlariga qaradi. Bu ko'zlarda aldov yo'q edi.

Jalil oshnasining to'lg'oq azobida ekanini his qildi. Bu dardni hatto eng yaqin odamga ham aytish og'ir ekan, demak, ish chatoq.

Jalil bir oz yumshoqroq gapirib, uning ko'nglini ovlash niyatida dedi:

- Kattaga katta dard yopishadi, gapir, o'zingni qiynama.

- Katta dard deysanmi?.. Bilmadim... Shu paytgacha menga birov qo'l ko'tarmagan edi.

- Dunyoni bekorga charxpalak deyishmagan. Zamon o'zgarib turadi, shunga aqling yetmabmidi?

- Yetgan edi, lekin...

- Yetgan bo'lsa, vaqtida etakni yop. Vaqtida ketsang - olam guliston.

Aytishga oson. Zamon sahnasidan tushishning o'zi bo'ladimi? Pastdagilar seni alqab, boshiga ko'tarib yurishga tayyor bo'lsa,

sahnadan dadil tusha olarkansanmi? Tushishingni qo'lda nayzalar bilan poylab turganlar-chi? Shu nayzalar borligini bilmaganda Asadbek Jalilning maslahatiga muhtoj bo'larmidi? Asadbek gapni cho'zishning hojati yo'qligini anglab:

- Qizimni o'g'irlashdi, - dedi. Shu gapni aytdiyu uyatdan yonib ketay deb ko'zini olib qochdi. Aybiga iqror bo'lgan gunohkorday boshini egdi.

- Qachon? Topilmadimi?

- Kecha o'zlari tashlab ketishibdi.

- Kimligini bildingmi?

- Aniq bilmayman. Gumonim bor.

Jalil o'yg'a toldi. Bir necha nafasdan so'ng xo'rsindi:

- Xudodan qaytibdi.

Asadbek boshini shartta ko'tardi:

- Bu nima deganing?!

- Sen maishat qilgan qizlarning ham ota-onalari bor edi, ular ham ezilgandir, Xudoga nolalar qilgandir. Xudo kar emas, bu ohlarni eshitgandir?

- Og'zingga qarab gapir! Mening maishat qilganimni ko'rdingmi?! - Bu safar Asadbekning ovozi titrab chiqdi. Jalil uning ko'zlariga qarab qo'rqdi: bu ko'zlarda g'azab uchqunlanayotgan edi.

- Ko'rib nima, men sening mahramingmanmi, izingdan yuradigan. Eshitganman, hamma gapiradi.

- Hamma gapirsa ishonaverasanmi, he... s-so'tak! - Asadbek beixtiyor so'kindi. Boshqa vaziyat bo'lganda Jalil qarzga botmay, darrov qaytarardi. Oshnasining vajohatini ko'rib, o'zini tiydi.

- Bo'пти, o'zingni bos, - dedi u. - Qizing tirik ekan, Xudoga shukr qil.

- Jalil, - dedi Asadbek qahrli ovoza, - bilib qo'y, men nomard emasman. Men itning bolasi emasman, odam bolasiman.

Birovlarning burnini qonatib lazzat topaman, deb yurganim yo'q bu dunyoda. Alamim borligini bilasan-ku. Bu ahmoq gapni boshqadan eshitsam, xafa bo'lmas edim. Sen ham shunday deding-a!

- Sen qilmagan bo'lsang, bu ishni shotirlaring qilishadi. La'nat esa senga oqib kelaveradi. Sen odamlar ko'ziga bo'ri bo'lib ko'rinasan. Yesang ham, yemasang ham baribir og'zing qon. Sen men bilan gap talashma. Bo'ladigan gapdan gapir. Tumshayib yuravermassan, axir. Nima qilmoqchisan?

- Hayronman...

- Gap qaynab chiqmasidan uzatvor qizingni.

Asadbek kechadan beri xayolning qaysi ko'chasiga kirmasin, shu to'xtamga kelayotgan edi. Jalildan ham shu fikr chiqishini kutgan edi. Kutilgan fikr aytildi, ammo yengil tortmadi. Chunki fikr aytmoq oson. To'y qilish ham oson. Biroq, qizining yuzi yorug' bo'ladimi - mashaqqat shunda. Kuyov bo'lmish Asadbekning qahridan qo'rqib hozir indamasligi mumkin. Keyinchi? Zamon sahnasidan tushib ketgach, qizi xo'rlanmaydimi? Ko'chaga haydalmaydimi? Sharmandalik libosiga o'ralmaydimi? Asadbekning xavotiri shunda. Siz "Xo'sh, o'zining or-nomusi-chi?" deyishingiz mumkin. Bir dono shoir "ota-ona mehrisiz ham yashamoq mumkin, ammo mumkin emas nomussiz yashash", deganda ming karra haq. Asadbek ota-ona mehriga to'ymay o'sdi. Qizining o'g'irlanishi - uning nomusiga tegishmagan taqdirda ham - ota-ona nomusining toptalishi bilan barobar. Shunday ekan, Asadbek bunga qanday chidasin?! Chap yelkada o'tirgan shayton qasosga undaydi: "Qo'lingni uzatsang yettinchi osmonga ham yetadigan insonsan. Birov sening kosangga tuflabdi, ertaga el oldida basharangga tupurishadi. Otangni olib ketishganda nochor eding. Ana shu nochorlik seni bir umrlik armon o'tida kuydiryapti. Endi ham nochormisan? Qon to'kmasang erkak emassan! O'zingni ko'rsat!

Nomus uchun qon to'kish lozimligini erkaklarga eslatib qo'y!!" Ammo qilich yalang'ochlangan damda o'ng yelkada o'tirgan Rahmon bila-gidan ushlab to'xtatadi. Qon to'kishga yo'l bermaydi. "Gumoning to'riga o'ralganlarni tig'dan o'tkazishing - o'jizliging alomati. Gunohkor osongina jon berib qutulib ketadi. Sen esa nomus azobida to'lg'anib qolaverasan. Sen hozir uning gunohlaridan o't. Ammo shunday qilginki, umri azobda o'tsin. Vaqti kelib oyog'ingga bosh ursin, tavbalar qilsin. Ana shunda o'ldirsang xumordan chiqasan. O'lsang, ko'zing ochiq ketmaydi..."

Shu ovoz Asadbekni ushlab turibdi. Nomus azobiga chidashga majbur etyapti. Jalilning uyiga boshlab kelgan ham shu ovoz. Agar oshnasi "ularni qirib tashla" desa bas, yangi yilning birinchi kuni qonlar to'kish bilan boshlanadi. Asadbek Jalilning bunday demasligini biladi. Bilgani uchun ham uni qora tortib keldi.

eslayverasiz, entikaverasiz. Ayniqsa jon-jo'ralar uchrashganda uyquni ham tark etib, uzun kechalar xotiralar ixtiyoriga berilishadi. Asadbek bilan Jalilning bunday kechalari ko'p bo'lgan.

Jalil oshnasi ko'nglidagi g'uborni ana shu xotiralar yordamida quvmoqchi bo'ldi. Lekin eng yorqin voqealar ham Asadbek ko'ngliga ravshanlik bermadi. U tund qiyofada o'rnidan turib, Jalil bilan xayrlashdi. Jalil uni kuzatib ko'chaga chiqdi. Asadbek mashina sari yurganida orqadan Jalilning ovozi keldi:

- Ko'chada Asadbekka o'xshab yur, shunchalik cho'kasanmi?

Bu gapni eshitib Asadbek qaddi bukilib qolganini sezdi. Jalil hech qachon uning qudratini pesh qilib gapirmagan edi. Hozirgi aytgani... "Asadbekka o'xshab yur..." Mana shu gap unga dalda berganday bo'ldi. Qaddini tikladi. Chuqur nafas oldi. Mashina eshigini ochgach, orqasiga o'girildi.

- Qorangni ko'rsatib tur. Odamlarning oshnasiga o'xshab yo'qlashni qachon o'rganasan?

Jalilning sanchib oladigan javobi tayyor edi-ku, ammo birodarining ahvol-ruhiyasini o'ylab tilini tiydi. Jilmayib, bosh irg'ab qo'ya qoldi.

Asadbek hovliga qadam bosgach, oshxonadan chiqayotgan qiziga ko'zi tushdi-yu, beixtiyor to'xtadi. Qizi ham uni ko'rib bir on harakatsiz qoldi. So'ng past ovozdada salom berib, shoshganicha iziga qaytdi. Ota bilan qizning nigohlari bir soniyagina uchrashdi. Go'yo to'satdan yashin chaqnaq qorong'ilik bag'rida o'tanayotgan ikki xasta dilni yoritib o'tganday bo'ldi. Yashin nuri so'nishi bilan ularning har biri o'z jahannamiga, yana o'tda qovurilish, azoblanish uchun qaytdilar.

Qiz nima uchun otasi oldiga yugurib kelmadi, nima uchun bo'yniga osilib ko'z yosh to'kmadi, nima uchun nolalar qilmadi? Nima uchun dardini yutib jahannam azobini o'ziga ravo ko'rdi? Asadbek qo'rqib kutgan hodisa ro'y bermadi. Ha, u qizi bilan uchrashishdan qo'rqayotgan edi. Qizi faryod urgan taqdirda ichini kemirayotgan vulqonning otilishi tayin ekanini bilib, tashvishlanayotgan edi.

Asadbek qizini sira erkalamasdi. Kesakpolvon - g'azabga minganida otasini ham tanimaydigan qahri qattiq odam, oyda bir marta xotinini urib turmasa yegani ichiga tushmaydigan jizzaki erkak - bo'yi yetgan qizini haddan ziyod erkalab, yuzlaridan chimdib, o'pib qo'yganida Asadbekning g'ashi kelardi. Ba'zan tanbeh berib, ba'zan "qizingni erga berganingda o'zingni ham qo'shib berasanmi", deb piching qilardi. Kesakpolvon Asadbekning bunday gaplarini, pichinglarini qulog'iga olmasdi. "Bu qizimni o'zim tuqqanman", deb tirjayardi, xolos. Kim, qanday tug'ishini yaxshi fahmlaydigan qizi otasining bu hazilidan yayrab, battar erkalanardi. Har to'kisda bir ayb, deganlaridek, begunoh odamning jonini sug'urib olishda kiprigi qilt etmaydigan odamning farzandiga nisbatan shunday mehri borligi olamning ajabtovurligidan edi.

Asadbek ba'zan "men ham bolalarimni erkalashim kerakmi?" deb o'ylab qolardi. Ota-onaga erkalanish nima ekanini bilmay o'sgan odam uchun bu mushkul savdo ekan. Farzandga mehribonlik boshqa, erkalash, taltaytish boshqa. Shu bois Asadbek bolalarini erkalatmasdi, deyilganda "u farzandlariga bemehr edi", deb tushunmaslik lozim. Alqissa, hozirgina oshxonaga kirib ketgan qizi unga salom berish bilangina kifoyalanar edi. Asadbek shunga ko'nikkan bo'lsa-da, hozir andak ajablandi. Qizining nomus o'tida kuyib kul bo'layotgani unga hozircha noma'lum. Buni keyinroq idrok eta boshlaydi. Yashin chaqib, chok-chokidan so'kilib qolgan qora bulutlar orqasidan oy ko'rinish, qorong'ilik chekingani misol, oshxonadan xotini chiqdidiyo ko'ngli ravshan tortdi. Ko'pchilik nazarida dahshatli odamxo'r sifatida gavdalanuvchi Asadbek shu onda xotinini bag'riga bosib yig'lagisi keldi, desam, albatta ishonmaysiz. Lekin siz ishoning. Mol-dunyosi behisob, o'l desa o'ladigan odamlari bor bo'lgan holda hasratini eshitadigan hamrozi yo'q kishining holiga siz ham rahm qiling. Bu fojiani hatto g'animlaringizga ham ravo ko'rmang.

Yig'lagisi kelgani bilan Asadbek yig'lay olmasdi. Xotini unga dalda bergisi kelganda ham yupata olmasdi. Og'ir bo'lganda shu Manzuraga og'ir. U ikki o't orasida. Bir tomondan qiziga achinsa, kuysa, boshqa tomondan erining g'azabidan qo'rqadi. "Jahl ustida bir nima qilib qo'yimasalar edi", deb joni halakda. Hozir oshxona ostonasini hatlab chiqdi-yu, qo'rquvdan piri-pirayotgan ko'zlarini eriga tikib, salom berdi. So'ng:

- Yaxshi keldingizmi, adasi, - dedi. Bu gapini o'ziga eshitdi. Qo'rqibgina, astagina aytilgan so'zlar havoga singib ketdi.

Asadbek uyga qarab yurdi. Manzura unga ergashdi. Ichkari kira turib chaqqonlik bilan engashdi-da, eri betartib yechgan tuflini juftlab, bir chetga olib qo'ydi. So'ng ichkari kirib, Asadbek uzatgan paltoni olib, ilgakka ildi. Bu jarayon kunda takrorlanadi.

Tashqaridan kuzatgan odam har kuni bir tomoshani aynan ko'rganday bo'laveradi.

Asadbek ichkari kirib o'zi xush ko'ruvchi tebranadigan yumshoq o'rindiqqa emas, deraza tomondagi bir qavat ko'rpachaga o'tirdi.

- Voy, to'xtang, ko'rpacha solay, - dedi xotini shoshilib.

Asadbek "kerak emas", degan ma'noda qo'l ko'tardi. Manzura bu ishorani ko'rmaganday narigi uyga kirib ko'rpacha ko'tarib chiqdi.

- Birpasga turing, adasi.

Asadbek o'rnidan jilmadi.

- O'tir.

Manzura gilam ustiga o'tirib, ko'zini yerga tikdi.

Asadbek gapni nimadan boshlashni bilmay kalovlandi.

- Tinchlikmi? - dedi u bir oz sukutdan so'ng.

- Tinchlik, - dedi xotini siniq ovozdada.

- Bir nima dedimi?

- Yo'q hali.

- So'ramadingmi?

Manzura eriga shoshilib qarab oldi-yu, boshini egdi.

- Qanday so'rayman.

- Men so'raymi bo'lmasa!

- Voy, adasi...

- Ha, latta!

Asadbek shunday deb to'ng'illadi-yu, baqirib yuborishdan o'zini tiydi. "So'raganining nima foydasi bor?" degan fikr uni jilovdan tutdi. Xo'sh, so'radi ham deylik, "zo'rlashdi" degan javob oldi nima-yu "tegishmadi" deganda nima? Har ikki holda ham o'g'irlangan qiz odamlar uchun nomussiz bo'lib qolaberadi-ku?..

- Endi nima qilmoqchisan?

Manzura endi nima qilishi mumkin? Uning yig'lashdan, fig'on chekishdan bo'lak narsaga qudrati yetadimi? Asadbek buni yaxshi

biladi. Shuning uchun savol berishga berib qo'yib, javob kutmadi. Shuncha yil birga umr kechirib xotini bilan maslahatlashmagan odam shu nozik pallada fikrlasharmidi? Nima haqda so'zlashishni bilmagani uchun ham shu so'roq tilidan uchdi. U hozir yonida xotini bo'lishini istardi. Manzura chiqib ketsa vujudi kimsasiz uydek huvillab qolishini his qilardi. Ammo xotini ro'parasida o'tirar ekan, xuddi urishib qolganday og'ziga talqon solvolmaydiku. Xotinning kamgap, baodob bo'lgani yaxshi-ya, ammo mana bunaqa paytda erni ezib tashlaydi-da... Manzura gapga chechanroq bo'lganida Asadbekni g'uborli o'ramdan olib chiqarmidi... Tashqaridan erkak kishining ovozi kelib, Manzura chaqqon o'rnidan turdi-da, deraza osha hovliga qaradi.

- Mutavallingiz, - dedi ajablanib.

- Chaqir, - dedi Asadbek.

Manzura tez-tez yurib chiqdi. Dam o'tmay eshik og'zida bo'yni uzunligidan egilibroq yuruvchi, egniga urinibroq qolgan palto, boshiga yangi suvsar telpak kiygan mutavalli kirdi. Soqol-mo'ylov ulashilganda kechroq qolgan, ammo yaratgan "shu ham erkakku", degan rahm bilan topib bergan besh-o'nta tukni savlat qilib o'stirib, jamiki tirik jonning ensasini qotirguvchi Karimullaga Asadbekning ham toqati yo'q edi. Yetimxona boshqoni bo'lib ishlab, o'z ta'biri bilan aytganda, shaytonning bittagina gapiga kirdiyu, olti yil umrini simto'siqlar ortida o'tkazib qaytdi. Yana firqaga tiklash masalasida ko'p urindi. Firqa a'zolidigiga qayta olganida turqi tarovati o'zgacha bo'lardi. Hatto o'ziga ham yoqmaydigan, soqol-mo'ylov degan nomga isnod keltiruvchi bu tuklar o'stirilmasdi. Xitoyning ohori to'kilmagan oq ko'ylagini kiyib, Olmoniyaning no'xot gulli qizil bo'yinbog'ini taqib, finlarning ko'zni oluvchi kostyumini egniga ilib, gerdayib yurardi. Ayb o'zida - rayqo'mga uzatishi lozim edi. O'zini xokisor ko'rsatib bir yanglishdi. Rayqo'mdagilar xokisorlarga rahm qilar deb o'ylab edi. Rahmdillar rayqo'mda emas, bu tomonda ekan. Baxtiga mahallada masjid qurilishi boshlandi. Avvaliga haybarakallachi bo'lib yurdi. "Uni u yoqqa ol, buni bu yoqqa qo'y", deb turish, choyni shopirib qaytarib o'zidan ulug'roq odamlarga ta'zim bilan uzatish hadisini olgan edi. Qurilishda har kuni o'ralashib yuruvchi bitta bekorchi kerak ekan. Shundan foydalanib, poydevor bitmasidanoq o'zini "mutavalli" deb e'lon qildi. Abdukarim degan ism, garchi mullalikka daxldor bo'lmasa-da, Karimulla deb o'zgartirildi. Bu "mulla" xotirasi zaifligi tufayli to'rt oy badalida "Oyatal kursi"ni yod ololmay, ikkita kichik sura bilan tirikchilik qiladi. O'shanda o'stira boshlagan "soqol-mo'ylov" imorat tomi yopilbdiki, hali bir enlikdan nariga o'tgani yo'q. Bu hol Kesakpolvon uchun bir ermak. Uni har ko'rganida "Karimullaning soqli ichkariga qarab o'sadi", deb mazax qiladi. Asadbek mutavallinging tezroq ketishini istaydi, Kesakpolvon esa uni masxaralab o'tirishni yoqtiradi. Karimulla bu masxarani malol olsa-da, sirtiga chiqarmaydi. Kesakpolvonning gaplaridan miriqqanday xixilaydi. U Asadbekdan cho'chiydi, kamgap, mulohazali Chuvrindidan esa qo'rqadi. Shu holda a'yonlardan biri uni "o'ziga yaqin olib" "hazil" qilar ekan, nimasi yomon?

Karimulla Asadbek yolg'iz emasdir, degan xavotirda edi. Ichkariga kirgach, yayrab ketdi. Ildam yurib kelib Asadbek bilan qo'shqo'llab so'rashdi. Asadbek o'rnidan qo'zg'olmay, qo'l uchini berdi.

- O'rusning yangi yili muborak bo'lg'ay, - dedi Karimulla ishshayib.

Asadbek unga javob bermadi. "Xo'sh, nimaga kelding?" degandek norozi qiyofada boqdi. Karimullaning maqsadi yangi yil bilan tabrik etish emas, balki ko'ngil so'rash, shu orqali o'zining ham ruhan "aziyat chekayotganini" ma'lum qilib qo'yish edi. Ammo Asadbekning qarashi uni shoshirib qo'ydi. "Sizga qasd qilganlar past bo'lsin, qizingizning baxti ochilib ketadi, inshoolloh", deb diliga tugib kelgan gaplarini ham unutdi.

- Bitta xonaga joy qilib namozni boshlab yubordik. Butun mahalla duoi joningizni qilib yotibdi. Suvoqchilar xonaqohdan chiqishdi.

Xabar Asadbekni mutlaq qiziqtirmayotganini sezib Karimulla jimib qoldi. Shu gaplarning o'zini aytib chiqib ketaverish mumkinmasdi. Shu uchun bir oz kalovlandi.

- Ayvonning... to'siqlariga temir kerak ekan, borsak bermadi, zang'ar. Limit-pimit deydimi-ey...

- Temir senga hozir kerakmi? - dedi Asadbek tutoqib.

Shu topda Asadbekning ko'ngliga bunday gaplar sig'masligiga, umuman, mayda-chuydalar bilan shug'ullanish boshqa a'yonlarning ishi ekaniga Karimullaning kalta fahmi yetarmidi?

Asadbek shart o'rnidan turdi. Karimulla "tepib qoladi shekilli", deb qo'rqib, o'zini chetga oldi. Asadbek eshik yoniga ilingan, shapaloqdek keladigan xorij telefonini olib, chiroyli tugmachalarni bosib raqam terdi.

- Allo, kim bu? - degan erinchoq ayol ovozi keldi.

- To'xtasin kerak, - dedi Asadbek jerkib.

- Uxlayaptilar.

- Uyg'ot, g'aflatni, Asadbek akam so'rayaptilar, de.

- Voy, assalomu alaykum, hozir... Ana, turib kelyaptilar...

Yarim daqiqa o'tmay xirildoq ovoz eshitildi:

- Assomaykum, Bek aka, tinchmisiz, omonmisiz, yangam...

Asadbek uning gapini shart bo'ldi.

- Masjidga nima uchun temir bermading?

- Okaxon, limit...

- Ikki soatdan so'ng temirlar masjidga bo'lsin.

- Bek aka, ertaga ertalab...

- Ikki soatdan keyin masjidga chiqib ko'raman.

- Axir bugun kranchi...

- O'zing qo'l bilan ortasan.

Asadbek gapni kalta qilib, telefonni joyiga ildi:

- Ikki soatdan keyin ustalaring joyida bo'lsin.

Karimulla bu gapni eshitib, boshiga g'avg'o orttirganini bildi. Kirganiga ming pushaymon yedi. Topshiriqdan qutulib qolish uchun bahona izladi.

- Ustalarning haqiga sal kamxarjroq bo'lib qoluvdik. Chiqmaymiz, deb xafaroq bo'lib ketishibdi, - dedi mijg'ovlanib.

Asadbek mahallaga yordam bo'lsin, deb pul berardi, biroq sarf-xarajatlarni tekshirtirib ko'rmas edi. Bir hafta burun "mutavalli masjid haqini sichqondek kemirib yotibdi", degan gapni eshitib, "etimlarning haqidan qo'rqmagan, masjid haqidan qo'rqarmidi", deb g'ijingan, lekin chora ko'rishga shoshilmagan edi. Hozir shu gap yodiga tushdiy yanada tutoqdi:

- Ustalarning haqiga sherik bo'lmaganingda yetardi.

- Bek aka, unday demang-a, astag'firulloh!

- He, seni xudojo'y qilib tuqqanni...

Karimulla o'zini oqlashga kirishishning oqibati yaxshilik bilan tugamasligini anglab, boshini egganicha jim qotdi. Mo"minlikning shunisi yaxshi-da. G'azabga mingan odam tutoqaveradi, so'kaveradi, sen esa boshingni egib olib uning yetti pushtini ichingda o'qiyverasan. "Onangni!" deydi u, "onangning onasini qo'shib..." deysan sen. "Haromi!" deydi u, "o'zing itdan tug'ilgansan", deysan sen. Shu holda davom etaveradi. Senga yaxshi. Dilingdagini ovoz chiqarib aytding nimayu ichingda aytding nima? Farq shundaki, dildagi tilga uchsa joning ketishi mumkin, joningga rahm qilingan taqdirda abjag'ing chiqadi. Tilni besuyak yaratgan Xudoga zorlanib bir-ikki oy, balki bir umr ko'rpa-to'shak qilib yotarsan. Karimulla tilini tish hatlashiga yo'l qo'ymadi. Asadbek so'ka-so'ka bir tarsaki tushirib qolganini aytmasak, suvdan quruq chiqdi hisob.

Asadbek tarsakidan so'ng bu ko'samulla chiqib ketar, deb o'ylagan edi. Uning mutelik bilan qo'l qovushtirib, bosh egib turganini ko'rib:

- Yana nima darding bor? - dedi.

- Begim, bir qoshiq qonimdan keching, sizga noto'g'ri informatsiya berishibdi.

- Gapni cho'zma. Menga qanaqa xabar yetkazishni bilishadi. Haj qilmoqchimis-san, bu ham yolg'onmi?

- Rost, begim, rost. Men asli shu gapni aytay deb keluvdim. Oqsoqollar Asadbek aka ham borsinlar, deyshiyapti. Billalashib borsam, biram yarashadi... Siz bilan borsak, ikki marta haj qilganday bo'lamiz.

- Sen bilan yursam yarashadimi?

- Men bilan yurmasangiz ham... Asadbek hoji bo'lib yurishingiz yarashadi.

- Pulni qaerdan olasan? Kambag'al-faqir bo'lsang?..

- Begim, qarindosh-urug' bor, hozir o'n besh ming pulmi? Gunohlarni ko'p qilardik, oxiratni o'ylamasak...

- Oxiratni degin... O'n besh mingni to'lab u yoqdan mayda-chuyda olib kelsam, xarajatni qoplarmikin?

Asadbek bu savolni sinov uchun bergan edi. Buning fahmiga yetmagan Karimullaga jon kirdi.

- Chiqadi, begim, uncha-muncha qoladi ham.

- Xarajatdan tashqari yigirma ming qolarmikin?

Karimulla bu savolga o'ylamay-netmay javob qaytardi:

- Yigirma ming chiqmas-ov, ammo o'n mingcha qolar.

- Shunaqa degin, hisoblab qo'yibsan-da, a?

- Endi, odamlar aytib yurishibdi-ku...

Asadbek javonga yaqinlashib, eshigini ochdi. Karimulla taxlanib turgan pullarni ko'rib, entikib ketdi. "Xarajatni ko'taradi shekilli", deb quvondi.

- Qarindoshlaringni tinch qo'y, - dedi Asadbek, pul sanay turib. - Mana senga o'n ming, - u shunday deb beli bukilmagan pullarni Karimulla tomon tashladi. Karimullaning pulga uzatgan qo'llari muallaq qolaverdi. - Sen harom qadamingni Makkaga bosma, Makkaga pokiza odamlar borishi kerak. Yo'qol endi, ko'zimga ko'rinma.

Karimulla pullarni apil-tapil yig'ishtirib olib, qulluq qilganicha chiqib ketdi. Pullarni paltoning keng cho'ntaklariga sola turib "yigirma ming desam bo'larkan", deb o'kindi.

Asadbek joyiga borib o'tirib, yostiqqa yonboshladi. Bir dam xayollarga bandi bo'ldi. So'ng ko'ziga uyqu ilinib boshini yostiqqa qo'ydi. Qancha uxlaganini bilmadi. Bir uyg'onganida shom qorong'isi cho'kkan edi. Xotini kirib: "Ovqatga chiqasizmi yo shu yerga olib kiraymi?" deb so'radi. Asadbek "chiqaman", dedi-yu, yana uyqu elitib o'rnidan qo'zg'olmadi. Xuddi birov ikki yelkasidan bosib, miyasiga qo'rg'oshin quyayotganday ko'zlarini ham ocholmay qoldi. Miya sergak, quloq atrofda tiq etgan tovushni ham eshitadi. Ko'z esa g'alati uyquda - bir jarga qulaydi, yuragi qinidan chiqquday bo'ladi, bir bosinqiraydi, bir chala uyg'onadi... Shu ahvolda tong ottirdi.

Nonushtadan keyin Jamshid keldi.

- Bek aka, hammasi pishdi. Uyiga oborib qo'ydim,- dedi Jamshid.

- G'alva ko'tarmadimi?

- U-bu devdi, menam bir nima dedim.

- Bo'pti, ko'z-quloq bo'lib turlaring. Uyga mayda-chuyda yubordingmi?

- Bo'tqaning bolalari olib borishi kerak edi.

- O'zing xabar ol.

- Bek aka, ko'chada imom turibdi.

- Nima ishi bor ekan, yo tavba qilib kelibdimi?

- Bilmadim... eshitishimcha, "Volga"sini shumo qilib ketishibdi.

- Kim?

- Biznikilarmas.

- Topib, joyiga olib borib qo'ylaring.

- Kirsinmi, yo javob berib yuboraymi?

- Kiraqolsin, balki boshqa gapi bordir.

Qotmadan kelgan, ko'zlari ma'noli boquvchi, o'zi yosh, biroq qop-qora quyuk soqol-mo'ylovi ulug'roq ko'rsatayotgan imom - Sobitxon qori nomi bilan shaharda e'tibor qozongan edi. U imomlik qiluvchi kichkina, eski masjidga ba'zan odam sig'may ketardi. Qariyalar bu mulla yigitga ixlos qo'yib, uni mahalla masjidi imomligiga chorlagan edilar. Rad javobi olishgach, Asadbekning a'yonlari oraga tushishdi. Sobitxon o'jar edi. Oxir-oqibat Asadbekning o'ziga ham yo'q deyishdan qaytmadi. Asadbekka bu "olifta imomcha"ning dimog'dorligi yoqmadi. Sobitxonning: "Harom pullarga qurilayotgan masjidda men namoz o'qimayman", deyishi Asadbekni g'azabga mindirsa-da, chora ko'rishdan o'zini tiydi. Xalq orasida o'zi haqida bo'lar-bo'lmas mish-mishlar yurganda bu e'tiborli qorining boshidan birgina soch tolasi to'kilsa malomatlarga qolishini bildi. To'g'ri fikrlagan ekan - imom mashinasini o'g'irlatib, undan gumon qilibdi. Bu gap allaqachon shaharga tarqalgandir...

Sobitxon ostona hatlab kirib, qo'lini qovushtirgan holda, qiroat bilan salom berdi. Asadbek beixtiyor ravishda o'rnidan turib unga peshvoz chiqdi - qo'shqo'llab so'rashib, qizil duxoba qoplangan divanga taklif etdi.

- Keling, qori, qanday shamol uchirdi? - dedi Asadbek, fотиha o'qilgach.

- Yaxshilik shamoli emas, - dedi Sobitxon unga tikilib.

This is not registered version of TotalDocConverter

- Hay, hay, qori, men sonda qatnash qilmang!
- Sizni insofga chaqirish foydasiz ekanini bilsam-da...
- Qori, kelishib olaylik: siz meni insofga chaqirmang. Qanday yashashni o'zimga qo'yib bering. Men haqmanmi yo nohaqmanmi - qiyomatda ma'lum bo'ladi. Siz menga qozi emassiz. Siz gapni chaynamay muddaoga ko'chavering. Siz "Volga"ngizni o'g'irlatib, alam bilan kelgan odamsiz.
- Ha, taqdir, topib gapirdingiz. Ammo siz tomondan g'irromlik bo'ldi bu ish.
- Nima, g'irromlik?! Qori, avvalgi safar masjidga sarflagan pullarimni harom devdingiz, endi g'irromlik deysizmi? O'ylab gapirasizmi gaplaringizni? Siz kimsiz o'zi? To'rttagina surani ko'z yumib yodlab beruvchi qorivachchasiz, Xudo emassiz! Sizning kitoblaringizda tuhmatchini nima deyishadi? Tuhmatchining tilini kesish kerakmi?
- Astag'firulloh! Tuhmat qilayotgan bo'lsam kalomullo ursin!
- Kerak bo'lsa uradi ham. O'sha kuni indamagan edim. "Volga"ngiz borligini bilganimda "xo'sh, mening pullarim harom ekan, siz "Volga"ni qaysi halol pulga oldingiz?" deb so'rardim.
- Mening otam...
- Sizning otangiz Andijonda mashhur telpakfurush, bilaman. Telpakfurushlarning nayranglarini ham bilaman. Shuning uchun halollik haqida boshqalar gapirganda siz indamay yuravering. Xudoyiga borib, Qur'on o'qib tugun uchiga necha pul tugilarkin, deb yuradigan mo'ltoni odamsiz-u, yana menga g'irromdan gapirasizmi?
- Tuhmat qilmang, men Allohning kalomini pulga sotadiganlardan emasman!
- Men bilmagan narsamni aytmayman. Jirillamang. Bu shahar bedarvozaligini bilmaysizmi? Shaharda mingta Asadbek bor. Siz bittasidan gumonsirabsiz. "Volga"ngizni topib berishadi. Men bunaqa mayda ishlar bilan shug'ullanmayman. Asadbek Sobitxon bilan dastlab uchrashganida ancha baodob muomalada bo'lgan edi. Hatto qori harom pullarni tilga olganida ham Asadbek tutoqmagandi. Uning hozirgi fe'li, qo'rsligi Sobitxonni avvaliga ajablantirdi, so'ng picha qo'rquvga soldi. Agar odamlar orasida yurgan gap-so'zlar rost bo'lsa, kichkinagina masjidning imomi birdaniga yo'qolib qolsa ham ajab emas-da. Hozir uning bu xonadonga kirganini kim ko'rди? Chiqdimi, chiqmadimi - kim surishtirib o'tiribdi? Qori shularni o'ylab seskandi. Ichida kalima qaytarib qo'ydi.
- Xudo imomlar orasida insof va imon bobida basalomat bo'lgan Sobitxonni o'z panohiga olib, Asadbek qahrining to'lib-toshishiga yo'l qo'ymadi. "Mayda ishlar bilan shug'ullanmayman", deganidan so'ng Asadbek jim qoldi. Sobitxon ortiqcha so'zga hojat yo'qligini anglab o'rnidan turdi. Asadbek "bir piyola choy iching" ham demadi. Sobitxon uning qahrini qo'zg'otgan narsa nima ekanini fahmlamay, garang holda iziga qaytdi.

Avvalgi- qismB Keyingi